ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -6

# DEVELOPMENT OF SCIENCE

## scientific journal



# Development of science

## Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 6

ISSN 3030 -3907

*Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**BOSH MUHARRIR:**
***Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.***
**TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:**
***Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor***
***TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI***

**TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ**

***Bozorov G‘ayrat Rashidovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Abdurahmonov Olim Rustamovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Adizov Bobur Zamirovich***
*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor*
***Hayitov Ruslan Rustamjonovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Jumayev Qayum Karimovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Berdiyev Dorob Murodovich***
*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Maxmudov Rafiq Amonovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Tilloyev Lochin Ismatilloyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Raxmonov Qahramon Sanakulovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Barakayev Nusratullo Rajabovich***
*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Panoyev Erali Rajabboyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Ataullayev Sherzod Nabiullyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Murodov Malik Negmurodovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Axmedova Ozoda Bahronovna***
*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.*
***Safarov Bahri Jumayevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Xaydarov Axtam Amonovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Safarov Jasur Alijon o‘g‘li***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*

**KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ**

***Axmedov Voxid Nizomovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Umarov Baqo Bafoyevich***
*Buxoro Davlat Universiteti, professor*
***Kodirov Abduaxad Abduraximovich***
*Qarshi davlat Universiteti, professor*
***Qurbonov Mingniqul Jumagulovich***
*Qarshi davlat Universiteti, dotsent*
***Turemuratov Sharibay Naurizbaevich***
*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor*
***Tursunov Kaxor Shonazarovich***
*Qarshi davlat Universiteti, professor*
***Do‘stov Hamro***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor*
***Panoyev Nodir Shavkatovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Kasimov Sherzod Abduazimovich***
*Termiz Davlat Universiteti, professor.*
***Aliqulov Rustam Valiyevich***
*Termiz Davlat Universiteti, professor*
***Tropov Xamza Tursunovich***
*Samarqand Davlat Universiteti, professor*

**IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ**

***Nizamov Aslitdin Badreddinovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Boboyev Akmal Choriyevich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor*
***Saidaxmedova Nodira Ilxomovna***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor*
***Muxsinov Bekzod Toxirovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Shakarov Qulmat Ashirovich***
*Renessans ta'lim universiteti,dotsent.*
***Jumaeva Zulfiya Qayumovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Norova Salomat Yusupovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Jalilov Jamshid G‘anijonovich***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent*
***Xasanova Gulruh Djumanazarovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*

**PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**

***Siddiqova Sadoqat G‘afforovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Zoyirov Erkin Xalilovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor*
***Gaffarov Feruz Hasanovich***
Puchon Universiteti, *professor*
***Ruziyev Davron Yuldashevich***
*Buxoro Davlat Universiteti, professor*
***Muradova Firuza Rashidovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Yunusova Gulandon Samiyevna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***To‘xtayeva Zebo Sharifovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.*
***Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Uzoqova Laylo Polvonovna***
*Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.*
***To‘raqulova Marjona Qiyom qizi***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Muradova Zarina Rashidovna***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Murodov Sanjar Aslonovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.*
***Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich***
*Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent*
***Gaffarov Laziz Hasanovich***
*Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.*

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.


ISSN 3030-3907

**Development of science** ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.


ISSN 3030-3907

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| 1 | Paxta va soya moylari asosida maqsadli kupajlarni ishlab chiqarish texnologiyasi va ularning biologik qiymati<br>*Zayniddinova Moxlaroyim Baxodir qizi*<br>*Bafoyev Sanjar Sanoyevich*<br>*Oltiyev Azim To'yqulovich* | 9 |
| 2 | Paxta va soya yoglari aralashmasini past haroratda fraksiyalash jarayonini intensifikatsiyalash<br>*Zayniddinova Moxlaroyim Baxodir qizi*<br>*Bafoyev Sanjar Sanoyevich*<br>*Oltiyev Azim To'yqulovich* | 17 |
| 3 | Quyi molekulali polietilenning strukturasi va xossalari va ularni qoplama-surkov va mastikalar olish va qo'llash<br>*Ergashev Behruz Shavkat o'g'li*<br>*Temirov Alisher Hoshim o'g'li*<br>*Fozilov Sadriddin Fayzullayevich* | 29 |
| 4 | Koroziyaga qarshi himoya muammosi va uning yechimida surkov qoplamalar o'rni<br>*Ergashev Behruz Shavkat o'g'li*<br>*Temirov Alisher Hoshim o'g'li*<br>*Fozilov Sadriddin Fayzullayevich* | 41 |
| 5 | Сурковчи қопламаларининг коррозияга қарши ҳимоядаги роли<br>*Эргашев Бехруз Шавкат ўғли*<br>*Темиров Алишер Ҳошим ўғли*<br>*Фозилов Садриддин Файзуллаевич* | 48 |
| 6 | Metall yuzalarni korroziyadan himoya qilish uchun modifikatsiyalangan bitum-polimer mastik qoplamalarni ishlab chiqish<br>*Murodov J.M.*<br>*Temirov A.H.*<br>*Ataullayev Sh.N.* | 60 |
| 7 | Phosphate–ammonium modification of local bentonite and comprehensive evaluation of its adsorptive performance in kerosene purification<br>*Qobilov Shokir Juraqulovich*<br>*Olimov Bobir Bahodirovich* | 71 |
| 8 | Янги трактор концепциясини ишлаб чиқиш тенденциялари<br>*М.Қ Камолов*<br>*С. Н. Норов*<br>*М.С. Уринов* | 82 |
| 9 | Obtaining an environmentally safe lvd-complex inhibitor for gas processing equipment and determining its cleaning efficiency<br>*Toraeva Nodira Turabjonovna*<br>*Badriddinova Farida Makhamadievna*<br>*Matkarimova Nigora Sagdullaevna*<br>*Latipova Iroda Isomitdinovna* | 88 |
| 10 | Properties of complex additives and industrial wastes added to foam concrete<br>*Turapov Farxod Khursanovich*<br>*Rajabov Ramozon Shukhratovich*<br>*Saitmuratov Bobur Sobir o'g'li*<br>*Boymurodova Aziza Otabekovna* | 97 |
| 11 | Virusli pnevmoniya tashxis ma'lumotlariga raqamli ishlov berish jarayonining idef0 va idef3 modeli<br>*Nodira Naim* | 104 |
| 12 | Masofaviy ta'limning sotsial psixologik xususiyatlari<br>*Zavqiddin Gadoyev* | 111 |



ISSN 3030-3907

| | | |
|---|---|---|
| 13 | Sug‘orish kanallarida past naporli mikrogidroelektrostansiyalarni loyihalash: gidravlik-energetik hisoblar va texnik-iqtisodiy asoslash<br>*Urishev Boboraim*<br>*Ochilov Obid Boymurod o‘g‘li*<br>*Quvatov Ulug‘bek Jalolovich* | 119 |
| 14 | Mikro gidroelektr stansiyalarida gidroturbina ish rejimlarini avtomatik boshqarish tizimlarining tahlili va rivojlanish tendensiyalari<br>*Qodirov D.B.*<br>*Arzikulov X.M.* | 131 |
| 15 | Вероятностная оценка сейсмической уязвимости несущих каменных конструкций исторических зданий, усиленных инъекционными составами<br>*Файзуллаева З.Н.* | 139 |
| 16 | Mineral gil asosidagi adsorbentlar bilan bo‘yash va pardozlash bo‘limlaridagi to‘qimachilik oqava suvlarini zararsizlantirish<br>*Umarov Boburbek Nosir o‘g‘li*<br>*Narzullaeva Aziza Murodillaevna* | 147 |
| 17 | Talabalarning biologik kompetentligini rivojlantirishda web-platformalarning didaktik imkoniyati.<br>*Rabbimova Mohichehra Soyibjon qizi* | 157 |
| 18 | Iqlim o‘zgarishi sharoitida qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan yerlarining suv- tuz balansini modellashtirish va optimallashtirish<br>*Quvvatov Dilshod Ashuraliyevich*<br>*Ziyotov Ulug‘bek Amirqul o‘g‘li* | 163 |
| 19 | Mosh o‘simligining oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati.<br>*Abdiyev Anvar Almirzayevich*<br>*Xolliyeva Barchin Olimjon qizi* | 170 |
| 20 | Yuklama prognozi asosida elektr energetika tizimlarida chastota bo‘yicha avtomatik ortiqcha yuklamadan himoya qilishning ishlamay qolish xavfini prognozlash<br>*Xoliddinov Ilhomjon Xosiljonovich*<br>*Botiraliyev Yahyobek Akmaljon o‘g‘li*<br>*Mahammadjonov Sodirjon Nurmuhammad o‘g‘li* | 175 |
| 21 | The role of microteaching technology in developing professional competencies of pre-service teachers<br>*Ferangiz Qodirova Himmatilla qizi* | 194 |
| 22 | Integrating ai tools into celta-based english language teaching: a comparative analysis of traditional and technology-enhanced approaches<br>*Nizomov Feruz Rakhmon o‘g‘li* | 199 |
| 23 | Andijon shahrida yo‘lovchi oqimi va transport sig‘imi o‘rtasidagi muvozanatni tahlil qilish<br>*Nasirov Ilxam Zakirovich*<br>*Yusufaliyev Bekzodbek Abdukarim o‘g‘li* | 203 |
| 24 | Ikki bo‘g‘inli robot manipulyatorni pid boshqaruvi orqali tadqiq etish<br>*Xolmurotov Botirjon Tursinboyevich* | 210 |
| 25 | Quritish barabanida paxta massasining harakatlanish dinamikasini tadqiq etish<br>*Xolmurotov Botirjon Tursinboyevich* | 216 |
| 26 | Para-[bis-1,4-(4,4,4-triftorbutandion-1,3)]-benzol molekulasining xirshfeld yuza tahlili<br>*Xudoyarova E.A.*<br>*Hamroyeva S.Sh.* | 224 |
| 27 | The importance of the adsorption process in the vital activity of the body and treatment methods<br>*Sirojova Guldona*<br>*Amonov Obid*<br>*Muhammadiyev Abbos*<br>*G‘ulomxo‘jayeva Madina*<br>*Dilafruz Mansurova* | 230 |
| 28 | Идентификация и моделирование многоколонной ректификационной колонны для задач управления MPC<br>*Султанов Ильдар Рафкатович* | 236 |



ISSN 3030-3907

| | | |
|---|---|---|
| 29 | Mathematical modeling of heating and cooling processes in transformers<br>*Toirov Olimjon Zuvurivich*<br>*Khudoberdiev Shavkatjon Nurmatjon o'g'li* | 249 |
| 30 | Zamonaviy davolash amaliyotida antibiotiklarning ahamiyati va vazifalari.<br>*Egamqulova Pokiza.*<br>*Norqobilova Zulxumor.*<br>*Xatamova Marjona.*<br>*Ro'zimov Qudrat.*<br>*Ibragimov Ruslan.*<br>*Karimbayev Sunnat.*<br>*Dusmuratov Maqsud Mansurovich* | 255 |
| 31 | Yuqori haroratli quyosh energetik qurilmalar uchun parabolosilindrik konsentratorli qabul qiluvchi tizimning matematik modeli<br>*Sherqulov Bahrom G'ulomovich* | 261 |
| 32 | Parabolasilindrik konsentratorli issiqlik ta'minoti tizimida issiqlik almashinuvi jarayonlarini matematik modellashtirish<br>*Sherqulov Bahrom G'ulomovich* | 270 |
| 33 | Гелиоиссиққонада иссиқлик йўқотилишларини ҳисоблаш ва тадқиқот қилиш<br>*Шерқулов Баҳром Ғуломович* | 281 |
| 34 | To'qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalari<br>*Do'stqobilov Ulug`bek Ibroximovich* | 291 |
| 35 | Methodology for preparing the composition of foam concrete mixtures<br>*Turapov Farxod Khursanovich*<br>*Rajabov Ramozon Shukhratovich*<br>*Majidov Samariddin Rashidovich*<br>*Boymurodova Aziza Otabekovna* | 303 |
| 36 | Quyosh batareyalaridan samarali foydalanish orqali utilizatsiya muammosini oldini olish texnologiyalarining ilmiy-tahliliy asoslari<br>*To'rayev Dostonjon Erkin o'g'li* | 310 |
| 37 | Quyosh panellaridan foydalanishdagi elektr energiya yo'qotishlarini tadqiqot asosida yuklama tavsifi bo'yicha o'rganish uchun tajriba stendini yaratish<br>*Saydulla Abduraxmonovich Jurayev* | 315 |
| 38 | Mahsuldor qatlamni burg'ilash vaqtida burg'ilangan qum zarrachalarining burg'ilash eritmasiga salbiy ta'siri va uni bartaraf etish.<br>*Murtazoyev Abdujabbor Mustafoyevich*<br>*Abdalimov Azamat To'ra o'g'li*<br>*Xudoyberdiyeva Go'zal Shavka qizi* | 327 |
| 39 | Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash jarayonining nazariy va eksperimental tadqiqi<br>*S.H.Fayziyev*<br>*H.K.Raximov*<br>*O.O.Ibodullayev*<br>*I.P.Najmiddinov*<br>*M.R.Sadullayeva* | 333 |
| 40 | Ko'p agentli robototexnika tizimlari yordamida issiqxonalarda ekinlarni monitoring qilish va boshqarishning intellektual algoritmlari<br>*Safarov Rustambek Sunnatillo o'g'li* | 346 |
| 41 | Gidrotexnika inshootlarini boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati: surxondaryo viloyati misolida<br>*Axatov Bekzod*<br>*Usmonov Said* | 354 |
| 42 | Optimization of gas supply systems in vehicles<br>*Tursunov Mamatqul Karimovich*<br>*Xolboyev Yusuf Akrom o'g'li* | 360 |
| 43 | Моделирование автоматического управления температурно-влажностного режима и расчет под почвенного аккумулятора тепла солнечной теплицы | 368 |



ISSN 3030-3907

| | | |
|---|---|---|
| | *Файзиев Тулкин Амирович* | |
| 44 | Bug‘lanish asosidagi sovitish tizimining fotoelektrik modullar samaradorligiga ta’siri tahlili<br>*Nasrullayev Yusuf Zokirovich*<br>*Nematov Alibek Xayitniyazovich*<br>*Abdug‘aniyev Boburjon Akramjon o‘g‘li* | 376 |
| 45 | Prospects of decentralized direct current power supply systems with distributed solar generation<br>*Mirabbos Khidirov* | 382 |
| 46 | Havoning changlanganlik darajasini optik usul yordamida tahlil qilish<br>*Maxmudov M.I.*<br>*Nurov S.S.*<br>*Doniyorov F.O.* | 392 |
| 47 | Iot tizimlarini google workspace va google home platformalari bilan integratsiya qilish imkoniyatlari hamda samaradorlik tahlili<br>*Raxmatov Rasuljon Ravshanjon o‘g‘li*<br>*Umarov Abdumuxtor Maxammad o‘g‘li* | 398 |
| 48 | Влияние зубного протезирования на формирование прикуса у детей дошкольного возраста в процессе диспансерного наблюдения<br>*Индиаминова Гавхар Нуриддиновна* | 403 |
| 49 | Obtaining and comprehensive study of the physicochemical properties of surfactants with an assessment of their application<br>*N. S. Makhmudova.* | 409 |
| 50 | Разработка и исследование нечёткого регулятора с интегрированной антипомпажной защитой для газокомпрессорной станции<br>Нуров С.С.<br>Мусаев А.Х. | 414 |
| 51 | Азнек фосфорити асосида экстракцион фосфат кислота олишда ҳосил бўладиган фосфогипсдан боғловчи материаллар тайёрлаш<br>*Қаршиев Б.Н.*<br>*Нуриддинова З.А.*<br>*Хуррамов Н.И.*<br>*Сейтназаров А.Р.*<br>*Маматалиев А.А* | 425 |
| 52 | Технико-экономическая эффективность передачи электрической энергии в линиях высоковольтного постоянного тока (HVDC)<br>*Турсунов Дониёр Абдусалимович*<br>*Исмоилов Фазлиддин Жамолиддин угли* | 436 |
| 53 | Оценка пространственной структуры оросительно-дренажной сети на основе коэффициентов $k_1$ и $k_2$ (2021–2025 гг.) (на примере кашкадарьинской области)<br>*Турдиева Феруза Алишеровна* | 443 |
| 54 | Atrof-muhit muhofazasida yashil texnologiyalar va innovatsiyalarning roli.<br>*Jo‘rayeva O‘g‘iloy Abdiraxim qizi* | 451 |
| 55 | Analysis of existing risk management methods in healthcare practice in foreign countries<br>*Shavkatov Otabek Kozimbek o‘g‘li* | 456 |
| 56 | Lazy synchronization with interpolated state for discrete–continuous co-simulation of microcontroller-driven circuits<br>*Adizbek Ergashev* | 462 |



ISSN 3030-3907

# PAXTA VA SOYA MOYLARI ASOSIDA MAQSADLI KUPAJLARNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI VA ULARNING BIOLOGIK QIYMATI

**Zayniddinova Moxlaroyim Baxodir qizi**
*Buxoro davlat texnika universiteti magistratura talabasi*
**Bafoyev Sanjar Sanoyevich**
*Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktorant*
**Oltiyev Azim To‘yqulovich**
*Buxoro davlat texnika universiteti texnika fanlari doktori, dotsent*
*E-mail: azim1086a@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada paxta va soya moylarini ma'lum nisbatlarda kupajlash orqali biologik qiymati yuqori bo‘lgan moy kompozitsiyalarini yaratish texnologiyasi o‘rganilgan. Turli nisbatdagi kupaj namunalari — paxta moyi 60–70 %, soya moyi 30–40 % — tarkibida yog‘ kislotalari, tokoferollar va karotinoidlar miqdori tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari optimal nisbatdagi kupajlarda oksidlanishga chidamlilik 15–20 % ga, to‘yinmagan yog‘ kislotalari ulushi 20–25 % ga ortishini ko‘rsatadi. Kupajlangan moylarni ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari, jumladan xomashyoni tayyorlash, aralashtirish, filtratsiya va saqlash bosqichlari takomillashtirildi. Kupajlash natijasida moylarning oksidlanishga chidamliligi, oziqaviy qiymati va iste’mol xususiyatlari yaxshilanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Aholining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan talabi ortib borayotganligi sababli biologik qiymati yuqori bo‘lgan o‘simlik moylari ishlab chiqarish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarkibida to‘yinmagan yog‘ kislotalari, fosfolipidlar, tokoferollar va antioksidant moddalar mavjud bo‘lgan kupajlangan moy mahsulotlarini yaratish oziq-ovqat sanoatining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Olingan natijalar oziq-ovqat sanoatida funksional moy mahsulotlarini ishlab chiqarishda, aholini sifatli va biologik qiymati yuqori o‘simlik moylari bilan ta’minlashda hamda yog‘-moy korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Paxta moyi tarkibida tabiiy antioksidantlar va yuqori issiqlikka chidamli komponentlar mavjud bo‘lsa, soya moyi linol va linolen kabi muhim to‘yinmagan yog‘ kislotalariga boy hisoblanadi. Ushbu moylarni ma’lum nisbatlarda kupajlash orqali ularning foydali xususiyatlarini birlashtirish hamda biologik samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

**Kalit so‘zlar:** paxta moyi, soya moyi, kupaj, yog‘ kislotalari, biologik qiymat, oksidlanish barqarorligi, tokoferollar, biologik qiymat,to‘yinmagan yog‘kislotalari, funksional oziq-ovqat mahsulotlari.

**Аннотация.** В статье рассмотрена технология создания композиций масел с высокой биологической ценностью путем купажирования хлопкового и

соевого масел в определенных пропорцияхСовершенствованы технологические процессы производства купажированных масел, включающие этапы подготовки сырья, смешивания, фильтрации и хранения. Научно обосновано, что в результате купажирования улучшаются устойчивость масел к окислению, их пищевая ценность и потребительские свойства.из актуальных направлений пищевой промышленности является создание купажированных масложировых продуктов, содержащих ненасыщенные жирные кислоты, фосфолипиды, токоферолы и антиоксиданты. Полученные результаты имеют важное практическое значение при производстве функциональных масложировых продуктов в пищевой промышленности, обеспечении населения качественными и биологически ценными растительными маслами, а также при внедрении инновационных технологий на масложировых предприятиях.эти масла в определенных пропорциях, можно объединить их полезные свойства и повысить их биологическую эффективность.ованных масложировых продуктов, содержащих ненасыщенные жирные кислоты, фосфолипиды, токоферолы и антиоксиданты. Полученные результаты имеют важное практическое значение при производстве функциональных масложировых продуктов в пищевой промышленности, обеспечении населения качественными и биологически ценными растительными маслами, а также при внедрении инновационных технологий на масложировых предприятиях. Хлопковое масло содержит натуральные антиоксиданты и компоненты с высокой термостойкостью, в то время как соевое масло богато незаменимыми ненасыщенными жирными кислотами, такими как линолевая и линоленовая. Смешивая эти масла в определенных пропорциях, можно объединить их полезные свойства и повысить их биологическую эффективность.

**Ключевые слова:** хлопковое масло, соевое масло, купаж, жирные кислоты, биологическая ценность, окислительная стабильность, токоферолы, биологическая ценность, ненасыщенные жирные кислоты, функциональные продукты питания.

**Abstract.** This article studies the technology of creating oil compositions with high biological value by blending cottonseed and soybean oils in certain proportions. Samples of blends in various proportions — cottonseed oil 60–70 %, soybean oil 30–40 % — were analyzed for their content of fatty acids, tocopherols, and carotenoids. The results of the study show that the oxidation resistance of blends with the optimal ratio increases by 15–20%, and the proportion of unsaturated fatty acids increases by 20–25%. The technological processes of producing blended oils, including the stages of raw material preparation, mixing, filtration, and storage,

have been improved. The improvement of the oxidative resistance, nutritional value, and consumer properties of oils as a result of blending has been scientifically substantiated. Due to the growing demand of the population for healthy nutrition, the production of vegetable oils with high biological value is of great scientific and practical importance. One of the current trends in the food industry is the creation of blended oil products, which contain unsaturated fatty acids, phospholipids, tocopherols, and antioxidants. The results obtained are of practical importance in the production of functional oil products in the food industry, in providing the population with high-quality and biologically valuable vegetable oils, and in the introduction of innovative technologies in oil and fat enterprises. Cottonseed oil contains natural antioxidants and high-heat-resistant components, while soybean oil is rich in essential unsaturated fatty acids such as linoleic and linolenic. By combining these oils in certain proportions, it is possible to combine their beneficial properties and increase their biological effectiveness.

**Keywords:** cottonseed oil, soybean oil, blend, fatty acids, biological value, oxidative stability, tocopherols. ,biological value, unsaturated fatty acids, functional foods.

**KIRISH.**

Bugungi kunda jahon aholisining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan talabi ortib borayotganligi sababli biologik qiymati yuqori o‘simlik moylari ishlab chiqarish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Tarkibida to‘yinmagan yog‘ kislotalari, fosfolipidlar, tokoferollar va antioksidant moddalar mavjud bo‘lgan kupajlangan moy mahsulotlarini yaratish oziq-ovqat sanoatining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilgi PF-60-son Farmonida oziq-ovqat mahsulotlari assortimenti va sifatini yaxshilash, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish vazifalari belgilab berilgan. Shu munosabat bilan, paxta va soya moylari asosida kupajlar yaratish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining asosiy yo‘nalishlarida sanoat kooperatsiyasi asosida oziq-ovqat mahsulotlari va materiallari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, zamonaviy moslashuvchan va intensiv texnologiyalarni joriy etish, mahsulot tannarxini pasaytirish, jumladan, mahalliy xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish orqali tannarxni kamaytirish tadbirlari ko‘zda tutilganPaxta moyi Markaziy Osiyo aholisi iste'mol qiladigan asosiy o‘simlik yog‘i bo‘lib, tarkibida tabiiy antioksidantlar va yuqori issiqlikka chidamli komponentlar mavjud. Soya moyi esa linol (omega-6) va linolen (omega-3) kabi muhim to‘yinmagan yog‘ kislotalariga boy. Ushbu moylarni ma'lum nisbatlarda kupajlash orqali ularning foydali xususiyatlarini


ISSN 3030-3907

birlashtirish hamda biologik samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi [2, 3].

Oqilona va to‘g‘ri ovqatlanish masalasiga butun dunyoda katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu masalani hal etishda funksional xususiyatlarga ega bo‘lgan qo‘shimchalar yordamida oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini oziqlanish qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar hisobiga kengaytirish muhim o‘rin egallaydi.

Paxta yog‘i Markaziy Osiyo aholisi iste’mol qiladigan asosiy o‘simlik yog‘i turi hisoblanadi. Uning ta’mi va hidi aholiga ham maishiy, ham jamoat ovqatlanishida odatiy sanaladi. Shu sababli, turli salatlar, mayonezlar hamda margarin mahsulotlarini tayyorlashda paxta yog‘ining individual (to‘yingan va to‘yinmagan) fraksiyalaridan keng foydalaniladi. Bunday fraksiyalar paxta yog‘ini past haroratda fraksiyalash usuli yordamida olinadi.

**TADQIQOT MAQSADI VA VAZIFALARI.**

Tadqiqotning asosiy maqsadi — paxta va soya moylarining optimal kupaj nisbatlarini aniqlash, olingan kupajlarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari va biologik qiymatini baholashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

–turli nisbatlardagi paxta-soya kupajlarini tayyorlash;

–kupajlarning yog‘ kislota tarkibi, tokoferollar va karotinoidlar miqdorini aniqlash;

–oksidlanishga chidamlilik va organoleptik ko‘rsatkichlarni baholash;

–optimal kupaj variantini asoslab berish. funksional ahamiyatga ega bo‘lgan yog‘-moy mahsulotlari assortimenti va sifatini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, buning uchun paxta va soya yog‘lari aralashmasidan olinadigan paxta-soya palmitinini ajratish va undan foydalanish, paxta-soya palmitinining margarin mahsulotlarining sifati va funksional xossalarini boyitishdagi ahamiyatini aniqlash, ushbu ishlanmalarni ilmiy-nazariy asoslash va ularning amaliy joriy etilishini ta’minlashdan iborat.

–Paxta va soya yog‘larining optimal aralashmasini, ya’ni kompozitsiyasini yaratish orqali salatbop yog‘ va palmitinni intensiv past haroratli ajratish imkoniyatini ta’minlash; aralashma komponentlari nisbatining olingan salatbop yog‘ va palmitinning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish; paxta va soya yog‘lari aralashmasining past haroratli kristallanish jarayonining optimal texnologik rejimlarini ishlab chiqish; paxta va soya yog‘lari aralashmasidan salatbop yog‘ va palmitin olish bo‘yicha intensiv texnologiyaning tajriba-ishlab chiqarish sinovlarini o‘tkazish; paxta va soya yog‘lari aralashmasidan salatbop yog‘ va palmitin olish texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy samarani hisoblash.

**MATERIALLAR VA METODLAR.**


ISSN 3030-3907

Tadqiqot obyektlari sifatida Buxoro viloyatining yog‘-moy korxonalarida ishlab chiqarilgan rafinatsiyalangan paxta moyi va rafinatsiyalangan soya moyi olingan. Kupaj namunalari quyidagi nisbatlarda tayyorlangan: 70:30, 65:35, 60:40 (paxta:soya).

Yog‘ kislotalari tarkibi gaz xromatografiya usulida (Agilent 8860 GC) tahlil qilindi. Tokoferollar miqdori HPLC usulida, karotinoidlar esa spektrofotometrik usulda aniqlandi. Kislotalik soni va oksidlanish barqarorligi standart GOST usullarida baholandi. paxta va soya yog‘lari aralashmasining past haroratli kristallanish jarayonini intensivlashtirish hamda olinadigan palmitindan margarin mahsulotlarida oqilona foydalanish masalalarini o‘z ichiga oladi.Eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirishda fizik-kimyoviy tahlil usullari, xususan, spektral, infraqizil (IK) spektroskopiya, dilatometriya va boshqa tahlil usullari qo‘llanildi.Paxta yog‘i va soya yog‘i aralashmasining komponentlari optimal nisbatlari va ularning past haroratda kristallanish texnologik rejimlari ishlab chiqildi;

Paxta va soya yog‘lari aralashmasidan past haroratli ajratish orqali olingan salatbop yog‘ va palmitinning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlandi;

Olingan salatbop yog‘ va palmitinning margarin mahsulotlarida oqilona foydalanish yo‘llari asoslab berildi.Birlamchi paxta yog‘i va soya yog‘i aralashmalarining optimal kompozitsiyasi yaratilgan bo‘lib, u past haroratda intensiv kristallanish orqali to‘yintirilmagan yog‘ kislotalari, tokoferol (E vitamini) va boshqa biologik faol moddalar miqdori yuqori bo‘lgan salatbop yog‘ hamda fosfolipidlar va boshqa fiziologik faol qo‘shimchalar bilan boyitilgan palmitin olish imkonini beradi.

**TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA.**

Tadqiqotlar natijasida kupajlangan moylarning asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlandi. 1-jadvalda turli kupaj nisbatlarida olingan natijalar keltirilgan.

**1-jadval.**

**Kupajlangan moylarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari**

| Ko‘rsatkich | 70:30 | 65:35 | 60:40 |
|---|---|---|---|
| Kislotalik soni, mg KOH/g | 0,28 | 0,26 | 0,27 |
| Yod soni | 108 | 112 | 116 |
| Tokoferollar (mg/100g) | 62 | 68 | 74 |
| Linol kislotasi (%) | 52 | 54 | 56 |


ISSN 3030-3907

| | | | |
|---|---|---|---|
| Olein kislotasi (%) | 28 | 27 | 26 |
| Palmitin kislotasi (%) | 18 | 16 | 14 |
| Oksidlanish barqarorligi (soat) | 28 | 32 | 35 |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, soya moyi ulushi oshgan sari (60:40 kupajida) tokoferollar miqdori va oksidlanishga chidamlilik sezilarli darajada ortadi. Biroq mahsulotning organoleptik ko‘rsatkichlari va saqlanish barqarorligi nuqtai nazaridan eng maqbul variant 65:35 nisbat hisoblanadi.

Kupajlangan moylarning yog‘ kislotalari tarkibida linol kislotasi (omega-6) ulushi soya moyi qo‘shilishi bilan 52 foizdan 56 foizgacha oshganligi aniqlandi. Bu esa mahsulotning biologik qiymatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bundan tashqari, alpha-linolenli kislota (omega-3) miqdori ham barcha kupaj namunalarida individual paxta moyiga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi.

Oksidlanishga chidamlilik ransimat usulida baholanganda, 60:40 nisbatidagi kupaj 35 soatlik induktiv davr ko‘rsatdi, bu esa sof paxta moyiga nisbatan 20 foizga yuqori natija. Bu holat tokoferollar va fosfolipidlarning sinergistik antioksidant ta'siri bilan izohlanadi. paxta va soya yog‘i aralashmasining past haroratli kristallanishi natijasida fraksiyalash jarayoni tezligi an’anaviy usulga nisbatan 1,4–1,5 barobarga oshadi.

Eksperimentni ekstremal rejalashtirish usuli yordamida paxta va soya yog‘lari aralashmasining past haroratli kristallanishining optimal shart-sharoitlari belgilandi, shuningdek, bu shartlarning real texnologik jarayonlarga muvofiqligini tasdiqlovchi matematik tavsiflari ishlab chiqildi.

Tadqiqotlar natijasida paxta yog‘iga soya yog‘i qo‘shilgan holda uni intensiv fraksiyalash texnologiyasining ilmiy asoslari ishlab chiqildi va paxta-soya palmitinini yuqori texnologik xossalarga hamda yuqori oziqaviy qiymatga ega yog‘ asosiy komponenti sifatida olish bo‘yicha ilmiy-amaliy asoslar ishlab chiqildi.

**2-jadval.**

**Kupaj namunalari organoleptik baholash natijalari (5 ballik shkalada)**

| Organoleptik ko‘rsatkich | 70:30 | 65:35 | 60:40 |
|---|---|---|---|
| Rang | 4,8 | 4,9 | 4,7 |
| Hid | 4,7 | 4,8 | 4,6 |
| Ta'm | 4,8 | 4,9 | 4,7 |
| Tiniqligi | 5,0 | 5,0 | 5,0 |


ISSN 3030-3907

| | | | |
|---|---|---|---|
| Umumiy baho | 4,83 | 4,90 | 4,75 |

Organoleptik baholash natijalari 65:35 nisbatidagi kupajning eng yuqori umumiy baho (4,90 ball) olganligini ko‘rsatadi. Ushbu kupaj namunasi rang, hid va ta'm bo‘yicha barcha ekspertlar tomonidan eng yaxshi sifatga ega deb baholandi.

**XULOSA.**

Paxta va soya moylarini 65:35 nisbatida kupajlash optimal variant bo‘lib, unda tokoferollar miqdori 68 mg/100 g, oksidlanish barqarorligi 32 soat va organoleptik ko‘rsatkichlar jami baho 4,90 ballni tashkil etadi.Optimal nisbatdagi kupajda to‘yinmagan yog‘ kislotalari ulushi sof paxta moyiga nisbatan 22 foizga oshib, omega-6 (linol) kislotasi 54 foizni tashkil etadi. Bu mahsulotning yuqori biologik qiymatini ta'minlaydi. Paxta-soya kupajlari tarkibida oksidlanishga chidamlilik 15–20 % ga, saqlanish muddati esa 12–15 % ga uzayadi. Ushbu natijalar mahsulotni funksional oziq-ovqat sifatida tavsiya etishga imkon beradi. Ishlab chiqilgan kupajlash texnologiyasi Buxoro viloyatidagi yog‘-moy korxonalarida sinovdan o‘tkazilgan va yiliga 145 million so‘mdan ortiq iqtisodiy samaradorlik kutilmoqda. Paxta moyi — 60–70 %; soya moyi — 30–40 %; mazkur nisbatda tayyorlangan kupajlarda:oksidlanish barqarorligi 15–20 % ga oshadi; biologik faol moddalar miqdori 10–18 % ga ko‘payadi; to‘yinmagan yog‘ kislotalari ulushi 20–25 % gacha ortadi; mahsulotning saqlanish muddati o‘rtacha 12–15 % ga uzayadi.

Shuningdek, kupajlash texnologiyasi orqali mahsulotning organoleptik ko‘rsatkichlari, ya’ni ta’mi, rangi va hidi yaxshilanib, iste’mol qiymati oshadi. Shu sababli paxta va soya moylari asosida kupaj mahsulotlarini ishlab chiqish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar yaratish hamda mahalliy xomashyodan samarali foydalanishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida".
2. Oltiyev A.T., Zayniddinova M.B. "Paxta va soya moylari kupajlarini ishlab chiqarish texnologiyasi" // Kimyo va kimyo texnologiyasi jurnali. – Toshkent, 2025. – № 1. – B. 45–51.
3. Shoaib M., Javed M., & Ali M. (2020). Silkworm pupae oil: Extraction, composition, and potential industrial applications. Journal of Food Science and Technology, 57(6), 1901–1912. 1. 4. A . T . Oltiev , S. WITH . Bafoev . Z . M . Amonova , F . Z . A’zamova JMEA
4. Journal of Modern Educational Achievements Volume 9, 2024 . P.6-69
5. A.T. Oltiev, S.S. Bafoev , M.F. Toirova, A.Sh. Khasanova, F.N. Ashurov


ISSN 3030-3907

6. “Technique and technology of food production” abstracts of the XIII International
7. scientific conference of students and postgraduates, April 18-19, 2024, Mogilev,
8. BSUT, 2024. P. 234
9. A.T. Oltiev, S.S. Bafoev. "Innovative Technologies and Current Issues in the
10. Food, Chemical, and Oil and Gas Industries." Proceedings of the International
11. Scientific and Technical Conference, Bukhara, June 13-15, 2024 (pp. 70-71)
12. Қодиров С.К. Ёғ-мой маҳсулотлари технологияси — Тошкент, 2014.8. Abdurakhmonov I.Y., Turaev D.A. (2015). The status and prospects of sericulture in Uzbekistan. Central Asian Journal of Biotechnology, 3(1), 33–41.
13. Rukovodstvo po metodam issledovaniya i texnoximicheskomu kontrolyu v maslojirovoy promyshlennosti. – Leningrad, 1965. – T. II. – S. 96. 68. Effect of lecithin on margarine emulsion stability // European Journal of Lipid Science and Technology.
14. Influence of phospholipids on crystallization behavior of fats // Food Research International.
15. Application of cottonseed stearin and palmitin fractions in margarine production // Journal of Oil and Fat Industries.
16. Тўхтаев Б. Озиқ-овқат технологияси асослари — Тошкент, 2018.
17. Абдуллаев Ж.А. Ўсимлик мойларини қайта ишлаш технологияси — Тошкент, 2016.
18. Рахимов А.Ё. Маргарин ва майонез технологияси — Тошкент, 2020.
19. Codex Alimentarius Commission — Vegetable fats and oils standards.


ISSN 3030-3907

# PAXTA VA SOYA YOGLARI ARALASHMASINI PAST HARORATDA FRAKSIYALASH JARAYONINI INTENSIFIKATSIYALASH

**Zayniddinova Moxlaroyim Baxodir qizi**
*Buxoro davlat texnika universiteti magistratura talabasi*
**Bafoyev Sanjar Sanoyevich**
*Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktorant*
**Oltiyev Azim To‘yqulovich**
*Buxoro davlat texnika universiteti texnika fanlari doktori, dotsent*
*E-mail: azim1086a@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada paxta va soya yog‘lari aralashmasini past haroratda fraksiyalash jarayoni va uni intensifikatsiyalash imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tajribalar natijasida aralashmada soya yog‘i va fosfolipidlar mavjudligi fraksiyalash jarayonini an'anaviy usulga nisbatan 1,4–1,5 marta tezlashtirishini ta'minlashi isbotlangan. Olingan salatbop yog‘ va paxta-soya palmitinining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari hamda ularning margarin mahsulotlarida qo‘llanilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Mahalliy o‘simlik moylarini kupajlash orqali biologik qiymati yuqori bo‘lgan yangi moy kompozitsiyalarini yaratish texnologiyasi o‘rganildi. Yog‘ kislotalari, karotinoidlar, tokoferollar, uchuvchan birikmalar va namlik miqdori aniqlanib, optimal kupaj variantlari ishlab chiqildi. Natijada funksional oziq-ovqat mahsulotlari uchun sog‘lom va barqaror moy aralashmalari yaratilgan. Paxta va soya moylari asosida yuqori biologik qiymatga ega bo‘lgan kupajlangan moy mahsulotlarini yaratish texnologiyasini ishlab chiqish hamda ularning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini tadqiq etish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi paxta va soya moylarining foydali xususiyatlarini uyg‘unlashtirish orqali inson salomatligi uchun foydali, oziqaviy qiymati yuqori hamda saqlanish muddati barqaror bo‘lgan moy kupajlarini olishdan iborat. Paxta va soya moylarining tarkibi, yog‘ kislotalari nisbati, biologik faol moddalar miqdori hamda texnologik xossalari tahlil qilingan. Turli nisbatlarda tayyorlangan kupaj namunalari organoleptik, fizik-kimyoviy va texnologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholandi. Tadqiqot natijasida optimal tarkibli kupaj variantlari aniqlanib, ularning sifat ko‘rsatkichlari amaldagi standart talablariga mosligi asoslab berildi.

**Kalit so‘zlar:** fraksiyalash, paxta moyi, soya moyi, palmitin, salatbop yog‘, fosfolipidlar, kristallanish, intensifikatsiya. paxta yog‘i,o‘simlik moylari, yog‘lar aralashmasi, kupajlash, past haroratli fraksiyalash,fraksiyalash jarayoni, intensivlashtirish, texnologik parametrlar, mahsulot sifati,fizik-kimyoviy xossalar

**Abstract.** This article studies the process of low-temperature fractionation of a mixture of cottonseed and soybean oils and the possibilities of its intensification. Experiments have shown that the presence of soybean oil and phospholipids in the

mixture accelerates the fractionation process by 1.4–1.5 times compared to the traditional method. The physical and chemical properties of the resulting salad oil and cotton-soy palmitin, as well as their potential applications in margarine products, were considered. The technology of creating new oil compositions with high biological value by blending local vegetable oils was studied. Fatty acids, carotenoids, tocopherols, volatile compounds and moisture content were determined, and optimal blending options were developed. As a result, healthy and sustainable oil blends were created for functional food products. The issues of developing a technology for creating blended oil products with high biological value based on cotton and soybean oils and studying their physicochemical properties were studied. The main objective of the study is to obtain oil blends that are beneficial to human health, have high nutritional value, and are stable in shelf life by combining the beneficial properties of cottonseed and soybean oils. The composition of cotton and soybean oils, the ratio of fatty acids, the amount of biologically active substances, and technological properties were analyzed. Kupaj samples prepared in different proportions were evaluated on organoleptic, physico-chemical and technological indicators. As a result of the study, the optimal composition coupe options were determined and based on the fact that their quality indicators comply with the requirements of the current standard.

**Keywords:** fractionation, cottonseed oil, soybean oil, palmitin, salad oil, phospholipids, crystallization, intensification. cottonseed oil, vegetable oils, oil mixture, blending, low-temperature fractionation, fractionation process, intensification, technological parameters, product quality, physicochemical properties.

**Аннотация.** В статье исследован процесс низкотемпературного фракционирования смеси хлопкового и соевого масел и возможности егоРассмотрены физико-химические показатели полученного пищевого масла и хлопково-соевого пальмитина, а также возможности их использования в маргариновой продукции. Изучена технология создания новых маслосодержащих композиций с высокой биологической ценностью путем купажирования местных растительных масел. Были определены жирные кислоты, каротиноиды, токоферолы, летучие соединения и содержание влаги, а также разработаны оптимальные варианты купажа. В результате были созданы полезные и устойчивые масляные смеси для функциональных продуктов питанияПроанализирован состав хлопкового и соевого масел, соотношение жирных кислот, содержание биологически активных веществ и технологические свойства. Образцы купажа, изготовленные в различных пропорциях, оценивались по органолептическим, физико-химическим и технологическим показателям. В


ISSN 3030-3907

результате исследования были определены варианты купажей с оптимальным составом и обосновано соответствие их качественных показателей требованиям действующего стандарта.

**Ключевые слова:** фракционирование, хлопковое масло, соевое масло, пальмитин, салатное масло, фосфолипиды, кристаллизация, интенсификация. хлопковое масло, растительные масла, смесь масел, купажирование, низкотемпературное фракционирование, процесс фракционирования, интенсификация, технологические параметры, качество продукции, физико-химические свойства

**KIRISH.**

Paxta yog‘i tarkibida palmitin (to‘yingan) yog‘ kislotasi (S16:0) 20–25 % gacha bo‘lishi uning past haroratda fraksiyalanishiga imkon beradi. Natijada ikki fraksiya ajratiladi: suyuq fraksiya — salatbop yog‘ va qattiq fraksiya — palmitin. Ushbu fraksiyalar oziq-ovqat, kosmetika va margarin sanoatida keng qo‘llaniladi [1, 2].

An'anaviy fraksiyalash jarayoni past haroratda uzoq vaqt talab etadi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, fraksiyalash jarayonini jadallashtirishning yangi ilmiy-amaliy yo‘nalishlari izlanmoqda. Paxta yog‘iga soya yog‘i va fosfolipidlar qo‘shish orqali kristallanish jarayonini tezlashtirish mumkinligi ilk bor ushbu tadqiqotda ko‘rib chiqilmoqda [3, 4].

Soya yog‘i tarkibidagi fosfolipidlar sirt faol modda (SFM) sifatida kristall yadrolari atrofida to‘planib, kristallanish o‘choqlarini ko‘paytiradi. Bu esa qattiq fazaning tezroq ajralishiga va filtratsiya samaradorligining oshishiga olib keladi. Ushbu o‘simliklar tarkibida to‘yinmagan yog‘ kislotalari, vitaminlar va boshqa foydali moddalar ko‘p bo‘lib, ular inson salomatligi uchun kerakli hisoblanadi. Shunga muvofiq, yog‘-moy korxonalarida paxta yog‘i aralashmasini soya yoki saflor yog‘i bilan birgalikda qayta ishlash yo‘lga qo‘yildi. Bu esa ayrim yog‘ kislotalari, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalarning yetishmasligini bartaraf etish yoki ularning miqdorini oshirish imkonini berdi.

Paxta yog‘i tarkibida palmitin (to‘yingan) yog‘ kislotasi hisobga olinsa, uni fraksiyalab palmitin va suyuq yog‘ga ajratishning salatlar uchun yog‘ va mayonez ishlab chiqarishda muhim zaruratga ega.

Paxta yog‘ining soya yog‘i bilan aralashmasini qayta ishlash, nafaqat olinayotgan individual fraksiyalar (salatbop yog‘ va palmitin) sifatini oshiradi, balki ularning past haroratdagi kristallanish jarayonini ham sezilarli darajada jadallashtiradi. Shu bilan birga, kristallanayotgan yog‘dagi fosfolipidlar, ya’ni sirt faol moddalar (SFM) miqdorining ortishi ham aralashmadan palmitinni ajratish bosqichining tezlashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.


ISSN 3030-3907

Paxta yog‘i va soya yog‘i aralashmasining past haroratli kristallanish jarayonini jadallashtirish, hosil bo‘layotgan salatbop yog‘ va palmitin sifatini oshirish hamda keyinchalik ushbu palmitindan margarin mahsulotlarida oqilona foydalanish yog‘-moy sanoatida dolzarb muammo hisoblanadi.

**TADQIQOT MAQSADI VA VAZIFALARI.**

Tadqiqotning maqsadi — paxta yog‘iga soya yog‘i qo‘shish orqali past haroratli fraksiyalash jarayonini intensifikatsiyalash va olingan fraksiyalardan margarin ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlarini asoslashdir.

**Vazifalar.**

1. paxta-soya aralashmalarining optimal tarkibini aniqlash;
2. past haroratda kristallanish kinetikasini o‘rganish;
3. olingan salatbop yog‘ va palmitinning sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;
4. paxta-soya palmitinini margarin ishlab chiqarishda qo‘llash texnologiyasini ishlab chiqish.
5. Paxta va soya yog‘lari aralashmasini intensiv kristallanish va boshqariladigan sovitish rejimlarida fraksiyalash natijasida salat yog‘i chiqishi va sifati oshiriladi, palmitin fraksiyasining fizik-kimyoviy xususiyatlari yaxshilanadi hamda jarayon davomiyligi qisqaradi. Paxta va soya yog‘lari aralashmasidan salat yog‘i va palmitin olishning intensiv fraksiyalash texnologiyasini takomillashtirish mahsulot sifati va chiqishini oshirish, energiya sarfini kamaytirish hamda mahalliy xomashyodan samarali foydalanish imkonini beradi. Ushbu texnologiya yog‘-moy sanoatida raqobatbardosh va yuqori oziqaviy qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi

**MATERIALLAR VA METODLAR.**

Tadqiqot obyekti sifatida rafinatsiyalangan paxta moyi va soya moyi, shuningdek ulardan olingan salatbop yog‘ hamda palmitin namunalari olingan. Aralashma nisbatlari: 90:10, 80:20, 70:30 (paxta:soya) shaklida tayyorlangan.

Kristallanish jarayonlari 10–15 °C haroratda kuzatildi. Fraksiyalash vaqti, salatbop yog‘ va palmitinning chiqish miqdori, fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari standart GOST usullarida aniqlandi. Reologik xususiyatlar viskozimetr yordamida o‘lchandi. Yog‘ kislotalari tarkibi gaz xromatografiya (Agilent 8860 GC) usulida tahlil qilindi. Mazkur tadqiqot paxta va soya moylari asosida maqsadli kupajlar ishlab chiqish, ularning sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish hamda optimal tarkibli kompozitsiyani aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqot jarayonida paxta va soya moylarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, yog‘ kislotalari tarkibi hamda kupajlash natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi.Tadqiqot obyekti sifatida oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llaniladigan rafinatsiyalangan va dezodoratsiyalangan paxta hamda soya moylari tanlandi.


ISSN 3030-3907

Tadqiqot predmeti esa ushbu moylar asosida tayyorlangan turli nisbatdagi kupajlar va ularning sifat ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotlarni tashkil etishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Bunda laboratoriya tajribalari, fizik-kimyoviy tahlillar, organoleptik baholash va statistik ishlov berish usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotlar quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

**Birinchi bosqich – xomashyoni tanlash va tavsiflash**

Dastlab tajriba uchun tanlangan paxta va soya moylarining sifat ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Moylarning tashqi ko‘rinishi, rangi, tiniqligi, hidi va ta’mi baholandi. Shuningdek, ularning amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligi tekshirildi.Xomashyo sifatini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi:kislota soni; peroksid soni; namlik va uchuvchan moddalar miqdori; zichlik; sindirish ko‘rsatkichi; yod soni; sovunlanish soni. Mazkur ko‘rsatkichlar moylarning dastlabki sifat holatini aniqlash hamda keyinchalik kupajlash natijasida yuz beradigan o‘zgarishlarni baholash uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

**Ikkinchi bosqich – kupaj namunalarini tayyorlash.** Tadqiqotning asosiy bosqichlaridan biri paxta va soya moylari asosida turli tarkibli kupajlarni tayyorlashdan iborat bo‘ldi.Kupajlash jarayonida komponentlarning bir-biriga moslashuvchanligi va yog‘ kislotalari balansini yaxshilash maqsadida bir necha nisbatlar tanlandi.

**Uchinchi bosqich – fizik-kimyoviy tahlillar**

Kupajlarning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida laboratoriya tahlillari o‘tkazildi.

Kislota soni moy tarkibidagi erkin yog‘ kislotalari miqdorini aniqlash uchun titrimetrik usul yordamida baholandi.

Peroksid soni moylarning oksidlanish darajasini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich sifatida yodometrik usulda aniqlandi.

Yod soni moy tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalar miqdorini baholash imkonini berdi. Ushbu ko‘rsatkich kupaj tarkibida soya moyi ulushi ortishi bilan qanday o‘zgarishini aniqlashga xizmat qildi.

Sovunlanish soni yog‘larning molekulyar tarkibini baholash uchun aniqlandi.

Shuningdek, sindirish ko‘rsatkichi va zichlik qiymatlari ham o‘lchandi.

**To‘rtinchi bosqich – yog‘ kislotalari tarkibini baholash**

Kupajlarning biologik qiymatini aniqlash maqsadida yog‘ kislotalari tarkibi tahlil qilindi.

Asosiy e’tibor quyidagi yog‘ kislotalariga qaratildi:palmitin kislotasi; stearin kislotasi; olein kislotasi; linol kislotasi; linolen kislotasi.


ISSN 3030-3907

Olingan natijalar asosida omega-6 va omega-3 yog‘ kislotalari nisbatlari hisoblandi.

Biologik qiymatni baholashda quyidagi mezonlar hisobga olindi:

to‘yinmagan yog‘ kislotalar ulushi;

omega-6/omega-3 nisbati;

biologik faol komponentlarning saqlanish darajasi.

**Beshinchi bosqich – organoleptik baholash**

Kupajlarning iste’mol xususiyatlarini aniqlash maqsadida organoleptik baholash o‘tkazildi.

Baholash quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshirildi:

tashqi ko‘rinishi; tiniqligi; rangi; hidi; ta’mi.

Baholash natijalari mahsulotning iste’molchilar tomonidan qabul qilinish imkoniyatini aniqlashga xizmat qildi.

**Oltinchi bosqich – natijalarga statistik ishlov berish**

**Abstract.** This article examines the integration of artificial intelligence (AI) tools into English language teaching within the CELTA framework. It provides a comparative analysis of traditional and AI-enhanced approaches, focusing on learner engagement, communicative competence, and classroom interaction. Drawing on both theoretical insights and practical teaching experience gained during a CELTA course in the United Kingdom, the study highlights how AI can support lesson planning and learner autonomy while emphasizing the need to preserve communicative principles.

**Keywords:** artificial intelligence, CELTA, EFL, communicative approach, classroom interaction.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun’iy intellekt (AI) vositalarining CELTA asosidagi ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot an’anaviy va AI bilan boyitilgan yondashuvlarni qiyoslab, ularning o‘quvchi faolligi, kommunikativ kompetensiya va dars samaradorligiga ta’sirini o‘rganadi. Natijalar AI vositalaridan muvozanatli foydalanish ta’lim sifatini oshirishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt, CELTA, EFL, qiyosiy tahlil, kommunikativ yondashuv.

**Аннотация.** В статье рассматривается интеграция инструментов искусственного интеллекта в преподавание английского языка на основе методики CELTA. Проводится сравнительный анализ традиционных и технологически обогащённых подходов с акцентом на вовлечённость учащихся, коммуникативную компетенцию и эффективность обучения. Результаты показывают, что сбалансированное использование AI повышает качество обучения.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, CELTA, EFL, сравнительный анализ, коммуникативный подход

## INTRODUCTION.

The growing role of English as a global lingua franca has significantly influenced language education systems worldwide. In response to this demand, teaching methodologies have evolved to prioritize communicative competence, learner autonomy, and practical language use. At the same time, rapid developments in artificial intelligence (AI) are reshaping educational


ISSN 3030-3907

environments, introducing new tools and possibilities for both teachers and learners.

AI technologies, including text-generating systems and automated feedback tools, are increasingly being integrated into English language teaching. These tools offer advantages such as instant feedback, personalized learning pathways, and efficient material generation. However, their integration raises important pedagogical questions, particularly in relation to established teaching frameworks.

The CELTA methodology represents one of the most widely recognized approaches to teaching English as a foreign language. It is grounded in communicative language teaching (CLT), which emphasizes interaction, real-life communication, and student-centered learning. A key principle of CELTA is the careful management of Teacher Talk Time (TTT) and Student Talk Time (STT), ensuring that learners are given maximum opportunities to actively use the language (Harmer, 2007) [1].

Based on personal teaching experience during a CELTA course in the United Kingdom, it was observed that even minor changes in classroom interaction patterns can significantly affect learner engagement.

The aim of this study is to analyze how AI tools can be integrated into CELTA-based teaching and to compare traditional and AI-enhanced approaches in terms of interaction, engagement, and communicative outcomes.

## LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY.

### Literature Review

The role of technology in language education has evolved from simple digital tools to complex, adaptive systems. Early Computer-Assisted Language Learning (CALL) approaches focused primarily on drills and controlled practice (Warschauer, 1996) [4], whereas modern AI-based tools are capable of simulating communication and generating contextually appropriate language.

Scholars argue that AI can significantly enhance learner autonomy by allowing students to practice language outside the classroom and receive immediate feedback (Luckin et al., 2016) [5]. However, there is also concern that excessive reliance on AI may reduce opportunities for authentic communication, which remains central to communicative competence (Richards, 2006) [3].

Communicative Language Teaching emphasizes interaction as both the means and the goal of language learning. Within the CELTA framework, this is operationalized through techniques such as pair work, group discussions, role plays, and task-based learning. These techniques are designed to maximize STT and create meaningful communicative contexts (Scrivener, 2011) [2].


ISSN 3030-3907

From a theoretical perspective, the integration of AI into this framework can be viewed as an extension of pedagogical scaffolding, where technology supports but does not replace human interaction.

**METHODOLOGY.**

This study adopts a qualitative, experience-informed comparative approach. The analysis is based on reflective teaching practice during CELTA training in the United Kingdom, classroom observations, and comparison of lesson stages with and without AI integration.

Two lesson formats were analyzed:

**1. Traditional CELTA Lesson**

Lead-in → Elicitation → Controlled Practice → Freer Practice

Focus on minimizing TTT and maximizing STT

**2. AI-Enhanced Lesson**

Use of AI tools for generating materials, prompts, and contextualized examples

Support in lesson planning and task variation

The analysis focused on interaction patterns, student participation, and fluency development.

**DISCUSSION.**

The comparison revealed several important insights. Traditional CELTA-based lessons provide structured interaction and ensure consistent student participation. During CELTA training in the UK, it was observed that reducing Teacher Talk Time led to increased learner engagement and confidence.

AI-enhanced lessons introduced greater flexibility and creativity. For instance, AI-generated role-play scenarios enabled students to engage in more realistic communicative tasks. In one observed case, learners simulated job interviews using AI-generated prompts, resulting in more extended and meaningful interaction.

However, challenges were also identified. Excessive reliance on AI sometimes increased Teacher Talk Time, particularly when explaining AI-generated materials. This contradicts CELTA principles, which emphasize student-centered learning.

Students generally perceived AI as a helpful tool, especially for vocabulary development and idea generation. Nevertheless, they continued to rely on the teacher for clarification and feedback, highlighting the irreplaceable role of human interaction.

**RESULTS.**

The findings indicate that both approaches have distinct strengths.


ISSN 3030-3907

- **Engagement:** AI-enhanced lessons increased motivation through dynamic content while fostering greater learner autonomy and facilitating more personalized, adaptive learning experiences.
- **Interaction:** Traditional lessons maintained stronger STT balance
- **Fluency:** AI-supported tasks improved learner fluency
- **Teacher Role:** Shift toward facilitator-designer model

Overall, AI proved most effective as a supplementary tool rather than a replacement for communicative teaching.

**Conclusion and Practical Recommendations**

The integration of AI into CELTA-based teaching offers significant potential but requires careful implementation. The following recommendations are proposed:

- Use AI primarily for lesson planning
- Maintain focus on Student Talk Time
- Adapt AI-generated materials
- Preserve authentic interaction
- Develop digital and pedagogical competence

A balanced approach ensures that technological innovation enhances rather than replaces effective teaching practices.

**REFERENCES**

1. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Pearson.
2. Scrivener, J. (2011). *Learning Teaching*. Macmillan.
3. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge.
4. Warschauer, M. (1996). Computer-assisted language learning.
5. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *AI in Education*. Pearson.


ISSN 3030-3907

# ANDIJON SHAHRIDA YO‘LOVCHI OQIMI VA TRANSPORT SIG‘IMI O‘RTASIDAGI MUVOZANATNI TAHLIL QILISH

**Nasirov Ilxam Zakirovich**
*Andijon davlat texnika instituti Transport logistikasi kafedrasi professori*
**Yusufaliyev Bekzodbek Abdukarim o‘g‘li**
*Andijon davlat texnika instituti Transport logistikasi yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*
*E-mail: bekzod.yusuf00@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon shahri jamoat transporti tizimida yo‘lovchi oqimi va transport sig‘imi o‘rtasidagi muvozanat tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida SHI-1 yo‘nalishining ATTO elektron to‘lov tizimi ma'lumotlari asosida yo‘lovchilarning haqiqiy ehtiyoji o‘rganildi. Tahlil natijalari "Brutto-shartnoma" doirasida yo‘naltirilgan avtobuslar sig‘imi bilan amaldagi yo‘lovchi oqimi o‘rtasidagi jiddiy tafovutlarni, shuningdek, avtobuslarning keragidan ko‘proq ekanligini ko‘rsatib berdi. Xulosa sifatida, yo‘lovchilar ehtiyojidan kelib chiqib harakat jadvallarini qayta ko‘rib chiqish va tarmoqni analitik boshqarish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jamoat transporti, yo‘lovchi oqimi tahlili, transport sig‘imi, Brutto-shartnoma, ATTO tranzaksiyalari, bekat, ma’lumotlar, model.

**Abstract.** This article analyzes the balance between passenger flow and transport capacity in the public transport system of Andijan city. As part of the study, the actual passenger needs of the SHI-1 route were studied based on data from the ATTO electronic payment system. The results of the analysis revealed significant discrepancies between the capacity of buses directed under the "Gross Contract" and the actual passenger flow, as well as an excess of buses. In conclusion, recommendations were developed for revising traffic schedules and analytical management of the network based on passenger needs.

**Keywords:** Public transport, passenger flow analysis, transport capacity, gross contract, ATTO transactions, station, data, model.

**Аннотация.** В данной статье анализируется баланс между пассажиропотоком и транспортной вместимостью в системе общественного транспорта города Андижана. В рамках исследования была изучена реальная потребность пассажиров на маршруте ШИ-1 на основе данных электронной платежной системы ATTO. Результаты анализа показали существенные расхождения между вместимостью автобусов, направленных в рамках "Брутто-контракта," и фактическим пассажиропотоком, а также превышение потребности в автобусах. В заключение были разработаны рекомендации по пересмотру расписаний движения и аналитическому управлению сетью с учетом потребностей пассажиров.


ISSN 3030-3907

**Ключевые слова:** Общественный транспорт, анализ пассажиропотока, транспортная вместимость, брутто-контракт, транзакции ATTO, станция, данные, модель.

**KIRISH.**

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan hududlarida jamoat transporti tizimini boshqarishda eng asosiy muammolardan biri — bu taklif (transport vositalari soni) va talab (yo‘lovchilar oqimi) o‘rtasidagi aniq muvozanatni ta'minlash hisoblanadi. Shahar aholisining o‘sib borishi mavjud transport infratuzilmasiga bo‘lgan bosimni oshirib, yo‘nalishlarda avtobuslarning qatnov intervallari buzilishiga va xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, jamoat transporti tizimlarining qulayligi nafaqat avtobuslar sonining ko‘pligi bilan, balki ularning yo‘lovchi oqimiga qanchalik mos taqsimlangani bilan o‘lchanadi [5].

O‘zbekiston Respublikasida jamoat transportini isloh qilishning yangi bosqichi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-sonli qarori [1] asosida sohani moliyalashtirishning "Brutto-shartnoma" tizimiga o‘tilishi muhim burilish yasadi. Ushbu mexanizm tashuvchilarning daromadini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bajarilgan qatnovlar soniga bog‘ladi. Biroq, bu tizim muvaffaqiyatli ishlashi uchun harakat tarkibi sig‘imi real yo‘lovchilar ehtiyojiga qat'iy mos kelishi talab etiladi. Aks holda, yo‘nalishlarda keragidan ortiqcha bo‘sh qatnovlar yoki, aksincha, tig‘iz soatlarda yo‘lovchilar sig‘may qolishi kabi holatlar yuzaga keladi.

Andijon shahri transport tarmog‘i (xususan, SHI-1 yo‘nalishi) misolida kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, qog‘ozda tasdiqlangan harakat jadvallari bilan amaliyotdagi holat o‘rtasida farqlar mavjud. Avtobuslarning oraliq intervallar 10-15 daqiqagacha cho‘zilib ketmoqda. Bu esa xizmat ko‘rsatish sifatini tushirib yuboruvchi asosiy omillardan biridir [4].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Shahar jamoat transporti tizimining samaradorligi va iqtisodiy barqarorligi yo‘lovchilarning tashishga bo‘lgan haqiqiy talabi hamda yo‘nalishga chiqarilgan transport vositalarining haqiqiy tashish qobiliyati o‘rtasidagi qat'iy muvozanatga bog‘liq. Agar ushbu muvozanat buzilsa, tizimda ikkita ziddiyatli holat yuzaga keladi:

1. Oqimning sig‘imdan yuqoriligi (Q > W): Bekatlarda yo‘lovchilarning to‘planib qolishi, avtobuslarning me'yordan ortiq to‘lishi (konfort darajasining yo‘qolishi) va natijada aholining jamoat transportidan voz kechib, shaxsiy avtomobil yoki yo‘nalishli taksilarga o‘tib ketishi.


ISSN 3030-3907

2. Sig‘imning oqimdan yuqoriligi (W > Q): Yo‘nalishda ortiqcha transport vositalarining harakatlanishi, bo‘sh qatnovlar sonining ortishi va ekspluatatsion xarajatlarning qoplanmasligi (iqtisodiy zararning o‘sishi).

Andijon shahri sharoitida (xususan tadqiq etilayotgan yo‘nalish misolida) bu muvozanatni matematik jihatdan to‘g‘ri baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar kompleks tahlil qilinadi:

Yo‘lovchi oqimining xarakteristikasi va notekislik koeffitsiyentlari

Jamoat transportida yo‘lovchi oqimi (Q) doimiy emas, u vaqt va masofa bo‘ylab o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Tizimni modellashtirishda oqimning ikkita asosiy notekisligi hisobga olinadi:

- Vaqt bo‘yicha notekislik koeffitsiyenti ($\eta_{vaqt}$): Kunning ma'lum bir soatlarida (ayniqsa 07:30–09:00 va 17:00–18:30) oqimning keskin ortishi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\eta_{vaqt}=\frac{Q_{max}}{Q_{o'rt}}$$

- Yo‘nalish uzunligi bo‘yicha notekislik koeffitsiyenti ($\eta_{hudud}$): Marshrutning markaziy qismlarida odam ko‘p tushib-chiqishi, chekka qismlarida esa kamayishi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\eta_{hudud}=\frac{Q_{max.qism}}{Q_{o'rt.qism}}$$

Hisob-kitoblarda doimo tizimning eng og‘ir nuqtasini ko‘rsatuvchi "pik soat"dagi maksimal yo‘lovchi oqimi ($Q_{max}$) asos qilib olinadi. Andijonda bu ma'lumotlar ATTO tranzaksiyalari hamda vizual sanash usullari orqali shakllantiriladi.

Harakat tarkibining tashish qobiliyati (W)

Bir soat davomida marshrutdan o‘tuvchi yo‘lovchilarni to‘liq va qulay tashish qobiliyati ($W_{soat}$) quyidagi formula asosida aniqlanadi[9]:

$$W_{soat}=\frac{60}{I}\cdot q\cdot \gamma$$

Bu formuladagi parametrlar:

- I – avtobuslar harakatlanish intervali (daqiqalarda);
- q – datchiklar yoki texnik pasport orqali tasdiqlangan avtobusning nominal sig‘imi (Andijon shahrida harakatlanuvchi Zhong Tong rusumi uchun o‘rtacha 80 kishi);
- $\gamma$ – sig‘imdan foydalanish koeffitsiyenti. Shahar sharoitida optimal konfortni ta'minlash uchun me'yoriy koeffitsiyent $\gamma$ = 0.8 (pik soatlarda maksimal
- $\gamma$ = 0.95) qilib qabul qilinadi.

Muvozanatni saqlash algoritmi va intervallarni optimallashtirish

Muvozanatning matematik sharti bitta qat'iy tengsizlikka tayanadi:

$$W_{soat} \geq Q_{max}$$


ISSN 3030-3907

Ushbu shartdan kelib chiqib, yo‘lovchilar bekatda uzoq qolib ketmasligi uchun talab etiladigan optimal interval (I) topiladi:

$$I=\frac{q\cdot\gamma\cdot 60}{Q_{max}}$$

Belgilangan optimal intervalni uzluksiz ta'minlash uchun marshrutga biriktirilishi lozim bo‘lgan avtobuslar soni (N) reysning aylanish vaqti ($t_{ayl}$) orqali topiladi:

$$N=\frac{t_{ayl}}{I}=\frac{t_{ayl}\cdot Q_{max}}{q\cdot\gamma\cdot 60}$$

Bu yerda $t_{ayl}$ – bitta avtobusning boshlang‘ich bekatdan chiqib, oxirgi bekatga borib, yana iziga qaytib kelishiga ketadigan jami vaqt bo‘lib, u quyidagicha yoyib hisoblanadi:


$$t_{ayl}=2\cdot t_{harakat}+t_{bekat}+t_{oxirgi}$$

(bu yerda $t_{harakat}$ – toza harakatlanish vaqti, $t_{bekat}$ – oraliq bekatlarda to‘xtab turish vaqti, $t_{oxirgi}$ – oxirgi bekatdagi dam olish va qayrilib olish vaqti).

Natijalar va tahlil. Andijon shahridagi SHI-1 yo‘nalishi misolida yo‘lovchi oqimi va harakat tarkibi sig‘imi o‘rtasidagi muvozanatni tahlil qilish jarayonida bir qator natijalar olindi. Amaldagi yo‘nalish pasportiga ko‘ra, mazkur yo‘nalishda 24 ta katta sig‘imli (80 o‘rinli) avtobuslar harakatlanishi belgilangan. Rejali jadval bo‘yicha ularning qatnov intervali 5 daqiqani tashkil etadi. Tadqiqotning metodologiya qismida keltirilgan $W_{soat}$ formulasiga ushbu ko‘rsatkichlarni (avtobus sig‘imi $q$=80 ta, sig‘imdan foydalanish koeffitsiyenti $\gamma$=0.8) qo‘yib hisoblaganimizda, yo‘nalishning 1 soatlik nazariy tashish qobiliyati jami 832 nafar yo‘lovchini tashkil etishi ma'lum bo‘ldi.

Biroq, ushbu taklif etilayotgan transport sig‘imi real talabga qanchalik mos kelishini aniqlash maqsadida Andijon viloyati transport boshqarmasining ATTO elektron to‘lov tizimi hisobotlari asosida tahlil o‘tkazildi. Tranzaksiya ma'lumotlariga ko‘ra, SHI-1 yo‘nalishida kunning eng tig‘iz ("pik") soatlarida ham o‘rtacha yo‘lovchilar oqimi ($Q_{max}$ 439 kishi/soatni tashkil etmoqda.


ISSN 3030-3907





**1-rasm. Soatbay yo‘lovchilar oqimi (ATTO tranzaksiyalar ma’lumoti asosida)**

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi harakat tarkibi sig‘imi (832 kishi) haqiqiy yo‘lovchi ehtiyojidan (439 kishi) qariyb ikki barobar yuqori. Ya'ni, "Brutto-shartnoma" asosida byudjetdan moliyalashtirilayotgan avtobuslar eng tig‘iz vaqtlarda ham o‘rtacha 50% gacha bo‘sh holatda harakatlanmoqda.

Shuningdek, Yandex Maps tizimi orqali olib borilgan amaliy kuzatuvlar avtobuslarning intervaldan chiqib ketib, bir-biriga yaqin harakatlanish muammosi mavjudligini tasdiqladi.

Garchand 24 ta avtobus 4.6 daqiqalik intervalni ta'minlashi kerak bo‘lsa-da, amaliyotda avtobuslar bir-biriga yetib olishi oqibatida yo‘nalishning ayrim qismlarida sun'iy bo‘shliqlar yuzaga kelib, haqiqiy kutish vaqti 10-15 daqiqagacha cho‘zilib ketmoqda. Bu holat tarmoqda harakat tarkibi sonining ko‘pligi interval barqarorligini kafolatlamasligini isbotlaydi.


ISSN 3030-3907




**2-rasm. Avtobuslarning intervaldan chiqib ketib bir-biriga yaqin harakatlanishi**

**XULOSA.**

Andijon shahri jamoat transporti (SHI-1 yo‘nalishi) misolida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, joriy etilgan "Brutto-shartnoma" tizimida harakat tarkibini taqsimlashda an'anaviy vizual yondashuvlardan voz kechish va qat'iy ravishda ATTO elektron to‘lov tizimi ma'lumotlariga tayanib muvozanat o‘rnatish lozim.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

- Iqtisodiy nomutanosiblik: Tarmoqda yo‘lovchilar ehtiyojidan qariyb ikki barobar yuqori bo‘lgan (haqiqiy maksimal talab 439 kishi/soat, taklif etilgan sig‘im esa 832 kishi/soat) ortiqcha harakat tarkibi saqlab turilibdi. Bu holat davlat byudjeti xarajatlarining asossiz oshishiga va transport vositalarining samarasiz ekspluatatsiyasiga olib kelmoqda.

- Xizmat sifati: Xizmat ko‘rsatish sifatini pasaytiruvchi va yo‘lovchilar e'tiroziga sabab bo‘luvchi asosiy omil — avtobuslar sonining kamligi emas. Asosiy muammo tarmoqda dinamik dispetcherlik nazoratining yetishmasligi oqibatida yuzaga kelayotgan intervaldan chiqib ketish va kutishning 10-15 daqiqagacha cho‘zilib ketishidir.

**Tavsiya:** Jamoat transporti tizimi samaradorligini oshirish uchun qat'iy sonli jadvallardan moslashuvchan intervalli boshqaruvga o‘tish zarur. Shuningdek, tarmoqdagi avtobuslar sonini soatbay ATTO tranzaksiyalariga mos ravishda


ISSN 3030-3907

qisqartirish va optimallashtirish davlat moliyaviy resurslarini tejash bilan birga, yo‘lovchilar uchun ham barqaror va qulay qatnovni ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-59 son qarori // https://www.lex.uz/uz/docs/-386205?ONDATE2=16.10.2023&action=compare
2. Andijon viloyati transport boshqarmasi ma’lumotlari
3. Vuchic V.R. Urban Transit: Operations, Planning, and Economics. – New Jersey: John Wiley & Sons, 2005. – 644 p
4. Daganzo, C. F. Fundamentals of Transportation and Traffic Operations. – Emerald Group Publishing, 1997
5. Nasirov.I, To‘rboyev.X JAMOAT TRANSPORTI USTUVORLIGINI TA’MINLASHNING MAQBUL TADBIRLARI // JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS Volume–47_Issue-1_February_2024
6. Nurdinov M., G‘anijonov M., Abdupattoyev B. CARGO ON INTERNATIONAL HIGHWAYS REST AREAS FOR CARS //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – S. 302-308.
7. Alijonovich N.M., Zakirovich N.I. ANDIJON SHAHRIDAGI TRANSPORT OQIMLARINING TAHLILI //PEDAGOG. – 2024. – Т. 7. – №. 2. – С. 223-230.

# IKKI BO‘G‘INLI ROBOT MANIPULYATORNI PID BOSHQARUVI ORQALI TADQIQ ETISH

**Xolmurotov Botirjon Tursinboyevich**
*Andijon davlat texnika instituti, “Intellektual boshqaruv va robototexnika” kafedrasi, dotsent, t.f.f.d.*
*E-mail: xolmurotovbotirjon@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ikki bo‘g‘inli (2DOF) robot manipulyatorining PID boshqaruv algoritmi asosidagi dinamik ishlashi o‘rganilgan. Manipulyatorning matematik modeli Lagrange tenglamalari yordamida tuzilib, tizimning asosiy dinamik omillari hisobga olingan. Har bir bo‘g‘in uchun alohida PID boshqaruv signali qo‘llanib, parametrlarning tizim barqarorligi va harakat aniqligiga ta’siri tahlil qilingan. MATLAB muhitida o‘tkazilgan simulyatsiya natijalari bo‘g‘in burchaklari, xatolik signali va boshqaruv momentlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatdi. Natijalar PID boshqaruv algoritmi o‘tkinchi tebranishlarni kamaytirib, manipulyatorning qisqa vaqt ichida barqaror va aniq harakatlanishini ta’minlashini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** PID boshqaruvi, robot manipulyator, 2DOF model, MATLAB, barqarorlik, avtomatik boshqaruv.

**Abstract.** This paper studies the dynamic behavior of a two-link (2DOF) robotic manipulator under PID control. The mathematical model of the manipulator is developed using Lagrange equations, considering the main dynamic characteristics of the system. Independent PID control signals are applied to each joint, and the influence of controller parameters on stability and motion accuracy is analyzed. Simulation is carried out in the MATLAB environment, where joint angle trajectories, tracking errors, and control torques are examined over time. The results show that the PID control algorithm effectively reduces transient oscillations and enables the manipulator to reach a stable state within a short period. The study confirms the efficiency and practical applicability of PID control for robotic manipulator systems.

**Keywords:** PID control, robotic manipulator, 2DOF model, MATLAB, stability, automatic control.

**Аннотация.** В статье исследуется динамическая работа двухзвенного (2DOF) роботизированного манипулятора при использовании PID-управления. Математическая модель манипулятора получена на основе уравнений Лагранжа с учетом основных динамических характеристик системы. Для каждого звена применяется независимый PID-сигнал управления, а влияние параметров регулятора на устойчивость и точность движения анализируется. Моделирование выполнено в среде MATLAB, где изучены изменения углов звеньев, сигнал ошибки и управляющие моменты во времени. Результаты

показывают, что PID-управление эффективно снижает переходные колебания и обеспечивает быстрое достижение установившегося режима. Полученные выводы подтверждают практическую применимость PID-управления в робототехнических системах.

**Ключевые слова:** PID управление, робот-манипулятор, модель 2DOF, MATLAB, устойчивость, автоматическое управление.

**KIRISH.**

So‘nggi davrlarda robototexnika tizimlarida boshqaruv algoritmlarining aniqligi hamda barqarorligini ta’minlash muhim ilmiy va amaliy vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ko‘p bo‘g‘inli robot manipulyatorlari sanoat ishlab chiqarishi, tibbiy texnologiyalar, kosmik izlanishlar va xizmat ko‘rsatuvchi robotlarda keng qo‘llanilmoqda. Bunday tizimlarda ishonchli boshqaruvni amalga oshirish mexanik tuzilma, sensorlardan olinadigan axborotlar va aktuatorlar dinamik xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi.

PID (Proportsional–Integral–Differensial) boshqaruv usuli klassik boshqaruv algoritmlari orasida eng keng tarqalganlaridan biri bo‘lib, uning soddaligi, barqaror ishlashi va real vaqt rejimida qo‘llash imkoniyati bilan ajralib turadi. Ushbu boshqaruv usuli manipulyator bo‘g‘inlarining berilgan trayektoriyani aniq kuzatishini ta’minlaydi, barqaror holatdagi xatoni kamaytiradi hamda tizimdagi ortiqcha tebranishlarni susaytiradi.

Ilmiy adabiyotlarda PID boshqaruvi ko‘plab mexanik tizimlarga tatbiq etilgan bo‘lsa-da, ikki bo‘g‘inli manipulyatorlarda mavjud bo‘lgan nolinear xususiyatlar sababli uning optimal sozlamalarini aniqlash masalasi to‘liq hal etilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotda 2 erkinlik darajasiga ega manipulyator modeli asosida PID boshqaruvining dinamik samaradorligi o‘rganilib, MATLAB dasturiy muhitida olingan modellashtirish natijalari chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — PID boshqaruv parametrlarining manipulyator tizimining barqarorligi, harakat aniqligi va xato signallariga ta’sirini baholash hamda optimal boshqaruv koeffitsiyentlarini tanlash orqali tizimning umumiy sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashdan iborat.

**TADQIQOT USULLARI.** 2-bo‘g‘inli manipulyatorning matematik modeli.

**Ikki bo‘g‘inli manipulyator** — harakat erkinligi darajasi ikki taga teng bo‘lgan mexanik tizim bo‘lib, u tekislikda inson qo‘lining harakatiga o‘xshash tarzda ishlaydi. Ushbu turdagi manipulyatorlar, odatda, ikki dona aylanma (rotatsion) bo‘g‘indan iborat bo‘ladi.

Tizimning dinamikasi **Lagrange tenglamasi** asosida ifodalanadi:

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial T}{\partial \dot{q}_i}\right) - \frac{\partial T}{\partial q_i} + \frac{\partial V}{\partial q_i} = \tau_i, \quad i = 1,2$$

bunda:


ISSN 3030-3907

$q_1, q_2$ - bo‘g‘in burchaklari
$\dot{q}_1, \dot{q}_2$ - ularning burchak tezliklari
$T$ - kinetik energiya
$V$ - potensial energiya
$\tau_1, \tau_2$ - har bir bo‘g‘inga ta’sir etuvchi boshqaruv momentlari.
Kinetik energiya ifodasi:

$$T = \frac{1}{2}m_1(L_1\dot{q}_1)^2 + \frac{1}{2}m_2[L_1^2\dot{q}_1^2 + L_2^2(\dot{q}_1 + \dot{q}_2)^2 + 2L_1L_2\dot{q}_1(\dot{q}_1 + \dot{q}_2)\cos q_2]$$

Potensial energiya esa:

$$V = m_1gL_1(1 - \cos q_1) + m_2g[L_1(1 - \cos q_1) + L_2(1 - \cos(q_1 + q_2))]$$

Shu bo`yicha manipulyatorning harakat tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$M(q)\ddot{q} + C(q,\dot{q})\dot{q} + G(q) = \tau$$

bunda:
$M(q)$ - inertsiya matritsasi,
$C(q,\dot{q})$ - Koriolis va markazdan qochma kuchlar matritsasi,
$G(q)$ - tortishish kuchlari vektori,
$\tau$ - PID boshqaruv orqali hosil qilinadigan momentlar vektori.
PID boshqaruv algoritmi.
PID boshqaruv signali quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$u(t) = K_p e(t) + K_i \int e(t)dt + K_d \frac{de(t)}{dt}$$

bu yerda:
$e(t)=q_{ref}(t)-q(t)$ - xato signali,
$K_p$, $K_i$, $K_d$ - mos ravishda proporsional, integral va differensial koeffitsiyentlar.
Mazkur tadqiqotda quyidagi qiymatlar tanlandi:


$$K_p=100,\ K_i=20,\ K_d=10$$

Boshqaruv signali manipulyatorning ikkala bo‘g‘iniga quyidagicha tatbiq etiladi:

$$\tau_1=u_1(t),\ \tau_2=u_2(t)$$

2DOF manipulyator modeli chizmasi
Quyidagi chizma ikki bo‘g‘inli manipulyatorning sxematik ko‘rinishini bildiradi:


ISSN 3030-3907




Mazkur modelda birinchi bo‘g‘in tayanch (baza) qismiga mahkamlangan bo‘lib, ikkinchi bo‘g‘in esa birinchi bo‘g‘in bilan bog‘langan. Har bir bo‘g‘in uchun mustaqil PID boshqaruv signali shakllantiriladi.

**1-Jadval**


| Parametr | Belgilanish | Qiymat | O‘lchov birligi |
|---|---|---|---|
| 1-bo‘g‘in uzunligi | $L_1$ | 1 | m |
| 2-bo‘g‘in uzunligi | $L_2$ | 1 | m |
| 1-bo‘g‘in massasi | $m_1$ | 1 | kg |
| 2-bo‘g‘in massasi | $m_2$ | 1 | kg |
| Gravitatsiya | g | 9.81 | $m/s^2$ |
| PID koeffitsiyentlari | $K_p$, $K_i$, $K_d$ | 100, 20, 10 | — |

**NATIJALAR.** Simulyatsiya natijalari. Tadqiqot doirasida ikki bo‘g‘inli manipulyatorning PID boshqaruvi ostidagi harakati MATLAB dasturiy muhitida modellashtirildi. Simulyatsiya jarayoni 5 soniya davom etib, manipulyatorning har bir bo‘g‘ini uchun burchaklarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi, boshqaruv xatolari hamda boshqaruv signallari aniqlab olindi.

Quyida keltirilgan grafiklarda modellashtirish jarayonida olingan natijalar aks ettirilgan.


Bo‘g‘in burchaklarining vaqtga bog‘liq o‘zgarishi. $q_1(t)$ va $q_2(t)$ funksiyalari manipulyator bo‘g‘inlarining burchak harakatini ifodalaydi.


ISSN 3030-3907





**Tahlil.** 1-bo‘g‘in ($q_1$) 0 dan 45° gacha, 2-bo‘g‘in ($q_2$) esa 0 dan 30° gacha bir tekisda harakatlanadi. 1,2–1,5 s oralig‘ida o‘tkinchi jarayon kuzatiladi, yakunida esa tizim barqarorlashadi. Har ikkala bo‘g‘inning yakuniy qiymatga yetishi PID boshqaruv samarali ishlaganini ko‘rsatadi.

**Xatolik funksiyasi (e(t)) grafigi.** Xatolik funksiyasi vaqt bo‘yicha o‘zgaradi:




**Tahlil. Dastlabki** vaqtda xatolik yuqori (taxminan 0.7 rad), biroq 2 soniya ichida 0 ga yaqinlashadi. Bu PIDning differensial (D) komponenti tebranishlarni kamaytirganini va tizimning barqarorligini ta’minlaganini anglatadi.

**Boshqaruv signali (PID chiqish) grafigi.** Har ikki bo‘g‘inga uzatilgan boshqaruv signallari ($\tau_1$, $\tau_2$) quyidagicha:





ISSN 3030-3907

**Tahlil.** Boshqaruv momenti o‘tkinchi jarayonning boshlang‘ich bosqichida yuqori qiymatga ega bo‘lib, keyinchalik asta-sekin kamayadi va barqaror holatga keladi. Bu holat manipulyator mexanik qarshiliklarini yengib o‘tish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich kuch ta’sirini ifodalaydi.

**XULOSA.** Ushbu tadqiqot doirasida ikki bo‘g‘inli manipulyator uchun PID asosidagi boshqaruv tizimi ishlab chiqildi hamda MATLAB dasturiy muhitida modellashtirildi. Olingan natijalar quyidagilarni ko‘rsatadi:

- PID boshqaruv algoritmi manipulyator tizimining barqarorligi va harakat aniqligini sezilarli darajada yaxshilaydi.
- Harakat davomida yuzaga keladigan o‘tkinchi tebranishlar kamayib, ustma-ust chiqish darajasi minimal qiymatga tushdi.
- Tizim taxminan 2 soniya ichida barqaror ish holatiga o‘tdi va xato signali nolga yaqinlashdi.
- Modellashtirish orqali olingan natijalar PID boshqaruv usulining real robototexnika tizimlarida samarali qo‘llanishi mumkinligini tasdiqlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J. Park, H. Lee, “Adaptive PID control of a two-link robotic arm under external disturbances,” *Robotics and Autonomous Systems*, vol. 141, pp. 103798, 2021.
2. A. Singh, R. Kumar, “Design and simulation of PID controller for robotic manipulator using MATLAB/Simulink,” *IEEE Access*, vol. 9, pp. 24562–24571, 2021.
3. Tursinboyevich, X. B., & O‘g‘li, X. M. M. (2025). MAHSULOTLARNI SAQLASH OMBORI FAOLIYATINI AVTOMATLASHTIRISHDA MOBIL ROBOTLARDAN FOYDALANISH. Al-Farg‘oniy avlodlari, 1(1), 184-186.
4. Y. Zhao, K. Tanaka, “Dynamic modeling and control of 2-DOF manipulator using Lagrange formulation and PID tuning,” *Mechanics & Control Letters*, vol. 65, pp. 39–45, 2023.


ISSN 3030-3907

# QURITISH BARABANIDA PAXTA MASSASINING HARAKATLANISH DINAMIKASINI TADQIQ ETISH

**Xolmurotov Botirjon Tursinboyevich**
*Andijon davlat texnika instituti, "Intellektual boshqaruv va robototexnika" kafedrasi, dotsent, t.f.f.d.*
*E-mail: xolmurotovbotirjon@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada barabanli quritgichlarda paxta xomashyosining harakatlanish dinamikasi va unga ta'sir etuvchi kuchlar kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida "paxta – baraban pichog'i" tizimida yuzaga keladigan tortishish, markazdan qochma va inersial kuchlarning o'zaro ta'siri nazariy jihatdan asoslab berilgan. Paxta xomashyosining quritish barabanidagi harakat traektoriyalari, ajralish sharoitlari hamda barabanda bo'lish vaqti matematik modellar yordamida aniqlangan. Shuningdek, quritish jarayonida baraban kesimining faqat ma'lum qismi faol ishlashi va issiq havo oqimining samarali foydalanilmasligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** paxta xomashyosi, barabanli quritgich, quritish jarayoni, harakat dinamikasi, markazdan qochma kuch, tortishish kuchi, paxta–baraban pichog'i tizimi, issiq havo oqimi, quritish samaradorligi, paxtaning barabanda bo'lish vaqti.

**Annotation.** This article presents a comprehensive analysis of the motion dynamics of raw cotton in rotary drum dryers and the forces acting on it. During the study, the interaction of gravitational, centrifugal, and inertial forces arising in the "cotton–drum blade" system was theoretically substantiated. The trajectories of raw cotton movement, separation conditions, and residence time inside the drying drum were determined using mathematical models. In addition, it was found that during the drying process only a certain part of the drum cross-section operates effectively, while a significant portion of the hot air flow is not used efficiently.

**Keywords:** raw cotton, rotary drum dryer, drying process, motion dynamics, centrifugal force, gravitational force, cotton–drum blade system, hot air flow, drying efficiency, residence time.

**Аннотация.** В данной статье проведён комплексный анализ динамики движения хлопка-сырца в барабанных сушильных установках и сил, воздействующих на него в процессе сушки. Теоретически обосновано взаимодействие сил тяжести, центробежных и инерционных сил, возникающих в системе «хлопок – лопасть барабана». С использованием математических моделей определены траектории движения хлопка-сырца, условия его отделения от лопастей, а также время пребывания материала в сушильном барабане. Установлено, что в процессе сушки эффективно используется лишь часть поперечного сечения барабана, в то время как значительная доля потока горячего воздуха проходит мимо хлопка-сырца.


ISSN 3030-3907

**Ключевые слова:** хлопок-сырец, барабанная сушилка, процесс сушки, динамика движения, центробежная сила, сила тяжести, система «хлопок – лопасть барабана», поток горячего воздуха, эффективность сушки, время пребывания.

**KIRISH.**

Bugungi kunda respublikamizda paxta xomashyosini quritish jarayonida qo‘l mehnatini qisqartirish, energiya va moddiy xarajatlarni kamaytirish hamda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ–308-sonli “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm-fan va innovatsiyalarni joriy etishga doir qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarorda belgilangan vazifalarni bajarishda yangi to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarini barpo etish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlash, shuningdek, paxta tozalash korxonalarida olinadigan tolalar sifatini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu jihatdan, paxta xomashyosini quritish barabanida yuzaga keladigan ichki harorat va harakat jarayonlarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi [1].

**TADQIQOT USULLARI.** Paxta xomashyosini qayta ishlash korxonalarida quritish jarayoni asosan barabanli quritgichlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu qurilmalarda issiq havo bilan bevosita ta’sir natijasida paxta xomashyosi namligi kamayadi va bug‘langan namlik tashqi muhitga chiqariladi.

Paxtaning quritish barabanidagi harakatini o‘rganishda baraban konstruktsiyasi, pichoqlar tizimi, old va orqa tayanch roliklari, paxtaning barabanda qolish muddati hamda aylanish tezligini tartibga soluvchi mexanizmlardan foydalanildi.

Quritish barabanlarini loyihalash jarayonida quritish agenti bilan paxta xomashyosi o‘rtasida intensiv issiqlik va massa almashinuvini ta’minlash muhim hisoblanadi. Buning uchun materialni baraban kesimi bo‘ylab bir tekis taqsimlash, uni bo‘shatish va issiq havo bilan o‘zaro ta’sir vaqtini oshirish talab etiladi. Baraban ichki qismi pichoqlar bilan jihozlangan bo‘lib, ular aylanish jarayonida paxtani baraban hajmi bo‘ylab parallel oqim hosil qilgan holda harakatlantiradi.


Pichoqlar tizimining asosiy vazifasi paxta xomashyosini baraban hajmi bo‘ylab bir xil taqsimlash, pichoqlarda ma’lum vaqt ushlab turish va minimal aylanish tezligida materialning pichoqdan tushishini ta’minlashdan iborat.

SBO, SBT va 2SB-10 turidagi quritish barabanlarida paxta quritish texnologiyasi qayta ishlanayotgan materialning baraban bilan nisbiy harakati jarayonida yuzaga keladigan aerodinamik ta’sir qonuniyatlariga asoslanadi. Bu


ISSN 3030-3907

jarayonda “paxta – baraban pichog‘i” tizimiga tortishish kuchi, markazdan qochma kuch hamda inersial kuchlar ta’sir ko‘rsatadi.

Baraban pichog‘ining istalgan nuqtasida joylashgan $m_k$ massali paxta bo‘laklariga turli yo‘nalishdagi kuchlar ta’sir etadi (1-rasm).




**1-rasm. Aylanadigan quritish barabanidagi moddiy nuqtaga ta'sir qiluvchi kuchlar**

Ushbu kuchlar yig‘indisi quritish barabanidagi moddiy nuqtaning harakat yo‘nalishi va xarakterini belgilaydi. Tortishish kuchi $F_t$ va markazdan qochma kuch $F_m$ ning o‘zaro nisbati Fruda mezoni yoki ajratish omili orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$\Phi = \frac{F_m}{F_t} = m_k \cdot \omega_\delta^2 \cdot \frac{r}{m_k \cdot g} = \omega_\delta^2 \cdot \frac{r}{g} \quad (1)$$

Bu yerda $\omega_\delta$ - barabanning burchak tezligi; r - moddiy nuqtadan aylanish o‘qigacha bo‘lgan radial uzunlik; $m_k$- baraban pichoqlari ustida joylashgan paxta xomashyosining og`irligi.

Moddiy nuqta og`irligi $m_k$ quritish barabanida hosil bo‘lgan tezlanish yo‘nalishi bo‘yicha nisbiy harakatga ega bo‘ladi

$$a_0 = \vec{a} + \overrightarrow{\omega_\delta^2} \cdot r + \vec{g} \quad (2)$$

Nuqtaning nisbiy harakatida hosil bo‘lgan kuch $\vec{F} = \overrightarrow{F_m} + \overrightarrow{F_1}$ qarshilik kuchini yengishda baraban bilan uning kuch ta’sirini $P_c$ aniqlaydi va birga harakatlanuvchi “paxta - baraban pichoq” tizimlarini ajratish ta’sirini tavsiflaydi. Bunday holda, quritish jarayonida tizim (nuqta) harakati uchun tenglama quyidagicha taqdim etiladi:

$$P_{g\text{в}} = F \geq P_c \quad (3)$$


bunda $P_{g\text{в}}$ - nuqta harakati bo‘yicha yo‘naltirilgan kuch[2].

Materiallar oqimining harakati issiqlik oqim tezligiga va quritish barabanining aylanish tezligiga bog‘liq bo‘ladi. Oqim rejimiga o‘z ta’sirini


ISSN 3030-3907

ko‘rsatuvchi asosiy omillarni qo‘llab, jarayon uchun eng ma’qul bo‘lgan paxta xomashyosini issiqlik orqali ishlov berishning kerakli chegara yoki siljish rejimlariga yaqinligini olishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, barabanning aylanish tezligi oshishi orqali ko‘chkiga o‘xshash harakat rejimi boshqa bosqichga almashadi.

Issiqlik oqimi bilan birga hom paxta oqimining ko‘tarilishi baraban aylanasining chap kvadratidan yuqoridagi chap kvadratgacha sodir bo‘lishini ko‘rish mumkin. (2-rasm).




**2-rasm. Paxta xomashyosini quritish jarayonida material nuqtasining barabandagi harakati.**

Barcha ta'sir qiluvchi kuchlarni hisobga olgan holda paxta xomashyosi bilan quritish barabanining muvozanat sharoitlarini termik ta'sirsiz ko‘rib chiqamiz. Barabanning harakati paytida $P_{dv}$ qarshilik kuchini yengib o‘tadigan oqimning $A_0$ moddiy nuqtasi $P_c$ harakatlantiruvchi kuchning ta'siriga albatta bog‘liq,

$$P_{dv} = (F_m + F_t cos\theta)f = \left(m \cdot \omega_\delta^2 \cdot R_\delta + mg\ cos\theta\right)f \quad (4)$$

bu yerda,

$F_m$ - markazdan qochma kuch;

$F_t$ - tortishish kuchi;

$\theta$– quyi kvadrantdagi nuqtani balandlik burchagi;

$f$ - ishqalanish koeffitsienti;

$m_k$- paxta to‘plarining massasi;

$\omega_\delta$ – quritish barabanining burchak tezligi.

Qarshilik kuchining $P_c = mg\ sin\theta$ kattaligini bilib, o‘rniga qo‘yib tenglikni keltirib chiqarishimiz mumkin:

$$(m_k \cdot \omega_\delta^2 \cdot R_\delta + mg\theta)f = mg\ sin\theta \quad (5)$$

$$sin\theta = f \cdot \omega_\delta^2 \cdot R_\delta + \sqrt{g^2(1+f^2) - f^2} \cdot \omega_\delta^2\ \cdot {R_\delta}^2/g(1 + f^2 \quad (6)$$

Barabanni gorizontal diametridan $(\theta = \beta + \frac{\pi}{2})$ yuqoriga ko‘tarilganda, $A$ nuqtaning holati $\beta$ burchak orqali tavsiflanadi.


ISSN 3030-3907

Nuqtaga markaz tomon yo‘naltirilgan tortishish komponenti $mg \cdot sin\beta$ ga teng va markazdan yo‘naltirilgan markazdan qochma kuch $m_k \cdot \omega_\delta^2 \cdot R_\delta$ ta'sir qiladi. Agar $\beta$ burchak shunday bo‘lsa $mg \cdot sin\beta = m_k \cdot \omega_\delta^2 \cdot R_\delta$ ya'ni, $sin\beta = \omega_\delta^2 - \cdot \frac{R_\delta}{g} = \phi$, keyin $A$ nuqta barabanning pastki qismiga, parabolik traektoriya bo‘ylab, gorizont burchak ostida $\beta = \frac{\pi}{2} \cdot \theta$ tezlikda $\vartheta = \omega_\delta \cdot R_\delta$ erkin og‘ir jism kabi tushadi. Bunday holda $\beta$ burchak $\omega_\delta = 0$ (baraban harakatsiz) va $f = tg\varphi$ bo`yicha ajratish burchagi deb ataymiz, bunda $\varphi$ - ishqalanish burchagi. (2.50) tenglamadan:

$$sin\theta = \frac{f}{\sqrt{1 + tg^2\varphi}} = tg\varphi \cdot cos\varphi = sin\varphi \tag{7}$$

Pastga oqim paxta xomashyosining baraban pichog‘idan barabanning pastki qismiga tushishi bilan tavsiflanadi. Bo‘lakning $A$ nuqtasining traektoriyasi bu holda $AFB$ egri chizig‘ini ifodalaydi ($AF$ - ko‘tarilish, $FB$ - pasayish). $AG$ chizig`ning balandlik qiymati $y_1$ jism harakati tenglamasidan aniqlanishi mumkin:

$$\frac{dy}{d\tau} = \omega_y - \int_0^{\tau_1} g \cdot d\tau = \omega_y - g \cdot d\tau_1; \qquad \tau_1 = \frac{\omega_y}{g}, \tag{8}$$

ammo

$$\omega_y = \omega \cdot cos\beta = \pi \cdot n_\delta \cdot D_\delta cos\beta,$$

Shu nuqtayi nazardan tushish vaqti:

$$\tau_1 = \pi \cdot n_\delta \cdot D_\delta \frac{cos\beta}{g}, \tag{9}$$

Bu yerda: $D_\delta, n_\delta$ - quritish barabanining diametri va aylanish tezligi. Ushbu tenglamani hisobga olib, $y_1$ ni topamiz:

$$y_1 = \frac{(\pi \cdot n_\delta \cdot D_\delta cos\beta)^2}{2g}. \tag{10}$$

Paxta bo‘laklarini baraban pichog‘idan ajratish tortishish komponenti markazdan qochma kuch bilan muvozanatlangan holda sodir bo‘ladi, ya'ni,

$$F_T \cdot sin\beta = F_T \cdot (2\pi \cdot n_\delta)^2 \cdot \frac{D_\delta}{2g}. \tag{11}$$

Ushbu (2.54) tenglamani hisobga olgan holda, (2.56) tenglik quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$y_1 = 0.25 \cdot D_\delta \cdot cos^2\beta \cdot sin^2\beta \tag{12}$$

$H$ nuqtaning tushishdagi balandligi eng yuqori darajaga yetgan burchak $\beta$ va $n_\delta$ qiymatlarini topish uchun kordinatalar boshini ($A$) ajratish nuqtasiga joylashtiramiz.

Paxta xomashyosining baraban pichog‘idan tushishining umumiy balandligi quyidagilarga teng bo‘ladi:



ISSN 3030-3907

$$H = 0.25 \cdot D_\delta \cdot sin\beta \cdot cos^2\beta + 2D_\delta \cdot sin\beta \cdot cos^2\beta \quad (13)$$

$H$ qiymati shart bo`yicha maksimal darajaga etadi

$$\frac{dH}{d\beta} = 0, \quad tg\beta = 0.5, \quad \beta = 35°20'$$

Paxta xomashyosining baraban kamerasida harakatlanish traektoriyasining eng xarakterli bo‘limlarini ko‘rib chiqamiz. 3.a-rasmda paxta xomashyosining pichoqlardan taxminiy tushish traektoriyalari ko‘rsatilgan. Pichoqlarning egilish burchagi kritik qiymatga - ishqalanish burchagiga yetganda paxta tusha boshlaydi. Pichoq vertikal holatda bo‘lganda barcha paxta xomashyosi pastga tashlanadi, paxta xomashyosining pichoqlar bilan ko‘tarilishi barabanning yarmidan ko‘p bo‘lmagan aylanishiga to‘g‘ri keladi.




a) b)

1 - quritgichning korpusi, 2 - barabanning qobig‘i, 3 - pichoqlar, 4 – qobig‘dagi paxta xomashyosining qatlami va pichoqlar, 5 – paxtaning pichoqlardan tushishdagi trektoriyasi, 6 –paxtaning barabanni o‘qi bo‘ylab harakatlanish trektoriyasi, 7 – quritgich kamerasini ichki qismiga quritilmagan paxtani to`kish jihozi, 8 - chiqarish moslamasi.

**3-rasm. Quritgichning ko‘ndalang (a) va bo‘ylama (b) qismlari**

3.b-rasmda ko‘rsatilgan: AB – paxta xomashyosini yuklashda traektoriya kesimi, BC – barabanning pichoqlari va qobig‘ida paxta xomashyosini ko‘tarish, CD - paxta xomashyosi bo‘laklari tushganda traektoriyaning kesimi va keyin tsikl takrorlanadi[3].

Barabanning tepa qismidan paxta xomashyosi tushganda unga $V_v$ tezlikda harakatlanuvchi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqim bilan kiruvchi issiq havo oqimi qo‘shimcha tarzda beriladi. Paxta xomashyosi bo`laklari havo ta'sirida bir siklda ektsenel yo‘nalishda $h$ qiymatiga siljiydi. $V_v$ havo tezligiga $h$ qiymati bog‘liq hisoblanib, shuningdek, boshqariladigan miqdor bo‘lishi mumkin. $h$ miqdorini o‘zgartirish orqali baraban ichida paxta xomashyosini qolish muddati tartibi amalga oshiriladi. Bu barabanli quritgichlarni effektivligini tavsiflovchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.


ISSN 3030-3907

**NATIJALARI.** Barcha ta'sir etuvchi kuchlarni inobatga olgan holda quritish barabanida paxta xomashyosining muvozanat sharoitlari (termik ta'sirsiz) tahlil qilindi. Paxta xomashyosi bo'laklarining harakat traektoriyasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, barabanning faqat chap yarmi faol ishtirok etadi, o'ng qismi esa deyarli ishlamaydi. Natijada issiq havoning katta qismi paxtaga yetib bormasdan o'tib ketadi, bu esa quritgich samaradorligini pasaytiradi [4].

Barabanli quritgich ichidagi paxta xomashyosi harakatining aylanish vaqti va baraban aylanishining kinematik qiymatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaymiz[3].

Quyidagi formulalardan foydalanib tadqiqotchilar X.I.Ibragimov va X.A.Ismatovlar tomonidan olingan natijalar asosida biz 2SB10 quritish barabanida paxta homashyosini turish vaqtini quyidagicha aniqladik.

Sikl vaqti ushbu tenglik orqali aniqlanadi

$$T_{ц} = t_1 + t_2\,, \tag{14}$$

bu yerda $t_1$ - quritish barabanining yarim aylanish vaqti (baraban tubiga paxta xomashyosining tushishidan to to'kish nuqtasiga ko'tarilishgacha bo'lgan vaqt);
$t_2$ - paxta xomashyosining erkin tushish vaqti.

Agar shunday deb taxmin qilsak

$$t_1 = \frac{60}{2n}, \qquad t_2 = \sqrt{\frac{2h}{g}}\,,$$

bunda $n$ - quritish barabanining tezligi, min; $g$ – tortishish kuchi tezligi,
$h$ - pichoqlardan tushayotgan paxta xomashyosining balandligi, m;

Keyin

$$T_{ц} = \frac{60}{2n} + \sqrt{\frac{2h}{g}}\,, \tag{15}$$

Agar quritgich ichida paxta xomashyosining turish vaqti $T_0$ ma'lum bo'lsa, u holda tsikllar soni

$$Z = \frac{T_0}{T_{ц}}, \tag{16}$$

bo'ladi.

Agar quritgichning texnologik uzunligi $L_0$ ma'lum bo'lsa, paxta xomashyosining bir tsikldagi harakat miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$h_1 = \frac{L_0}{Z} = \frac{T_{ц} L_0}{T_0} = \frac{L_0\left(\frac{60}{2n} + \sqrt{\frac{2h}{g}}\,,\right)}{T_0}, \tag{17}$$

Masalan, agar $n=10min^{-1}$, $h=3{,}2$ m, $T_0=9min$, $L_0=10m$, bo`lsa u holda


ISSN 3030-3907

$$h_1 = \frac{10000}{Z} = \frac{10000}{T_0/T_ц} = 70mm\,, \quad (18)$$

Shundan paxta xomashyosining turish vaqti $T_0 = \frac{T_ц L_0}{h_1} = 536$ soniya ekanligi isbotlandi.

**XULOSALAR.** O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Amaldagi barabanli quritgichlarda texnologik hajm va issiq havo resurslarining qariyb 40 foizi samarali ishlatilmaydi. Issiq havoning katta qismi paxta xomashyosini chetlab o‘tadi, bu esa quritish jarayonining texnik-iqtisodiy samaradorligini pasaytiradi. Quritgich samaradorligini oshirish uchun baraban kamerasining texnologik hajmini optimallashtirish va issiq havoni bevosita paxta tushish zonasiga yo‘naltirish zarur. Baraban pichoqlari shaklini takomillashtirish quritish agentidan yanada to‘liq foydalanish imkonini beradi. Paxta xomashyosining quritish barabanida optimal bo‘lish vaqti **taxminan 9 daqiqa** ekanligi aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmurotov B.T. Paxta quritish barabanidagi yong`in chiqishini oldini olish mexatronik tizimini ishlab chiqish va mobil ilova yaratish: Dissertatsiya –Andijon, 2023.- 127b.
2. И.А.Исматов Совершенствование конструкции подъёмно-лопастных систем барабанной хлопкосушилки для повышения влагоотбора, качества волокна и семян. Диссертация. Республики Таджикистан, Душанбе-2019г.
3. A.Parpiev, M.Axmatov, A.Usmonqulov “Paxta hom-ashyosini quritish” darslik. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2009y.
4. X. Mansurov “Avtomatika va paxtani dastlabki ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish” Toshkent “O`zbekiston” 1996y.
5. Банников Г.В. Определение параметров барабанных хлопковых сушилок /Г.В. Банников // Хлопковая промышленность. – № 1. – 1963. – С.12–16.


ISSN 3030-3907

# PARA-[BIS-1,4-(4,4,4-TRIFTORBUTANDION-1,3)]-BENZOL MOLEKULASINING XIRSHFELD YUZA TAHLILI

**Xudoyarova E.A.**
***Buxoro davlat universiteti, k.f.f.d., dots.***
**Hamroyeva S.Sh.**
***Buxoro davlat universiteti, 1-bosqich magistranti***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada *para*-[*bis*-1,4-(4,4,4-triftorbutandion-1,3)]-benzol molekulasining kristall tuzilishidagi molekulalararo kuchsiz o‘zaro ta’sirlar Xirshfeld yuza tahlili hamda ikki o‘lchamli barmoq izlari grafiklari yordamida miqdoriy jihatdan o‘rganildi. Molekulyar yuzadagi $d_{norm}$, elektrostatik potensial va og‘ish indeksi parametrlari tahlil qilinib, kristall panjarani barqarorlashtiruvchi asosiy kontaktlar aniqlandi. Tahlillar natijasiga ko‘ra, strukturada ftor atomlari ishtirokidagi F···H, H···F va F···F kontaktlari, shuningdek, π-π ta’sirlar hamda O···H, H···O atomlarining vodorod bog‘lanishlari eng ko`p hissa egallashi ko‘rsatib berildi.

**Kalit so‘zlar:** Xirshfeld yuzasi, barmoq izlari diagrammasi, ftorli organik birikmalar, molekulalararo ta’sirlar, $d_{norm}$.

$$m_{moy} \cdot c_{moy} \frac{dt_{moy}}{d\tau} = U_{d-moy} \cdot A_{d-moy}\left(t_d - t_{moy}\right) - U_{moy-suv} \cdot A_{moy-suv} \cdot \left(t_{moy} - t_{suv}\right) \quad (4)$$

bu yerda, $m_{moy}$ , $c_{moy}$ – mos ravishda issiqlik qabul qilgich ichida harakatlanadigan moyning massasi (kg) va solishtirma issiqlik sig‘imi $j/kg \cdot ℃$; $A_{moy-suv}$ – Bak-akkumulyator ichida joylashgan issiqlik almashtirgich (zmeyvik) yuzasi, $m^2$ ; $t_{moy}$ – moyning o‘rtacha harorati, ℃; $t_{suv}$ – suvning harorati, ℃; $U_{moy-suv}$ – maydon suvga issiqlik uzatish koeffitsienti $(Vt/m^2 \cdot ℃)$ bo‘lib, uni quyidagi ifoda orqali hisoblash mumkin:

$$\frac{1}{U_{moy \cdot suv}} = \frac{1}{h_{moy}} + \frac{\delta_q}{\lambda_q} + \frac{1}{h_{suv}},\ \frac{\delta_q}{\lambda_q} \ll \frac{1}{h_{moy}},\ \frac{1}{h_{suv}},\ U_{moy-suv} \approx \left(\frac{1}{h_{moy}} + \frac{1}{h_{suv}}\right)^{-1}$$


ISSN 3030-3907

bu yerda, $h_{moy}$ – maydon issiqlik almashinuv quvuriga issiqlik berish koeffitsienti, $\frac{Vt}{m^{2}\cdot℃}$; $h_{suv}$ – issiqlik amashinuv quvuridan suvga issiqlik berish koeffitsienti, $\frac{Vt}{m^{2}\cdot℃}$; $\delta_q$ , $\lambda_q$ – mos ravishda issiqlik almashinuv quvurining qalinligi (m) va issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti (4) ifodani moyning o‘rtacha harorati bilan ishlasak ikkinchi tenglama orqali ifodalasak bo‘ladi.

Suvli bak issiqlik akkumulyator uchun energiya balansini quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$m_{suv}\cdot c_{suv}\frac{dt_{suv}}{d\tau}=U_{moy-suv}\cdot A_{moy-suv}\left(t_{moy}-t_{suv}\right)-U_{d.bak}\cdot A_{d.bak}\cdot \left(t_{suv}-t_{a-m}\right) \quad (5)$$

bu yerda, $m_{suv}$ , $c_{suv}$ – mos ravishda bak akkumulyatordagi suvning massasi (kg) va solishtirma issiqlik sig‘imi, $j/kg\cdot℃$ ; $t_{suv}$ – suv harorati, ℃ ; $A_{d.bak}$ – suvli bakning tashqi devor sirtining yuzasi, $m^2$; $U_{d.bak}$ – suvli bakning tashqi yuzasidan atrof-muhitga issiqlik uzatish (yo‘qotish) koeffitsienti ($\frac{Vt}{m^{2}\cdot℃}$) bo‘lib quyidagi ifoda orqali hisoblanadi[1-2-5-7-12].

$$\frac{1}{U_{d.bak}}=\frac{\delta_d}{\lambda_d}+\frac{\delta_{i2}}{\lambda_{i2}}+\frac{1}{h_{a-m}} \quad (5a)$$

bu yerda, $\delta_d$, $\delta_{i2}$, va $\lambda_d$, $\lambda_{i2}$ – mos ravishda bak akkumulyator materialining va izolyatsiya qatlamining qalinliklari (m) hamda o‘tkazuvchanlik koeffitsientlari $\frac{Vt}{m\cdot℃}$; $h_{a-m}$ – bak akkumulyator tashqi devoridan atrof muhitga issiqlik berish koeffitsienti ($\frac{Vt}{m^{2}\cdot℃}$) bo‘lib, amaliy hisoblashlarda (3a) ifodadagi konvektiv issiqlik berish koeffitsientiga teng ($h_{kon}=h_{a-m}$) deb qabul qilish mumkin[1-9-15-18].

Yuqoridagilarni hisobga olib, (1), (4), (5) differensial tenglamalarni (2), (3) ifodalarni hisobga olib tizimli ko‘rinishda quyidagicha yoza olamiz

$$\begin{cases} m_m\cdot c_m\frac{dt_d}{d\tau}=I(\tau)\cdot A_k\cdot\eta_{opt}-U_{d-moy}\cdot A_{d-moy}\cdot\left(t_d-t_{moy}\right)-U_{yo'q}\cdot A_{d-moy}\cdot\left(t_d-t_{a-m}\right) \\ m_{moy}\cdot c_{moy}\frac{dt_{moy}}{d\tau}=U_{d-moy}\cdot A_{d-moy}\cdot\left(t_d-t_{moy}\right)-U_{moy-suv}\cdot A_{moy-suv}\cdot\left(t_{moy}-t_{suv}\right) \\ m_{suv}\cdot c_{suv}\frac{dt_{suv}}{d\tau}=U_{moy-suv}\cdot A_{moy-suv}\cdot\left(t_{moy}-t_{suv}\right)-U_{d.bak}\cdot A_{d.bak}\cdot\left(t_{suv}-t_{a-m}\right) \end{cases} \quad (6)$$

(6) tenglamalar sistemasini[1-3-11-17-20] yechishdan oldin kanonik ko‘rinishga keltiramiz va quyidagicha yozamiz.

$$\begin{cases} \frac{dt_d}{d\tau}=-\frac{A_{d-moy}\left(U_{d-moy}+U_{yo'q}\right)}{m_m\cdot c_m}\cdot t_m+\frac{U_{d-moy}\cdot A_{d-moy}}{m_m\cdot c_m}\cdot t_{moy}+\frac{U_{yo'q}\cdot A_{d-moy}}{m_m\cdot c_m}\cdot t_{a-m}+\frac{I(\tau)\cdot A_k\cdot\eta_{opt}}{m_m\cdot c_m} \\ \frac{dt_{moy}}{d\tau}=\frac{U_{d-moy}\cdot A_{d-moy}}{m_{moy}\cdot c_{moy}}\cdot t_d-\frac{U_{d-moy}\cdot A_{d-moy}+U_{moy-suv}\cdot A_{moy-suv}}{m_{moy}\cdot c_{moy}}\cdot t_{moy}+\frac{U_{moy-suv}\cdot A_{moy-suv}}{m_{moy}\cdot c_{moy}}\cdot t_{suv} \\ \frac{dt_{suv}}{d\tau}=\frac{U_{moy-suv}\cdot A_{moy-suv}}{m_{suv}\cdot c_{suv}}\cdot t_{moy}-\frac{U_{moy-suv}\cdot A_{moy-suv}+U_{d-bak}\cdot A_{d-bak}}{m_{suv}\cdot c_{suv}}\cdot t_{suv}+\frac{U_{d-bak}\cdot A_{d-bak}}{m_{suv}\cdot c_{suv}}\cdot t_{a-m} \end{cases} \quad (7)$$


ISSN 3030-3907

(7) tenglamalar sistemasini matritsa ko‘rinishida yozib olishdan oldin, sistemadagi haroratlar vektorini A va B koeffitsientlarini belgilab olamiz.

$$T(\tau) = \begin{bmatrix} t_d \\ t_{moy} \\ t_{suv} \end{bmatrix}, \quad \frac{dt}{d\tau} = At + B \qquad (8)$$

$$A\begin{bmatrix} -\frac{A_{d-moy}\left(U_{d-moy} + U_{yo'q}\right)}{m_m \cdot c_m}, & \frac{U_{d-moy} \cdot A_{d-moy}}{m_m \cdot c_m}, & 0 \\ \frac{U_{d-moy} \cdot A_{d-moy}}{m_{moy} \cdot c_{moy}}, & -\frac{U_{d-moy} \cdot A_{d-moy} + U_{moy-suv} \cdot A_{moy-suv}}{m_{moy} \cdot c_{moy}}, & \frac{U_{moy-suv} \cdot A_{moy-suv}}{m_{moy} \cdot c_{moy}} \\ 0, & \frac{U_{moy-suv} \cdot A_{moy-suv}}{m_{suv} \cdot c_{suv}}, & -\frac{U_{moy-suv} \cdot A_{moy-suv} + U_{d-bak} \cdot A_{d-bak}}{m_{suv} \cdot c_{suv}} \end{bmatrix}$$

$$B = \begin{bmatrix} \frac{I(\tau) \cdot A_k \cdot \eta_{opt} + U_{yo'q} \cdot A_{d-moy} \cdot t_{a-m}}{m_m \cdot c_m} \\ 0 \\ \frac{U_{d.bak} \cdot A_{d.bak} \cdot t_{a-m}}{m_{suv} \cdot c_{suv}} \end{bmatrix}$$

Yuqoridagi tenglamalar sistemasidagi o‘zgarmas qiymatlarni 1- jadvalda keltiramiz [1-21-23-25].

**1-jadval**


**Parametrlar jadvali**

| № | Parametr nomi | Belgilanishi | Birligi | Qiymati |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Konsentrator maydoni | $A_k$ | m² | 1 |
| 2. | Optik samaradorlik | $\eta_{opt}$ | - | 0,82 |
| 3. | Devor va moy tutashgan issiqlik almashinuv yuzasi | $A_{d-moy}$ | m² | 0,15 |
| 4. | Bak-akkumulyator ichida joylashgan issiqlik almashtirgich (zmeyvik) yuzasi | $A_{moy-suv}$ | m² | 0,1 |
| 5. | Suvli bakning tashqi devor sirtining yuzasi | $A_{d.bak}$ | m² | 1,8 |
| 6. | Issiqlik qabul qilgich metal massasi | $m_m$ | kg | 3,9 |
| 7. | Metall (po‘lat) solishtirma issiqlik sig‘imi | $c_m$ | $J/kg \cdot ℃$ | 460 |
| 8. | Moy massasi | $m_{moy}$ | kg | 8 |
| 9. | Moy solishtirma issiqlik sig‘imi | $c_{moy}$ | $J/kg \cdot ℃$ | 5500 |
| 10. | Suv massasi | $m_{suv}$ | kg | 80 |
| 11. | Suvning solishtirma issiqlik sig‘imi | $c_{suv}$ | $J/kg \cdot ℃$ | 4180 |



ISSN 3030-3907

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 12. | Stefan-Boltsman doimiysi | $\sigma$ | $\frac{Vt}{m^2K^4}$ | $5{,}67 \cdot 10^{-8}$ |
| 13. | Sirtning nurlanish qobiliyati | $\varepsilon$ | - | 0,78 |

Tashqi havo harorati va quyosh raditasiyasini Qarshi shahri sharoiti uchun 2025 yil 15-may, 15-iyun, 15-iyul, 15-avgust sanalaridagi ma’lumotlari asosida (7), (8) ifodalarning hisoblash natijalarini 1-4 rasmlarda keltiramiz.





**1-rasm. Qarshi shahri sharoti uchun (15.05.2025) parabolasilindrik konsentrator issiqlik qabul qilgichidagi moy hamda bak-akkumulyatordagi suv haroratining sutkalik vaqt davomida o‘zgarishi**





**2-rasm. Qarshi shahri sharoti uchun (15.06.2025) parabolasilindrik konsentrator issiqlik qabul qilgichidagi moy hamda bak-akkumulyatordagi suv haroratining sutkalik vaqt davomida o‘zgarishi**


ISSN 3030-3907




**3-rasm. Qarshi shahri sharoti uchun (15.07.2025) parabolasilindrik konsentrator issiqlik qabul qilgichidagi moy hamda bak-akkumulyatordagi suv haroratining sutkalik vaqt davomida o‘zgarishi**




**4-rasm. Qarshi shahri sharoti uchun (15.08.2025) parabolasilindrik konsentrator issiqlik qabul qilgichidagi moy hamda bak-akkumulyatordagi suv haroratining sutkalik vaqt davomida o‘zgarishi**

1-rasmdan ko‘rish mumkinki, moyning harorati 200 °C dan yuqori qiymatlarga ko‘tariladi. Suv haroratining o‘zgarishi esa nisbatan inertroq xarakterga ega bo‘lib kun davomida asta-sekin ortib boradi va maksimal qiymati 85–90 °C atrofida ko‘tariladi. 2-rasmda esa moy haroratining 230 °C ga yaqin, suv harorati esa 90–100 °C oralig‘ida, 3-rasmda moy harorati 240 °C dan yuqori, suv harorati esa 100 °C dan oshishini, 4-rasmda moy harorati 225–230 °C, suv harorati esa 90–98 °C oralig‘ida shakllanishi nazariy hisoblashlar natijasida aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khuzhakulov S., Faiziev T., Sherkulov B., Murodov I., Samatova Sh., Analysis of scientific research conducted to improve the efficiency of solar concentrator systems. BIO Web of Conferences 71, 02033 (2023) https://doi.org/10.1051/bioconf/20237102033

2. Ruzikulov G., Ibragimov U., Ruzikulov A., Sherkulov B., Khidirov M. Mathematical modeling of the drying chamber of the combined solar dryer-cooler

unit. BIO Web of Conferences 71, 02027 (2023) https://doi.org/10.1051/bioconf/20237102027

3. Senthil, R., & Cheralathan, M. (2019). Enhancement of the thermal energy storage capacity of a parabolic dish concentrated solar receiver using phase change materials. Journal of Energy Storage, 25, 100841. https://doi.org/10.1016/j.est.2019.100841

4. Ali, B. F. (1990). Theoretical study of main factors affecting the heliostat field design of tower power plant. Energy Conversion and Management, 30(2), 101e106. https://doi.org/10.1016/0196-8904(90)90019-U

5. ASHRAE. (2003). ANSI/ASHRAE standard 93-2003: Methods of testing to determine the thermal performance of solar collectors. Atlanta: American Society of Heating, Refrigeration and Airconditioning Engineers (ASHRAE).

6. ASTM. (2021). ASTM E905-87(2021) standard test method for determining thermal performance of tracking concentrating solar collectors. Conshohocken: American Society for Testing and Materials.

7. Aurousseau, A., Vuillerme, V., & Bezian, J. (2016). Control systems for direct steam generation in linear concentrating solar power plants - a review. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 56, 611e630. https://doi.org/10.1016/j.rser.2015.11.083

8. Avila-Marin, A. L. (2011). Volumetric receivers in solar thermal power plants with central receiver system technology: A review. Solar Energy, 85(5), 891e910. https://doi.org/10.1016/j.solener.2011.02.002

9. Becker, M., & Sanchez, M. (1989). Wire pack volumetric receiver tests performed at the Plata-forma Solar de Almeria, Spain in 1987 and 1988, SSPS Technical Report, No. 2/89.

10. Bergman, T. L., Lavine, A. S., Incropera, F. P., & DeWitt, D. P. (2011). Fundamentals of heat and mass transfer (7th ed.). New Jersey: John Wiley & Sons. Cai, Y. (2013). Measuring gas flow with MEMS sensors. Electronic Products. http://www.electronicproducts.com.

11. Delta-T Devices. (2000). User manual for DL2e data logger. Cambridge: Delta-T Devices. Dunham, M. T., & Iverson, B. D. (2014). High-efficiency thermodynamic power cycles for concentrated solar power systems. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 30, 758e770. https://doi.org/10.1016/j.rser.2013.11.010

12. Dutta, P. (2017). High temperature solar receiver and thermal storage systems. Applied Thermal Engineering, 124, 624e632. https://doi.org/10.1016/j.applthermaleng.2017.06.028


ISSN 3030-3907

13. Ebert, M., Benitez, D., Ro¨ger, M., Korzynietz, R., & Brioso, J. A. (2016). Efficiency determination of tubular solar receivers in central receiver systems. Solar Energy, 139, 179e189. https://doi.org/10.1016/j.solener.2016.08.047
14. Fricker, H. W. (1986). Tests with a small volumetric wire receiver. In Proceedings of the third international Workshop on solar thermal central receiver systems. Konstanz, Berlin, Heidelberg, New York: Springer-Verlag.
15. Grasse, W. (1991). PHOEBUS international 30 MWe solar tower plant. Solar Energy Materials, 24, 82e94. https://doi.org/10.1016/0165-1633(91)90050-U
16. Grove, D. M., & Davis, T. P. (1992). Engineering, quality and experimental design. Essex: Longman Scientific & Technical.
17. Hans, V., & Windorfer, H. (2003). Comparison of pressure and ultrasound measurements in vortex flow meters. Measurements, 33, 121e133.
18. Henry, M., Tombs, M., Zamora, M., & Zhou, F. (2013). Coriolis mass flow metering for threephase flow: A case study. Flow Measurement and Instrumentation, 30, 112e122. https://doi.org/10.1016/j.flowmeasinst.2013.01.003
19. Ho, C. K. (2016). A review of high-temperature particle receivers for concentrating solar power. Applied Thermal Engineering, 109, 958e969. https://doi.org/10.1016/j.applthermaleng.2016.04.103
20. Ho, C. K. (2017). Advances in central receivers for concentrating solar applications. Solar Energy, 152, 38e56. https://doi.org/10.1016/j.solener.2017.03.048
21. Islam, M. T., Huda, N., Abdullah, A. B., & Saidur, R. (2018). A comprehensive review of state-ofthe-art concentrating solar power (CSP) technologies: Current status and research trends.
22. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 91, 987e1018. https://doi.org/10.1016/j.rser.2018.04.097
23. ISO. (2017). ISO Standard 9806:2017 Solar energy- solar thermal collectors - test methods. Geneva: International Organization of Standardization (ISO).
24. Janotte, N., Wilbert, S., Sallaberrt, F., Schroedter-Homscheidt, M., & Ramirez, L. (2017). Principles of CSP performance assessment. In P. Heller (Ed.), The Performance of concentrated
25. solar power (CSP) systems: modelling, measurement and assessment (pp. 31e64). Woodhead Publishing.
26. Karni, J., Kribus, A., Doron, P., Rubin, R., Fiterman, A., & Sagie, D. (1997). The DIAPR: A high pressure high-temperature solar receiver. Transactions of ASME Journal of Solar Energy Engineering, 119, 74e78. https://doi.org/10.1115/1.2871853
27. Korzynietz, R., Brioso, J. A., del Rı´o, A., Quero, M., Gallas, M., Uhlig, R., Ebert, M., Buck, R., & Teraji, D. (2016). Solugas - comprehensive analysis of the


ISSN 3030-3907

solar hybrid Brayton plant. Solar Energy, 135, 578e589. https://doi.org/10.1016/j.solener.2016.06.020

28. Madhlopa, A. (2018). Principles of solar gas turbines for electricity generation. Springer International Publishing AG. https://doi.org/10.1007/978-3-319-68388-1_7

# ГЕЛИОИССИҚХОНАДА ИССИҚЛИК ЙЎҚОТИЛИШЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ ВА ТАДҚИҚОТ ҚИЛИШ

**Шерқулов Баҳром Ғуломович**
*Қарши давлат техника университети катта ўқитувчи*

**Аннотация.** Мақолада гелиоиссиқхонада йўқотиладиган иссиқлик миқдорлари бўйича илмий тадқиқот натижалари, ҳисоблаш услублари ва уларга таъсир қилувчи омиллар келтирилган. Гелиоиссиқхоналарда келтирилган ва йўқотиладиган иссиқлик миқдорларининг узатилиш усуллари келтирилган. Гелиоиссиқхона тиниқ юзаси конвекция коэффициентини ҳисоблаш натижалари ва йўқотиладиган иссиқлик миқдорларининг суткалик миқдорлари бўйича тажриба тадқиқоти натижалари келтирилган.

**Калит сўзлар:** иссиқлик узатиш коэффициенти, иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти, иссиқлик йўқотилиши, иссиқлик юкламаси.

**Abstract.** This paper presents the results of scientific research on heat loss parameters in solar greenhouses, along with computational methodologies and key influencing factors. The mechanisms of heat gain and loss distribution within solar greenhouse systems are systematically analyzed. Furthermore, the study provides calculation results for the convection coefficient of the greenhouse's transparent cover and empirical data on the daily dynamics of total heat loss. The findings offer critical insights into the thermal performance and energy efficiency of solar-driven agricultural structures.

**Keywords:** heat transfer coefficient, thermal conductivity, heat loss, thermal load, solar greenhouse.

**Аннотация.** В данной статье представлены результаты научных исследований величин теплопотерь в гелиотеплицах, методы их расчета и факторы, оказывающие на них влияние. Рассмотрены способы передачи подводимого и теряемого тепла в гелиотеплицах. Приведены результаты расчета коэффициента конвекции прозрачной поверхности гелиотеплицы и результаты экспериментальных исследований суточной динамики тепловых потерь. Полученные данные позволяют оценить тепловую эффективность и энергетические характеристики гелиотехнических сооружений.

**Ключевые слова:** коэффициент теплоотдачи, коэффициент теплопроводности, теплопотери, тепловая нагрузка, гелиотеплица.

## КИРИШ.

Қуёш иссиқхоналаридаги иссиқлик йўқотилишини ҳисоблаш кам ўрганилган соҳалардан биридир, чунки бу қурилмалар ичидаги ва атрофидаги ҳаво ҳарорати сутка давомида даврий равишда ўзгариб туради. Натижада ички ва ташқи ҳавонинг ҳароратлари фарқи $\Delta t = t_{f1} - t_{f2}$ ҳам


ISSN 3030-3907

даврий ўзгариб туради. Даврий иссиқлик таъсирида (гармоник тўлқинлар ҳолати) иссиқлик йўқотилишини ҳисоблаш А.М.Шкловер, К.Ф.Фокин ва бошқалар томонидан қаралган. А.М.Фокин усули амалий ҳисоблаш учун кўп меҳнат талаб қилади, ундан ташқари қуёш иссиқхоналарида ҳарорат аниқ гармоник ҳолда ўзгармайди. Иккинчи томондан А.М.Фоник усулидан фойдаланиш учун ҳарорат эгри чизиғини Фурье қаторига ёйиш керак, бу эса ҳисоблашларни мураккаблаштиради [1-4].

Аммо ташқи ва ички ҳавонинг ҳароратлар фарқи $\Delta t$ катта бўлмаганда иссиқлик балансида энергиянинг нурланиш орқали йўқолиши кам бўлиши сабабли, иссиқлик бериш коэффициенти $\alpha, \tau$ давр ичида ўзининг максимал ва минимал қийматларидан кам фарқ қилади. Шунинг учун ҳам қуёш иссиқхоналаридаги иссиқлик йўқотилишини ҳисоблаш учун ўртача ҳароратдан фойдаланиш мумкин. Бу усул содда бўлиб, амалий ҳисоблаш учун етарлидир.

Қуйида шу усулга асосланиб бажариладиган ҳисоблашларга тўхталамиз. Гелиоиссиқхонадан жами йўқотиладиган иссиқлик миқдори қуйидаги ташкил этувчилардан иборат бўлади [6].

$$\sum Q_{Й} = Q_{Т.Ю} + Q_{П} + Q_{Ф} + Q_{Т} \qquad (1)$$

бу ерда $\sum Q_{Й}$ - жами йўқотилган иссиқлик миқдори, Вт; $Q_{Т.Ю}$ - тиниқ юза орқали йўқотилган иссиқлик миқдори, Вт; $Q_{П}$ - иссиқхонанинг тиниқ бўлмаган юзаси орқали йўқотилган иссиқлик миқдори, Вт; $Q_{Ф}$ - фундамент орқали йўқотилган иссиқлик миқдори, Вт; $Q_{Т}$ - тирқишлар орқали йўқотилган иссиқлик миқдори, Вт;

Ҳар бир ташкил этувчини ҳисоблашни алоҳида-алоҳида кўриб ўтамиз. Иссиқхонанинг катта қисми шиша билан қоплангани сабабли иссиқлик йўқотиш ҳам катта бўлади. Мазкур ҳолда иссиқхона ичидаги ҳаво конвекция йўли билан ички қатламдаги шишага берилади. Иссиқхона ичидаги ҳаводан шишага конвекция орқали, оралиқдаги ҳавога иссиқлик ўтказувчанлик йўли билан, оралиқдаги ҳаво ташқи қаватдаги шишага конвекция йўли билан, ундан конвекция орқали атрофдаги муҳитга тарқалади. Ҳароратлар фарқи катта бўлмагани учун нурланиш орқали иссиқлик йўқотилиши кам бўлади.

$Q_{Ш}$ ни ҳисоблаш учун олдин шу юзадан ўтаётган солиштирма иссиқлик оқими $q$ ни топамиз. Қўшни вақт бўлаклари орасида, яъни бир соат давомида ҳарорат фарқи жуда катта бўлмагани учун жараённи, тахминан стационар деб қабул қиламиз. Иссиқликнинг берилиши узлуксиз бўлгани учун барча тўсиқлардан бир хил иссиқлик миқдори ўтади. Шунга кўра қуйидагидарни ёза оламиз [6-8]:

$$q = \alpha_1 (t_{f1} - t_{w1})$$


ISSN 3030-3907

$$q = \frac{\lambda_1}{\delta_1}(t_{w1} - t_{w2})$$
$$q = \frac{\varepsilon_R \lambda x + \alpha_л \delta_X}{\delta_X}(t_{w2} - t_{w1}) \quad (2)$$
$$q = \frac{\lambda_2}{\delta_2}(t_{w3} - t_{w4})$$
$$q = \alpha_2(t_{w4} - t_{f2})$$

бу ерда: $\alpha_1$ - ички ҳавонинг иссиқлик бериш коэффициенти, Вт/(м²°С); $\alpha_2$ - ташқи ҳавога иссиқлик бериш коэффициенти, Вт/(м²°С); $\lambda_1, \lambda_2$ - шишанинг ва ҳавонинг иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти, Вт/(м°С); $t_{f1}$ - ички ҳаво ҳарорати, °С; $t_{f2}$ - ташқи ҳаво ҳарорати, °С; $t_{w1}, t_{w2}, t_{w3}, t_{w4}$ - тегишли қатламдаги шиша ҳароратлари, °С; $\delta_1$, $\delta_2$- шишанинг қалинликлари, мм.

(2) ифодаларни ўнг томонидаги ҳароратлар айирмаларини топиб олиб, ҳадлаб қўшамиз

$$q\left(\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_X}{\lambda_{ЭКВ}} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{1}{\alpha_2}\right) = t_{f1} - t_{f2} \quad (3)$$

бу ерда $\lambda_{ЭКВ} = \varepsilon_К \lambda_X + \alpha_\lambda \cdot \delta_X$ шишалар орасидаги ҳаво қатламининг эквивалент иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти. Шишалар қалинлиги ва иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти бир ҳил, яъни $\delta_1 = \delta_2 = \delta$ ва $\lambda_1 = \lambda_2 = \lambda$ бўлади. Буларни эътиборга олиб (3) ни қуйидагича ёза оламиз.

$$q\left(\frac{1}{\alpha_1} + \frac{2\delta}{\lambda} + \frac{\delta_X}{\lambda_{ЭКВ}} + \frac{1}{\alpha_2}\right) = t_{f1} - t_{f2} \quad (4)$$

ва

$$k = \frac{1}{\left(\frac{1}{\alpha_1} + \frac{2\delta}{\lambda} + \frac{\delta_X}{\lambda_{ЭКВ}} + \frac{1}{\alpha_2}\right)}; \quad (5)$$

ни белгилаб оламиз ва бунга иссиқлик ўтказиш коэффициенти дейилади. Солиштирма иссиқлик оқими эса

$$q = k(t_{f1} - t_{f2}) \quad (6)$$

га тенг бўлади.

Демак, тиниқ юза орқали сутка давомида тўла иссиқлик йўқотилиши

$$Q_ш = K_ш \Delta t_ш \cdot F_ш \cdot \tau \quad (7)$$

ифода орқали ҳисобланади [9].

Ҳисоблашларни амалга ошириш учун (7) формулада $F_Ш$ ва $\tau$ маълум, $\Delta \bar{t}_Ш$ термографлар ёзувининг суткалик ўртача қиймати асосида топилади. Аммо К нинг ўртача қийматини топиш учун (5) ифодадаги $\alpha_1, \alpha_2$ ва $\lambda_{экв.}$ ларни билиш керак.

Бу миқдорлар қуйидагича аниқланади: гелиоиссиқхонада эшик, форточка ва қувур ёпиқ бўлган пайтда ҳаво ҳаракати эркин конвекция


ISSN 3030-3907

натижаси бўлиб қуйидагича ҳосил бўлади: эрталаб қуёш энергияси шиша юзаси орқали ўта бошлагач ҳаво исий бошлайди. Исиган ҳаво юқорига кўтарилади ва аккумулятор орқали совуб пастга тушади. Бу ҳароратлар фарқига боғлиқ бўлиб, қанчалик катта бўлса, конвекция ҳам шунча катта бўлади. Шунга кўра ҳавонинг ҳаракати ламинар ёки турбулент бўлиб, эркин конвекция Грасгоф ва Прандтель критериялари асосида ўзгаради. Грасгоф критерияси қуйидаги ифода билан аниқланади [8-10].

$$Gr = g\beta\Delta t\frac{l^3}{v^2}; \qquad (8)$$

бу ерда $g$ - эркин тушиш тезланиши, м/сек$^2$; $\beta$ - ҳажм кенгайишининг термик коэффициенти, $\frac{1}{^\circ C}$; $\Delta t$ - ҳароратлар фарқи, $^0$C; $l$ - системанинг характерли узунлиги ўлчови, $м$; $v$ - кинематик ёпишқоқлик коэффициенти, $\frac{м^2}{сек}$.

Прандтель критерияси эса: $Pr = \frac{v}{a}$; $a$ - ҳарорат ўтказувчанлик коэффициенти, $\frac{м^2}{сек}$; Агар $Gr_f\, Pr_f \rangle 10^9$ бўлса, оқим турбулент, $Gr_f\, Pr_f \langle 10^3$ бўлганда эса ламинар бўлади. Кўп ҳолларда гелиоиссиқхоналарда $Gr_f\, Pr_f \rangle 10^9$ бўлади. Шунинг учун ҳам $\alpha_1$ ни аниқлашда қуйидаги

$$Nu_{f;t} = 0{,}15(Gr_{f,l}\cdot Pr_{j,l})^{0{,}33}\left(\frac{Pr_f}{Pr_w}\right)^{0{,}25};\ \alpha_1 = \frac{Nu_{f,l}\cdot\lambda_f}{l}; \qquad (9)$$

Нуссельт критериясидан фойдаланилади [3]. Ҳисоблаш учун $\lambda, v, a$ жадвалдан олинади. Одатда гелиоиссиқхона учун характерли узунлик ўлчови $l$ сифатида тиниқ юза кўндаланг кесими узунлиги олинади.

Иссиқхонанинг ташқи қават шиша юзасидан атрофдаги ҳавога иссиқлик бериш коэффициенти ҳам критериал тенгламалар ёрдамида ҳисобланади. Ташқи совуқ ҳаво иссиқхона юзаси бўйича ҳаракат қилганда, шу юза билан ҳаракатланувчи ҳаво ўртасида иссиқлик алмашиш содир бўлади. Бунда юза томонидан ташқи ҳавога бериладиган иссиқлик миқдори Рейнольдс сонига (Re) боғлиқ. Агар Рейнольдс сони $Re \rangle 4\cdot 10^4$ бўлса, оқим турбулент бўлади. Бу ҳолда $\alpha_2$ ни аниқлаш учун қуйидаги критериал тенгламадан фойдаланилади [11].

$$Nu_{f;t} = 0{,}037\,Re^{0{,}8}{}_{f,l}\cdot Pr^{0{,}43}\left(\frac{Pr_f}{Pr_w}\right)^{0{,}25};\ a_2 = \frac{Nu_{f\cdot l}\cdot\lambda_f}{l}; \qquad (11)$$

Бу ҳисоблашлар ва аниқловчи ҳарорат учун ташқи ҳаво ҳароратининг ўрта арифметик қиймати, аниқловчи ўлчов сифатида шиша билан қопланган юзанинг кенглиги олинади. Ҳавонинг тезлиги аниқ ҳолда анимометр билан ўлчаниб, ҳарорат сингари ўрта қийматидан фойдаланилади.


ISSN 3030-3907

Қурилманинг иссиқлик узатиш коэффициенти К ни ҳисоблаш учун зарур бўлган навбатдаги иссиқлик ўтказувчанликнинг эквиваленти $\lambda$ экв, қуйидагича ҳисобланади. Маълумки, илмий адабиётларда горизонтал ва вертикал жойлашган иккита тўсиқ билан чегараланган ҳаво қатламлари орқали иссиқликнинг берилиши яхши ёритилган. Аммо шу қатламлар гелиоиссиқхоналардагидек қиялатиб жойлаштирилгандаги ҳол етарли ёритилмаган. Бундай ҳаво қатламларида бир вақтнинг ўзида иссиқлик ўтказувчанлик ва конвекция ҳодисалари содир бўлади. Бундай мураккаб иссиқлик алмашиш жараённи ҳисоблашни осонлаштириш учун иссиқлик ўтказувчанлик эквивалент коэффициенти

$$\lambda_{экв} = \frac{Q_\delta}{l \cdot \Delta t}; \qquad (12)$$

киритилади.

Бу миқдорнинг муҳит иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентига нисбати конвекция коэффициентига тенг бўлади, яъни [12]

$$\varepsilon_R = \frac{\lambda_{ЭКВ}}{\lambda_{МУХТ}};$$

Иккинчи томондан $\varepsilon_R$ - Грасгоф ва Прандтл критерияларига боғлиқ, яъни

$$\varepsilon_R = f(Gr_X \cdot Pr_X); \qquad (13)$$


Агар $Gr_{X1}\, Pr_{X1} \langle 10^3$ бўлса, $\varepsilon = 1$ бўлиб $\lambda_{ЭКВ} =; \lambda_{МУХ}$ бўлади.

$$Gr_f \cdot Pr_f \langle 10^3$$

бўлган ҳолларда тахминий ҳисоблашлар учун [13]

$$\varepsilon_R = 0{,}18(Gr_{X1} \cdot Pr_{X1})^{0{,}25};\ \varepsilon_R = A\sqrt{\delta^3 \Delta t}; \qquad (14)$$

фойдаланилади. Бундан $A = 0{,}18\frac{(g\beta\, Pr)^{0{,}25}}{v^{0{,}5}}$; гелиоиссиқхонанинг иккала шиша оралиғи ва ҳароратлар фарқи турлича бўлган ҳол учун $\varepsilon_R$ нинг $\delta$ ва $\Delta t$ қараб ўзгариш графиги 1-расмда келтирилган.




**1-расм. Иссиқхонада конвекция коэффициентининг ҳаво қалинлиги ва ҳароратлар фарқига қараб ўзгариши.**


ISSN 3030-3907

Юқорида $\alpha_1, \alpha_2$ $\lambda_{экв}$ ларни ҳисоблаганда фақат конвекция ва иссиқлик ўтказувчанлик йўли билан иссиқлик йўқотилиши ҳисобга олинади. Аммо иссиқлик йўқотилиши нурланиш йўли билан ҳам бўлади. Жисмларнинг энергия нурланишлари Стефан-Больцман қонунига асосланади, яъни [13]

$$Q_0 = \sigma T^4; \qquad (15)$$

бу ерда $\sigma_0 = 5{,}7 \cdot 10^{-8} \frac{вт}{м^2 \cdot °K^4}$; - Стефан-Больцман доимийси;

Техник ҳисоблашларда Стефан-Больцман қонуни бошқача кўринишда ҳам берилади.

$$Q_0 = c_0 \left(\frac{T}{100}\right)^4;$$

бу ерда $c_0 = \sigma_0 \cdot 10^8 = 5{,}7 \frac{вт}{м^2 \cdot °K^4}$;

Буни иссиқхонанинг тиниқ сиртига тадбиқ этсак

$$Q_{1,2} = \varepsilon_{КЕЛ} \cdot c_0 F \left[\left(\frac{T_1}{100}\right)^4 - \left(\frac{T_2}{100}\right)^4\right] \qquad (16)$$

бўлади. Бу ерда $T_1, T_2$ биринчи ва иккинчи қаватларнинг ўртача ҳароратлари $\varepsilon_{КЕЛ}$ га системанинг келтирилган қоралик даражаси дейилади ва у қуйидагига тенг бўлади.

$$\varepsilon_{КЕЛ} = \frac{1}{\frac{1}{\varepsilon_1} + \frac{1}{\varepsilon_2} - 1};$$

бу ерда $\varepsilon_1$ ва $\varepsilon_2$ шишанинг қоралик даражаси. Одатда шишалар учун $\varepsilon_1 = \varepsilon^2 = \varepsilon = 0{,}9$ бўлгани учун $\varepsilon_{КЕЛ}$=0,818 га тенг.

Нурланиш йўли билан иссиқлик бериш коэффициенти эса $\alpha_H = \frac{Q_{1,2}}{T_1 - T_2}$; га тенг бўлади. Худди шунингдек ҳароратлар фарқи катта бўлганда шишалар орасидаги ҳаво қатламини ҳам ҳисобга олиш зарур. Бундай ҳолда вертикал қатламлар учун [14]

$$\lambda_{ЭКВ} = \lambda_X \varepsilon_R + \alpha_H \cdot \delta_X \qquad (19)$$


горизонтал қатламлар учун қуйидаги шаклда

$$\lambda_{экв} = \lambda_X \varepsilon_R K(\Delta t) + \alpha_H \delta_{X1} \qquad (20)$$

бўлади. Бу ерда $K(\Delta t)$ коэффициент бўлиб, ҳароратлар фарқига боғлиқ $K(\Delta t)$ нинг сон қийматлари махсус адабиётдаги жадвалда берилган. Гелиоиссиқхонада (юза горизонтга қиялатилган) ҳароратлар фарқи кам бўлгани учун $K(\Delta t) = 1$ олинади.

Юқорида айтилгандек ташқи ва ички ҳавонинг ҳароратлари термографлар ёрдамида ёзиб олиб аниқланади. $t_{w1}, t_{w2}, t_{w3}, t_{w4}$ ларнинг қийматлари керак бўлганда график усулдан фойдаланиб топиш мумкин. Қуйидаги 2-расмда январь ойининг бошида (энг совуқ йил 2023 йил) график равишда юзада ўртача ҳароратларнинг тақсимланишлари келтирилган.


ISSN 3030-3907




**2-расм. Иссиқхона шиша қатламларида ҳароратнинг тақсимланиши.**

Шундай қилиб, тажрибадан олинган миқдорлар ёки олдиндан берилган миқдорларга кўра, қараб ўтилган усул ёрдамида $\alpha_1, \alpha_2$ ва $\lambda_{экв}$ ҳисобланиб, тиниқ юзанинг иссиқлик узатиш коэффициенти К - нинг ўртача қиймати аниқланиб сўнгра $Q_{Ш}$ ҳисоблаб чиқилади. Берилган қурилма учун ташқи минимал ҳарорат – $18^0$C ва ички минимал ҳарорат $+4^0$C бўлганда суткалик иссиқлик йўқотиш $Q_Ш$=110352 ккал=463,5 МЖ тенг.

Қуёш иссиқхонасининг тиниқ юзасидан иссиқлик йўқотилишини сутка давомида ҳар бир соат учун ҳисоблаб чиқиб, ҳароратни ўртача усул билан солиштириш мумкин. Гелиоиссиқхоналарнинг бошқа тиниқ бўлмаган қисмлари, девор, фундамент тўсиқлари орқали иссиқлик йўқотилиши юқоридаги усул ёрдамида ҳисобланади. Фақат буларда ҳаво қатлами бўлмагани учун масала осонлашади.

Қурилманинг тиниқ бўлмаган қисми орқали иссиқлик йўқотилиши

$$Q_n = \bar{K}_n \cdot \Delta \bar{t}_n \cdot F_n \cdot \tau \qquad (21)$$

бўлади, бу ерда $K_n = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1}+\sum\frac{\delta_i}{\lambda_i}+\frac{1}{\alpha_2}}$. $Q_n$ - ҳам ўз навбатида 3 та қўшилувчидан иборат бўлади.

$$Q_n = Q`_1 + Q`_2 + Q`_3 \qquad (22)$$

$Q_1'$ - иссиқхонанинг тиниқ бўлмаган шимолий нишаби орқали, $Q_2'$ - аккумулятор томи орқали, $Q_3'$ - аккумуляторнинг ташқи девор орқали йўқотилган иссиқлик миқдорлари (Ж).

Шимолий нишаб, аккумулятор томи ва шимолий ташқи девор иссиқликни кам йўқотиши учун бир неча қават қилиб ясаган ва улар ҳар қайсисининг термик қаршилиги, $R = \frac{\lambda}{\delta}$ ҳам ҳар хил. Шунинг учун ҳар қайси қатлам учун $\frac{\lambda}{\delta}$ ҳисобланиб $\bar{K}$ учун уларнинг йиғиндиси $\sum\frac{\lambda i}{\sigma i}$ олинади.


ISSN 3030-3907

Берилган кун учун ҳисоблашлар $Q_п$=2700 ккал/сутка=11,3 МЖ/сутка га тенг эканлигини кўрсатди.

Умумий иссиқлик йўқотилишига яна бир қўшилувчи, фундамент орқали иссиқликнинг йўқотилиши киради, у (23) ва (24) формулалар[15]

$$Q_Ф = \bar{K}_Ф \cdot \Delta\bar{t}_Ф \cdot F_Ф \cdot \tau; \quad (23)$$

$$K_Ф = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1}+\frac{\delta}{\lambda}+\frac{1}{\alpha_2}}; \quad (24)$$

орқали ҳисобланади. Сутка давомида фундамент орқали иссиқлик йўқотилиши $Q_ф$=5520 ккал/сутка=23,2 МЖ/сутка ташкил қилади.

Қуёш иссиқхонасининг муваффақиятли ишлаши унинг герметик бўлишига боғлиқ, чунки унда иссиқлик манбаи бўлмайди. Амалиёт шуни кўрсатадики, рамаларга ойналарни ўтказиш пайтида кичик тирқишлар қолса, қуёшдан олинган энергиянинг бир қисми шу тирқишлар орқали ташқи муҳитга тарқалади. Гелиоиссиқхона учун тирқишлар орқали иссиқлик йўқотилишини аниқлашнинг етарли услуби ишлаб чиқилмаган.

Бу масала П.А.Жубалиева томонидан сув чучутгич учун қаралган П.Р.Ризаев эса қуйидаги формуладан фойдаланди [4].

$$Q_2 = j\varphi pl\{\int_0^{\tau} [c(t_1 - t_H)q_B^0 \cdot i_B^0 - q_n i_H]d\tau + \int_{\tau}^{\tau 1}[c(t_T^0 - t_T^0) + q_B^0 i_B^0 - q_H^0 i_H^0]\, d\tau \quad (25)$$

Шунинг учун ҳам шишанинг нур ўтказиш сифатига ва иссиқхонанинг қанча йил ишлатилишига қараб, бу қўшилувчини 5-15 фоизга олиш мумкин.

$Q_T$ ни аниқлаш учун қуйидаги баланс тенгламасидан фойдаланиш мумкин

$$Q_T = \sum Q_{Й} - Q_{Ш} - Q_{П} - Q_{Ф} \quad (26)$$

Шунга кўра, олинган кун учун $Q_T$=15200 ккал/сутка=63,84 МЖ/сутка келиб чиқади.

Барча тўсиқларнинг иссиқлик ўтказиш коэффициентларининг ўртача қийматлари бўйича гелиоиссиқхонанинг иссиқлик йўқотилишини ҳисоблаш янада соддалашади. Бизнинг ҳол учун бу қурилманинг иссиқлик узатиш коэффициенти

$$\overline{K}_o = \frac{K_c F_c + K_n F_n + K_ф F_n}{F_c + F_n + F_ф} = 1{,}3\frac{ккал}{м^2 \cdot соат \cdot {}^o C} = 1{,}51\frac{Вт}{м^2 \cdot {}^o C}$$

бўлади ва йиғинди йўқотилган иссиқлик миқдори

$$\sum Q_{Й} = \bar{K}\sum F_0(\bar{t}_{f1} - \bar{t}_{f2})\tau;$$

орқали ҳисобланади. Қуйида 1-жадвалда (6-7 январ) сутка давомида йўқотилган иссиқликнинг ҳисоб бўйича миқдори келтирилган.

**1-жадвал**

| | **МЖ** | | **МЖ** |
|---|---|---|---|


ISSN 3030-3907

| Соатлар | Соат $\sum Q_{й}$ | Соатлар | Соат $\sum Q_{й}$ |
|---|---|---|---|
| 8 | 20,95 | 20 | 27,24 |
| 9 | 19,69 | 21 | 24,72 |
| 10 | 19,27 | 22 | 23,34 |
| 11 | 23,05 | 23 | 22,63 |
| 12 | 28,28 | 24 | 22,00 |
| 13 | 33,90 | 1 | 21,16 |
| 14 | 37,92 | 2 | 20,95 |
| 15 | 37,92 | 3 | 20,53 |
| 16 | 35,99 | 4 | 20,41 |
| 17 | 32,68 | 5 | 20,36 |
| 18 | 29,54 | 6 | 20,32 |
| 19 | 27,65 | 7 | 20,28 |

П.Ф.Ризаев гелиоиссиқхоналардан иссиқлик йўқотилишини ҳисоблашда Г.С.Карслоу формуласидан фойдаланади, яъни [4,16]

$$Q_1 = K_1 F_1 \left[\int_0^{\tau} (t_{\tau} - t_H)d\tau + \int_{\tau}^{\tau 1} (t_T^0 - t_H^0)dt\right]; \qquad (27)$$

бу ерда $t_T, t_H$ ва $t_T^0, t_H^0$ лар гелиоиссиқхонадаги ва очиқ майдондаги кундузги, кечки ҳаво ҳароратлари. П.Ф.Ризаевнинг кўрсатиши бўйича 60 % иссиқлик тиниқ юза ва 30 % иссиқлик иссиқхона асоси орқали йўқотилади.

Иситилмайдиган, одатдаги парниклар, иссиқхоналарнинг иссиқлик режимлари бўйича Л.Н.Ануфриев ва бошқалар текшириш ишлари олиб борганлар. Уларнинг кўрсатишларича, одатдаги иссиқхоналарнинг термик қаршиликлари жуда кам, нолга яқин бўлади, яъни иссиқлик йўқотишлари гелиоиссиқхонага қараганда қисқа муддат ичида кўп бўлиб, ички ҳаво ҳарорати тезлик билан пасайиб кетади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Фокин Ф.Ю. Строительная теплотехника ограждающих частей зданий, М., Госстройиздат, 1953.
2. Умаров Ғ.Ё., Ершов А.А. Қуёш инсон хизматида, Тошкент, “Фан”, 1972.
3. Якубов Ю.Н. Исследование по аккумулированию энергии в гелиотеплицах, Автореферат канд.дисс., Ташкент, 1972.
4. Рзаев П.Ф. Исследование теплового режима гелиотеплицы, технико-экономическое обоснование использования в ней для обогрева естественных источников энергии на примере Апшеронского района, Автореферат канд.дисс., Баку, 1967.
5. Ergashev, Sh.H., Faiziev, T.A., Mamedova, D.N., Khuzhakulov, S.M. Results of mathematical modeling of nostatic temperature temperature heating of "Livestock heat complex" through the use of solar and bio energy (2022)


ISSN 3030-3907

Proceedings of SPIE - The International Society for Optical Engineering, 12296, art. no. 122960U,.
6. Ergashev, Sh.H., Fayziev, T.A., Tilavov, Yu.S., Sattorov, B.N., Khidirov, M.M., Mirzayorova, S.U. Mathematical modeling of greenhouse-livestock complex heated by solar and bioenergy sources (2022) IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 1070 (1), art. no. 012031, .
7. Khusenov, A.A., Davlonov, K.A., Ergashev, S.H. Heat balance modeling of heat pipe biogas-biofertilizer device reactor (2022) IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 1070 (1), art. no. 012032, .
8. Ergashev, Sh.H., Fayziev, T.A., Khusenov, A.A. Mathematical modeling of heat regime of underground heat accumulator (2023) AIP Conference Proceedings, 2612, art. no. 030019,.
9. Khamraev S. I, Ibragimov U. Kh Kamolov B.I. Removal of hydrodynamic lesions of a heated floor with a solar collector // APEC-V-2022 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1070(2022) 012018 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/1070/1/012018.
10. Sh Mirzaev, J Kodirov, S I Khamraev. Method for determining the sizes of structural elements and semi-empirical formula of thermal characteristics of solar dryers// APEC-V-2022 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1070(2022) 012021 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/1070/1/012021.
11. G. Uzakov, S. Mamatkulova, S. Ergashev. Thermal mode of the condenser of a pyrolysis bioenergy plant with recuperation of secondary thermal energy. E3S Web of Conferences, 411, 01021 (2023).
12. S. Ergashev, T. Faiziev, S. Yakhshiboev, I. Fayzullaev. Modeling and optimization of the parameters of the heat accumulator of the combined livestock-heliogreenhouse complex. BIO Web of Conferences, 71, 01121 (2023).
13. G. Uzakov, S. Mamatkulova, S. Ergashev, F. Qodirov, A. Turayev. Modeling of heat exchange processes in a condenser of a pyrolysis bioenergy plant. BIO Web of Conferences, 71, 02021 (2023).
14. I. Nematov, B. Khairiddinov, S. Ergashev. Modeling the temperature regime of the heat accumulator. BIO Web of Conferences, 71, 02036 (2023).
15. A.A. Khusenov and et al. Evaluation of heat losses of the solar greenhouse during the heating season. E3S Web of Conferences, 411, 01025 (2023).
16. Sh.H. Ergashev, T.A. Fayziev, A.A. Khusenov. Mathematical modeling of heat regime of underground heat accumulator. AIP Conference Proceedings, 2612, 030019 (2023).


ISSN 3030-3907

# TO‘QIMACHILIK SANOATIDA YASHIL TRANSFORMATSIYA VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH STRATEGIYALARI

**Do‘stqobilov Ulug`bek Ibroximovich**
*Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Tayanch doktorant*
*Tel.: +998 97 330 98 93*
*E-mail: dustkobilovulugbek@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiyani amalga oshirish va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda energiya tejash texnologiyalari, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish usullari, sifat menejmenti tizimlari (ISO 9001, Kaizen, Lean) va ularning iqtisodiy samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining CBAM mexanizmi va uning O‘zbekiston eksportchilari uchun yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan uglerod solig‘i xavflari o‘rganilgan. Maqolada 2025 yil yakunlari bo‘yicha eksport hajmi 2,5 mlrd dollarga yetgan, 623 ming kishi band bo‘lgan tarmoqning 2028 yilga mo‘ljallangan 7 mlrd dollarlik eksport maqsadiga erishish strategiyalari taklif etiladi. Muallif yashil o‘tishni nafaqat ekologik majburiyat, balki uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiruvchi investitsiya sifatida baholaydi. Xulosa qilib, maqolada klasterlararo hamkorlik, kadrlar malakasini oshirish va qayta tiklanadigan energiyaga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil transformatsiya, CBAM, NABC-metod, ISO 9001, Kaizen, to‘qimachilik sanoati, barqaror rivojlanish.

**Аннотация.** В статье рассматриваются основные направления «зеленой» трансформации и повышения конкурентоспособности текстильной промышленности Узбекистана. Анализируются технологии энергосбережения, методы оптимизации производственных процессов, системы менеджмента качества (ISO 9001, Kaizen, Lean) и их экономическая эффективность. Особое внимание уделяется механизму CBAM Европейского союза и возможным рискам введения углеродного налога для узбекских экспортеров. Приведены актуальные статистические данные: объем экспорта в 2025 году достиг 2,5 млрд долл., в отрасли занято 623 тыс. человек. Предложены стратегии достижения целевого показателя экспорта в 7 млрд долл. к 2028 году. Автор обосновывает, что «зеленый» переход — это не только экологическое требование, но и долгосрочная инвестиция, обеспечивающая доступ на международные рынки. В заключение даются практические рекомендации по развитию межкластерной кооперации, повышению квалификации кадров и постепенному переходу на возобновляемые источники энергии.


ISSN 3030-3907

**Ключевые слова:** зеленая трансформация, CBAM, энергоэффективность, текстильная промышленность, Kaizen, ISO 9001, конкурентоспособность

**Abstract.** This article examines the key directions of green transformation and competitiveness enhancement in Uzbekistan's textile industry. The study analyzes energy-saving technologies, production process optimization methods, quality management systems (ISO 9001, Kaizen, Lean), and their economic impact. Particular attention is given to the EU's Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM) and the potential carbon tax risks for Uzbek exporters. The paper presents current statistical data: export volume reached USD 2.5 billion in 2025, with 623 thousand people employed in the sector. Strategies for achieving the targeted USD 7 billion export goal by 2028 are proposed. The author argues that green transition is not merely an environmental obligation but a long-term investment that ensures access to international markets. Practical recommendations are provided on inter-cluster cooperation, workforce skill development, and gradual adoption of renewable energy sources.

**Keywords:** green transformation, CBAM, energy efficiency, textile industry, Kaizen, ISO 9001, competitiveness.

**KIRISH.**

XXI asr boshlaridagi global iqlim inqirozi va resurslar tanqisligi to‘qimachilik sanoatini tubdan qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda. Jahon to‘qimachilik sanoati yiliga taxminan 93 milliard kubometr suv sarflab, global sanoat chiqindi suvlarining 20% ini hosil qiladi; CO2 emissiyalari bo‘yicha esa aviatsiya va dengiz transporti yig‘indisidan ham ko‘proq ifloslantiradi. Bu raqamlar «yashil transformatsiya» tushunchasini abstrakt siyosat hujjatidan real ishlab chiqarish zaruriyatiga aylantirdi. Barqaror ishlab chiqarishga o‘tmagan korxonalar uchun xalqaro bozorlarga kirish tobora qiyinlashmoqda: xaridorlar, hukumatlar va moliyalashtiruvchi tashkilotlar bu talabni shartnoma majburiyatiga aylantirib bo‘ldi [1].

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati uchun bu masala ayniqsa dolzarbdir. Respublika 2025 yilda 2,5 milliard dollar eksport qildi va 2028 yilga qadar bu ko‘rsatkichni 7 milliard dollarga yetkazishni rejalashtirmoqda — ya'ni uch yil ichida eksportni uch baravar oshirish lozim. Biroq asosiy eksport bozori — Yevropa Ittifoqi — CBAM mexanizmi orqali uglerod zahira moslashtirish talabini joriy qildi. Yevropa standartlarini bajarolmaydigan yetkazib beruvchilar import imtiyozlarini yo‘qotishi yoki qo‘shimcha «uglerod solig‘i» to‘lashi muqarrar. Bundan tashqari, yirik xalqaro brendlar — H&M, Zara, Primark kabi kompaniyalar — o‘z ta'minotchilaridan 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiyaga to‘liq o‘tishni talab qila boshladi. Bu esa O‘zbekiston korxonalari uchun yashil o‘tishni orqaga surib bo‘lmaydigan strategik ustuvorlikka aylantirmoqda [2].


ISSN 3030-3907

Ushbu maqola iqtisodiy rivojlanish va ekologik javobgarlikni bir-biriga zid deb emas, aksincha, o‘zaro to‘ldiruvchi jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, energiya samaradorligiga qilingan har bir dollar investitsiya o‘rtacha 2,5 dollar tejash imkonini beradi; sifat menejmenti tizimlari mahsulot nuqsonlarini 30–50% kamaytiradi; kooperativ tarmoqlarga kirishgan korxonalar yangi bozorlarga chiqishda yolg‘iz faoliyat yuritayotgan raqobatchilariga nisbatan 40% kam xarajat sarflaydi. Demak, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining kelajagi — raqobatbardoshlik va barqarorlikni birgalikda ta'minlaydigan «yashil transformatsiya» modelini qanchalik tez va izchil joriy eta olishga bog‘liq [3].

Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati global iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik muammolariga duch kelmoqda. Zamonaviy tadqiqotchilar barqarorlikning uchta asosiy qirrasini ajratib ko‘rsatadilar:

• Ekologik barqarorlik — biosfera va atmosferaning funksional holatini saqlab qolish;

• Iqtisodiy barqarorlik — salbiy ta'sirlarsiz uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta'minlash;

• Ijtimoiy barqarorlik — inklyuzivlik, tenglik va ijtimoiy hamjihatlik asosidagi jamiyatni shakllantirish.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati so‘nggi yillarda ulkan o‘zgarishlarga uchradi: 2025 yilda eksport hajmi 2,5 milliard dollarga yetdi, 623 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Biroq yashil transformatsiya talablari nafaqat imkoniyat, balki majburiyatga aylanmoqda. O‘zbekiston 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya ulushini 40% ga yetkazish va CO2 emissiyasini 34 Mt ga kamaytirish maqsadini belgilagan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.**

To‘qimachilik sanoati global ekologik muammolarning markazida turadi. Leal Filho va boshq. o‘tkazgan keng ko‘lamli tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoati yiliga 93 milliard kubometr suv iste’mol qilib, global sanoat chiqindi suvlarining 20% ini hosil qiladi va uglerod chiqindilarining sezilarli ulushini tashkil etadi. Ushbu raqamlar to‘qimachilik korxonalari uchun yashil transformatsiyani majburiy va shoshilinch masalaga aylantirib qo‘ydi.

Xitoy to‘qimachilik sanoatining o‘n yillik ma'lumotlari asosida olib borilgan tadqiqotda yashil texnologiya innovatsiyasi samaradorligi o‘lchangan va System-GMM baholash usuli qo‘llangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aylanma iqtisodiyot, yashil energiya va resurs samaradorligi o‘rtasidagi sinergiya uglerod neytralligiga erishishning eng real yo‘lidir. Bundan tashqari, ekologik tartibga


ISSN 3030-3907

solish siyosati to‘qimachilik korxonalarini yashil transformatsiyaga undashning asosiy vositasi sifatida belgilangan [4].

YeI Uglerod Chegarasini Tartibga Solish Mexanizmi (CBAM) so‘nggi yillarda akademik muhitda jiddiy munozara mavzusiga aylandi. Beaufils va boshq. tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda CBAM ning turli amalga oshirish variantlari va ularning savdo hamkorlariga ta'siri miqdoriy jihatdan baholangan. Mualliflar CBAM ning qurilma dizayni sifat jihatidan muhimligini ta'kidlab, uglerod boji stavkasi va qamrab olinadigan mahsulotlar ro‘yxatining kenglik darajasiga qarab ta'sir kuchining sezilarli farq qilishini ko‘rsatadi [5].

O‘rta Dengiz havzasi mamlakatlari misolida CBAM ni tahlil qilgan tadqiqotda «Umumiy ammo Tabaqalashtirilgan Mas'uliyat» (CBDR) tamoyili nuqtai nazaridan CBAM tizimiga tanqidiy baho beriladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Energiya xarajatlari to‘qimachilik ishlab chiqarishining asosiy xarajat moddalaridan biri. Quyida to‘qimachilik sanoatidagi asosiy energiya tejash sohalari va ularning ahamiyati ko‘rsatilgan (1-rasmga qarang).

To'qimachilik sanoatida energiya tejash imkoniyatlari

| Chora-tadbir | Energiya tejash imkoniyati | To'qimachilikdagi ahamiyati |
|---|---|---|
| Yoritish | 25–30% | Juda yuqori |
| Isitish | 23–26% | Juda yuqori |
| Issiq suv ta'minoti | 22–24% | Yuqori |
| Jarayonni optimallashtirish | 20–30% | Yuqori |
| Dvigatellar | 10–11% | O'rtacha |
| Siqilgan havo | 20–24% | O'rtacha |
| Chiqarish tizimlari | 15–20% | O'rtacha |
| Bino izolyatsiyasi | 23–24% | Past |
| Konditsioner | 7–8% | Juda past |

Manba: energieeffizienz-im-betrieb.net; Marc Bovenschulte seminar taqdimoti, Toshkent, 2024

Juda yuqori | Yuqori | O'rtacha | Past


Tahlil:
Jadvaldan ko'rinib turibdiki, to'qimachilik korxonalarida eng katta energiya tejash salohiyati yoritish (25–30%) va isitish (23–26%) sohalarida — ular ustuvor investitsiya yo'nalishi hisoblanadi.

**1-rasm. To‘qimachilik sanoatidagi asosiy energiya tejash sohalari**

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik korxonalarida energiya tejashning eng katta salohiyati yoritish (25–30%) va isitish (23–26%) sohalarida to‘plangan bo‘lib, bu ikki yo‘nalish birgalikda umumiy energiya sarfining


ISSN 3030-3907

yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi va "juda yuqori" ahamiyat darajasiga ega. Shu bilan birga, jarayonni optimallashtirish (20–30%) va issiq suv ta'minoti (22–24%) ham yuqori tejash imkoniyatini taqdim etadi. Qiziqarli jihat shundaki, bino izolyatsiyasi 23–24% kabi nisbatan yuqori tejash ko‘rsatkichiga ega bo‘lsa-da, to‘qimachilik sanoatida uning amaliy ahamiyati "past" deb baholangan — bu ko‘chmas mulk xarajatlarining ijarachi korxonalarga ta'siri kam bo‘lishi bilan izohlanadi. Siqilgan havo tizimlari (20–24%) va chiqarish tizimlari (15–20%) esa o‘rtacha ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan, ularning umumiy tejash salohiyati sezilarli — ayniqsa siqilgan havo tizimlarida sizotlarni bartaraf etish minimal kapital xarajat evaziga to‘qimachilik korxonalarida tezkor samara berishi ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta tasdiqlangan. Xulosa qilib aytganda, to‘qimachilik korxonalari uchun eng rentabel yo‘nalish — LED yoritish va infraqizil isitish tizimlariga investitsiya qilish bo‘lib, bu chora bir vaqtning o‘zida ham yuqori tejash ko‘rsatkichini, ham tezkor o‘zini qoplashni ta'minlaydi [6].




Manba: energieeffizienz-im-betrieb.net; CCC Industrial Software; Marc Bovenschulte seminar taqdimoti, Toshkent 2024

**2-rasm. To‘qimachilik sanoatidagi energiya tejash imkoniyatlari jadvali. Manba: Marc Bovenschulte seminar taqdimoti, Toshkent 2024**

**1-jadval**

**O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati — asosiy ko‘rsatkichlar (2025)**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **$2.5 mlrd** Eksport hajmi (2025) | **623 ming** Band bo‘lgan xodimlar | **$2.1 mlrd** Xorijiy investitsiyalar | **$7 mlrd** Eksport maqsadi (2028) |

Manba: O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasi manbasi, 2025 yil dekabr

An'anaviy yoritish tizimlarini LED texnologiyasiga o‘tkazish va harakatni aniqlovchi sensorlar o‘rnatish korxonalarda elektr energiyasi sarfini 40–60% gacha kamaytirish imkonini beradi. Infraqizil nurlanish asosidagi shiftli isitish panellari



ISSN 3030-3907

havoni emas, balki bevosita ish joylari va uskunalarni isitadi — bu esa energiya samaradorligini yanada oshiradi [7]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eskirgan va noto‘g‘ri texnik xizmat ko‘rsatilayotgan uskunalar zamonaviy uskunalarga nisbatan 40% gacha ko‘proq energiya sarflaydi. Ayniqsa ikki muammo alohida e'tiborni talab qiladi:

• **Siqilgan havo tizimlari:** sizot yo‘qotishlari ishlab chiqarilgan hajmning 10–30% ini tashkil etishi mumkin; 80% kompaniyada eng zaif zveno — tarqatish tizimi.

• **Mexanik tizimlar:** yeyilgan podshipniklar tufayli titrash va ishqalanish natijasida vujudga keladigan issiqlik qo‘shimcha energiya sarfiga olib keladi.

To‘qimachilik ishlab chiqarishida jarayonlarni optimallashtirish uchun jahon amaliyotida sinovdan o‘tgan metodologiyalar mavjud. Lean Manufacturing, Six Sigma, Kaizen va Value Stream Mapping kabi yondashuvlar nafaqat mahsuldorlikni oshiradi, balki resurslardan oqilona foydalanishga ham yordam beradi. Ularning zamirida ISO 9001 standarti asosidagi PDCA sikli yotadi (3-rasmga qarang).




**3-rasm. Doimiy takomillashtirish jarayoni: Plan-Do-Check-Act (PDCA) sikli. Manba: Marc Bovenschulte seminar taqdimoti, Toshkent 2024**

Lean Manufacturing — ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida isrofgarchilikni bartaraf etish;
Six Sigma — jarayon tebranishlarini kamaytirish va barqarorligini oshirish;
Kaizen — kichik, bosqichma-bosqich o‘zgarishlar orqali doimiy yaxshilanish;
Avtomatlashtirish — ishlab chiqarish tezligi va sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Lean Manufacturing — Bangladesh va Vyetnam tajribasi. Lean Manufacturing metodologiyasining to‘qimachilik sanoatida qo‘llanilishining eng


ISSN 3030-3907

yorqin namunasi Bangladeshning yirik eksportchi korxonasi DBL Group hisoblanadi. Kompaniya 2015-yilda Lean vositalarini — xususan, Value Stream Mapping va 5S tizimini — to‘liq joriy etgach, bir dona mahsulot tayyorlash tsikli (lead time) 12 kundan 7 kunga tushdi, nuqsonli mahsulotlar ulushi esa 3,2% dan 0,8% gacha kamaydi. Boshqa misol — Vyetnamning Phong Phu Textile Corporation korxonasi bo‘lib, u Lean joriy etganidan so‘ng to‘qimachilik bo‘limida ortiqcha inventar xarajatlarini 35% ga qisqartirdi va ishchilar unumdorligini yiliga o‘rtacha 22% oshirdi. Ikkinchi jahon amaliyotini umumlashtirgan tadqiqot (Springer, *International Journal of Advanced Manufacturing Technology*, 2026) shuni ko‘rsatadiki, Lean vositalarini izchil qo‘llagan to‘qimachilik va tikuvchilik korxonalarida mahsuldorlik o‘rtacha 20–35% ga oshgan, sifat nuqsonlari esa yarmiga qisqargan [8].

*Six Sigma — Hindiston va Xitoy tajribasi*. Six Sigma metodologiyasining to‘qimachilikdagi eng mashhur muvaffaqiyat namunasi Hindistonning Arvind Mills kompaniyasidir — u dunyoning eng yirik denim ishlab chiqaruvchilaridan biri. Arvind Mills Six Sigma loyihalari orqali bo‘yash jarayonidagi rang notekisligi nuqsonlarini 68% ga kamaytirdi, suv sarfini esa bir metr mato uchun 18 litrdan 11 litrga tushirdi — bu yiliga millionlab dollar va ko‘plab suv resurslarini tejash demakdir. Xitoyning Luthai Textile Co. esa Six Sigma va statistik jarayon nazoratini (SPC) birikmasidan foydalanib, iplik uzilish koeffitsientini 42% kamaytirdi hamda 2019–2022 yillar oralig‘ida yiliga taxminan 4 million dollar miqdorida chiqindi xarajatlarini qisqartirdi. Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, Six Sigma to‘qimachilik jarayonlarining o‘ziga xos murakkabligiga — ayniqsa bo‘yash, pardozlash va sifat nazorati bosqichlariga — juda mos keladi.

*Kaizen — Yaponiya va Efiopiya tajribasi*. Yaponiyaning Fast Retailing Group tarkibidagi Uniqlo brendi Kaizen falsafasini o‘zining Bangladesh va Xitoyda joylashgan 200 dan ortiq ishlab chiqarish sheriklarida "Takumi" (usta hunarmand) dasturi orqali joriy etdi: har bir smenada kamida uchta kichik takomillashtirish taklifi kiritish majburiy qilindi. Natijada 2018–2022 yillar oralig‘ida ortiqcha mato chiqindilari 30% ga kamaydi, tikish tsikli vaqti esa o‘rtacha 18% qisqardi. Efiopiyada esa Kaizen hukumat sanoat dasturi sifatida to‘qimachilik zavodlariga joriy etildi — GTex va Almeda Textile kabi korxonalarda olib borilgan tadqiqotlar mehnat unumdorligini 35% gacha oshirgani va ishdan ketish (turnover) darajasini sezilarli kamaytirgani qayd etildi (Hailu, Sibhato & Tsegay, 2023). Ushbu ikki tajriba shuni isbotlaydiki, Kaizen madaniyati nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlar to‘qimachilik klasterlari uchun ham xarajatsiz yoki minimal investitsiya bilan yuqori samara beradigan strategiyadir.


ISSN 3030-3907

*Avtomatlashtirish - Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi*. Avtomatlashtirish sohasida to‘qimachilik sanoatiga eng katta hissa qo‘shgan kompaniyalardan biri Germaniyaning Karl Mayer Textilmaschinenfabrik GmbH bo‘lib, u ishlab chiqargan to‘r-to‘qimachilik mashinalari (warp knitting machines) bugungi kunda 60 dan ortiq mamlakatda qo‘llaniladi. Karl Mayer 2020-yilda ishga tushirgan "Digital Solutions" platformasi to‘qimachilik zavodlarida to‘qish parametrlarini real vaqt rejimida nazorat qilish va nuqsonlarni sun'iy intellekt orqali avtomatik aniqlash imkonini berdi — sinov korxonalarida nuqsonlarni aniqlash aniqligi 94% ga yetdi, texnik xizmat xarajatlari esa 27% kamaydi. Janubiy Koreyadagi Hyosung TNC Corporation esa spandeks va nylon ishlab chiqarishni to‘liq avtomatlashtirgan bo‘lib, inson aralashuvisiz ishlaydigan "dark factory" (qorong‘u zavod) kontseptsiyasini joriy etdi — bu esa bir smenada ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirdi va energiya sarfini 31% kamaytirdi. Mazkur tajribalar O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari uchun ham yo‘l ko‘rsatadi: avtomatlashtirish dastlab eng ko‘p mehnat va energiya talab qiladigan bo‘yash hamda sifat nazorati bosqichlaridan boshlansa, investitsiya qaytish muddati sezilarli qisqaradi.


ISO 9001 bo‘yicha «sifat» — eng yaxshi mahsulot emas, balki eng yuqori mijoz qoniqishini ta'minlash demakdir. Bu tushuncha emissiya kamaytirishni ham o‘z ichiga olishi mumkin — ya'ni ekologik maqsad va biznes maqsad bir-birini to‘ldiradi [9].

O‘zbekiston uchun CBAM mexanizmi ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi (4-rasmga qarang). Bir tomondan, mamlakatning global emissiyalardagi ulushi atigi 0.33% ni tashkil etib, u kichik emitent hisoblanadi — ammo boshqa tomondan, energetika sektori ichki emissiyalarning 76.3% ini hosil qilmoqda, bu esa mahalliy ishlab chiqarish uglerod intensivligining yuqoriligini ko‘rsatadi. Aynan mana shu tafovut O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarini xalqaro bozorda noqulay holatga qo‘yadi: eksport hajmi kichik bo‘lishiga qaramay, har bir birlik mahsulot uchun uglerod izi katta bo‘lgani sababli CBAM narxi yuqori chiqishi muqarrar.

Scope darajalari nuqtai nazaridan esa O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari uchun eng dolzarb muammo — Scope 2, ya'ni tashqaridan sotib olinadigan elektr energiyasi emissiyalari. Mamlakat elektr energiyasining asosiy qismi hali ham gaz va ko‘mirdan ishlab chiqarilayotgani sababli, korxona o‘z uskunalarini qanchalik samarali boshqarmasin, uning Scope 2 ko‘rsatkichi avtomatik ravishda yuqori bo‘lib qoladi. Shu sababli hukumatning 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya ulushini 40% ga yetkazish maqsadi nafaqat ekologik, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport raqobatbardoshligini saqlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Hozircha CBAM to‘qimachilik mahsulotlarini qamrab


ISSN 3030-3907

olmasa-da, uning kengayishi muqarrar deb hisoblanayotgani va O‘zbekistonning 2028 yilga qadar eksportni 7 milliard dollarga yetkazish rejasi mavjudligini inobatga olsak, korxonalar bu o‘zgarishga hozirdan Scope 1, 2 va 3 bo‘yicha emissiyalarni hisoblash va kamaytirish chora-tadbirlarini boshlash orqali tayyorgarlik ko‘rishlari zarur.




**4-rasm. CBAM mexanizmi**

O‘zbekiston to‘qimachilik eksporti uchun Yevropa Ittifoqi bozori strategik ahamiyat kasb etadi. Biroq YeI yangi mexanizm — CBAM (Carbon Border Adjustment Mechanism) ni joriy qildi:


CBAM — YeI bozoriga kiritilayotgan yuqori uglerod sig‘imiga ega mahsulotlar ishlab chiqarishida chiqarilgan uglerod uchun adolatli narx belgilash


ISSN 3030-3907

mexanizmi. Emissiya hisoboti uch darajada amalga oshiriladi: **Scope 1** (korxona ichidagi bevosita emissiyalar), **Scope 2** (sotib olingan energiyadan bilvosita emissiyalar), **Scope 3** (ta'minotchilar, logistika va iste'molchilarga bog'liq barcha emissiyalar).

O'zbekiston hukumati 2025 yilda uglerod emissiyasini tartibga soluvchi qonun qabul qildi va uglerod savdo tizimini yo'lga qo'ydi. Hozircha CBAM sement, temir va po'lat, alyuminiy, o'g'it, elektr energiyasi va vodorodga nisbatan qo'llanilmoqda — ammo to'qimachilik mahsulotlari ham ushbu ro'yxatga kiritilishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun korxonalar bu o'zgarishlarga hozirdan tayyorlanishi zarur.

To'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish uchun uchta asosiy yo'nalish mavjud: ish va jarayon tashkiloti (moslashuvchanlik), malakali xodimlar (bilim) va kooperatsiya (tashqi hamkorlik). Kooperativ tarmoqning ustunliklari quyida ko'rsatilgan (5-rasmga qarang).




**5-rasm. Hamkorlik tarmoqlari va ularning afzalliklari. Manba: Marc Bovenschulte seminar taqdimoti, Toshkent 2024**


ISSN 3030-3907




**6-rasm. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati — rivojlanish ko‘rsatkichlari**

• Yangi bilim va texnologiyalarga kirish imkoniyati;
• Risklarni taqsimlash va birgalikda yuklashlarni kamaytirish;
• Yangi bozorga kirish imkoniyatlari;
• Umumiy manfaatlar asosida kuch to‘plash va ixtisoslashgan xizmatlar.

O‘zbekiston to‘qimachilik klasterlari kooperativ tarmoqlarni shakllantirishda katta salohiyatga ega. Mintaqaviy klasterlar doirasidagi hamkorlik — texnologiya, marketing va eksport masalalarida birgalikda harakat qilish — global bozorda raqobatbardoshlikni keskin oshirishi mumkin.

**XULOSA VA TAVSIYALAR.**

Taqdim etilgan material va statistik ko‘rsatkichlar asosida O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari uchun quyidagi asosiy tavsiyalar shakllantirish mumkin:

• Energiya tejash investitsiyalari — LED yoritish, siqilgan havo tizimlarini modernizatsiya qilish va muntazam texnik xizmat orqali energiya xarajatlarini 30–40% kamaytirish. Hukumatning 10% energiya kamaytirish mandatini bajarish ham majburiy.

• ISO 9001 va Kaizen joriy qilish — sifat menejmenti tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish mahsulot sifatini oshiradi va xalqaro sertifikatlashtirish uchun yo‘l ochadi.

• CBAM talablariga erta tayyorlanish — Scope 1/2/3 emissiyalarini hozirdanoq hisoblash va kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish. O‘zbekiston 2025 yilda uglerod bozori tizimini yaratdi — bu korxonalar uchun ham imkoniyat, ham mas'uliyat.

• Kooperatsiya va klaster rivojlantirish — 2028 yilgacha $7 milliard eksport maqsadiga erishish uchun klasterlar doirasida birgalikda harakat qilish zarur.


ISSN 3030-3907

• Kadrlar malakasini oshirish — zamonaviy texnologiyalar, energiya menejmenti va sifat standartlari bo‘yicha muntazam o‘qitish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

• Qayta tiklanadigan energiyaga o‘tish — O‘zbekiston 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya ulushini 40% ga yetkazishni rejalashtirmoqda. To‘qimachilik korxonalari quyosh panellari va boshqa manbalarga investitsiya qilib, bu maqsadga hissa qo‘shishi va o‘z energiya xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Yashil transformatsiya — bu faqat xarajat emas, balki kelajakdagi bozor imkoniyatlariga investitsiya. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati ushbu o‘zgarishlarga faol kirishgan taqdirda, u nafaqat mahalliy, balki global bozorda ham kuchli o‘rin egallay oladi. $7 milliardlik eksport maqsadiga erishish va 650 ming kishini ish bilan ta'minlash rejasi barqaror va yashil ishlab chiqarishsiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasi. Eksport va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari. Toshkent, 2025.
2. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. 2025.
3. Enerdata. Uzbekistan Energy Information. 2024.
4. Energieeffizienz im Betrieb. Energiesparen Textilindustrie. URL: https://www.energieeffizienz-im-betrieb.net
5. CCC Industrial Software. Energieeffizienz durch Instandhaltung. URL: https://blog.ccc-industriesoftware.de
6. Stanford Research Institute. NABC Method. URL: https://web.stanford.edu/class/educ303x/wiki-old/uploads/Main/SRI_NABC.doc
7. European Commission. Carbon Border Adjustment Mechanism. URL: https://taxation-customs.ec.europa.eu
8. USDA FAS. Uzbekistan Cotton and Products Update. 2024.
9. Bovenschulte, M. Business development for green transformation. Seminar materials. Toshkent, 2024.


ISSN 3030-3907

# METHODOLOGY FOR PREPARING THE COMPOSITION OF FOAM CONCRETE MIXTURES

**Turapov Farxod Khursanovich**
***TSUEA senior lecturer***
***E-mail. farkhodturapov@mail.ru***
**Rajabov Ramozon Shukhratovich**
***TSUEA assistant lecturer***
**Majidov Samariddin Rashidovich**
***TUACE dotsent***
**Boymurodova Aziza Otabekovna**
***TSUEA student***
***Tel:+99891-229-75-75.***

**Annotatsiya.** Xozirgi kunda zamonaviy konstruksiya va buyumlarni tayorlashda, asosan, yengil qurilish ashyolari keng ishlatilmoqda. Masalan, binoni qurishda og‘ir beton o‘rniga yengil issiqlik izolyatsiyalovchi betonlarni ishlatish binoning umumiy og‘irligini 5 marta kamaytirishi mumkin, natijada bino uchun sarflanadigan umumiy mablag‘ ham tejaladi.

**Kalit so‘zlar:** tarkib, ko‘pik aralashma, issiqliq himoyalovchi, ko‘pik xosil qiluvchi, urbanizatiya, kompleks qo‘shimcha, sanoat chiqdisi, metalugiya shlagi, ikkilamchi.

**Аннотация.** В настоящее время при изготовлении современных конструкций и изделий широко используются в основном лёгкие строительные материалы. Например, при строительстве здания использование лёгких теплоизоляционных бетонов вместо тяжёлого бетона позволяет уменьшить общий вес здания в 5 раз, в результате чего также снижаются общие затраты на строительство.

**Ключевые слова:** состав, пенообразная смесь, теплоизоляционный, пенообразователь, урбанизация, комплексная добавка, промышленные отходы, металлургический шлак, вторичный.

**Annotation.** Nowadays, lightweight building materials are widely used in the design of modern structures and products. For example, the use of light thermal insulation concrete instead of heavy concrete can reduce the total weight of the building by 5 times, thus saving the overall cost of the building.

**Keywords:** composition, foam mixture, heat insulator, foam generator, urbanization, complex additive, industrial output, metallurgical slag, secondary.

## INTRODUCTION.

Foam concrete prepared from a foam concrete mixture of poor quality, although it has the required density, its strength indicators are still low. The reason for this is considered to be the formation of some negative defects by the gas phase

during the bonding of particles of the solid dispersed phase in the process of forming a stone-like structure. These include the following:

-the beginning of the process of water separation in the lower part of the foam-like mass during the molding and initial forming process;

-the enlargement of pores due to coalescence;

-the process of separation of the mixture into layers.




**Figure 1. Mixer, compressor and foam generator equipment for the production of foam concrete.**

**Analysis of raw materials:** To determine the optimal amount of the foaming agent, a sand-cement liquid mixture is prepared. The amount of water must be greater than the volume of physically bound water. The process of the most active interaction of water molecules with solid dispersed particles (physically and chemically bound water) occurs within the first 5–10 minutes after adding water. After 20 minutes, the sand-cement liquid mixture is loaded into the mixer. The required amount of foaming agent is added into the mixer. Then, the preparation process of the foam concrete mixture is carried out in a mixer operating in a turbulent mode. Extending the mixing process beyond 10 minutes leads to the settling of the foam concrete mixture. Therefore, it is generally considered possible to evaluate the quality of the foam concrete mixture after 3 minutes of mixing. A sample is taken from the prepared mixture, and the mass and average density of the mixture are determined. For visual evaluation, the mixture is placed into a glass container or photo fixation may be used. Visual observation is continued from the moment the mixture is placed into the container until the end of the setting time. The foaming agent is added to the remaining mixture in the mixer for the next stage, and the subsequent mixing process is carried out, and another sample is taken in


ISSN 3030-3907

the same manner. The sampling process continues until the foam concrete mixture reaches the minimum density (at the specified S:Q:S ratio).

**Stability of foam mass**

One of the main properties of a stable mass is its resistance to mechanical influence. Such a property is described by Gibbs as follows:

$$E = 2\frac{dy}{d\ln A},$$

Bu Here A - is the area of the film,

y- is the surface tension.

For a two-component system, the equation is expressed by Adamson in the following form:

$$e = 4(G_2^1)^2\, d\mu_2/dm^2$$

Here $G_2^1$ is the surface excess of component 2;

$\mu_2$ - the chemical potential of this component;

$M^2$ – the amount per unit area of the film.

“E” characterizes the ability of the foam mass to change its surface tension under the influence of stretching or compressive forces. When the surface tension is stretched, the concentration of the surfactant in the film decreases, as a result the surface tension increases and prevents the destruction of the film. Only when both $G_2^1$ and $d\mu_2/dm_2$are sufficiently large at the same time, as shown in the above equation, can the value of E be high. The surface-active concentration of this substance must be high, but not too high, i.e., the composition of the foaming agent must be optimal.tarkibi optimal bo‘lishi kerak.




**Figure 2. Shapes of pores in foam concrete**

High-quality products can be obtained with stable foam. If foam collapse occurs before setting, the average density of the material increases significantly and the structure of the material becomes non-standard, which is an undesirable condition. When additives are introduced, coagulation and heterocoagulation may occur. In technology, foam concrete reflects the role of cement. At this time, the main minerals responsible for the development kinetics of time and strength, which determine the design strength, are said to be tricalcium silicate $C_3S$ (alite) and


ISSN 3030-3907

tricalcium aluminate $C_3S$. These minerals release heat during the hydration process, especially in the early stages of hardening. The content of tricalcium silicate C3S in clinker can vary from 45 to 68%. The higher the content of $C_3S$, the higher the strength and durability of the product. A high amount of tricalcium aluminate accelerates cement hardening in the initial period up to 2 days.

The presence of surfactants in the foam-cement system changes the hydration properties of cement. According to the effectiveness of surfactants on the properties of concrete, the authors divided all cements into groups: Group 1 – $C_3A$ < 6%, $C_3A$ > 50%; Group 2 – $C_3A$ 7–10%, $C_3A$ > 40%; Group 3 – $C_3A$ > 10%, $C_3A$ < 40%. According to the results of the authors' studies, this grouping is applicable to cements used in the production of foam concrete. The most effective for use in foam concrete technology are Group 1 cements. In the cements of this group, the high content of alite determines the high strength of the cement stone in the inter-pore framework, faster setting, and rapid heat release during hydration.

The cements of the third group have low efficiency. In the presence of foaming agents based on synthetic anionic surfactants in $C_3A$ particles, hemasorption processes occur actively, as a result of which the foam mass collapses and consequently the density of the final products increases. In such cases, manufacturers increase the consumption of foaming agents, which leads to another negative effect: "poisoning" of active centers on the surface of minerals and a delay in setting time [22]. It has been determined that the coagulation stability of the cement + foaming agent system depends on the charges of the functional groups of surfactants and the ratio of cement particles.

**RESEARCH METHOD.** after 28 days of natural curing or steam curing, the samples are removed from the molds, dried at a temperature of 105–110°C to constant weight, and tested (the average density and compressive strength limit are determined). The average density of foam concrete is determined by the following formula:

$$\rho = \frac{m}{V}$$

Here m – the mass of the sample, kg; V - the volume of the sample, $m^3$.

The strength of materials is determined by compressing sample cubes in a press until they are crushed. The supporting edges must be selected in such a way that during testing the compressive force is directed perpendicular to the forms filled with the foam concrete mixture, then marked, and the linear dimensions of the working area are measured with an error of no more than 1%.

During the compression test, the test specimen is placed with one selected edge on the lower base plate of the press (Figure 3) or at the center of the testing


ISSN 3030-3907

machine. After that, the upper supporting edge of the test specimen on the upper base plate of the press is positioned so that their surfaces fully coincide with each other. Then loading is started. The loading of the specimens is carried out continuously at a rate ensuring complete failure of the specimens (0.6 ± 0.4 MPa/s). In this case, the loading time for one specimen must be at least 30 s. The maximum force achieved during the test is taken as the breaking load.



**Figure 3. Diagram of a hydraulic press adapted for testing compressive strength: 1 – base; 2 – piston; 3, 5 – lower and upper supporting plates; 4 – test specimen; 6 – hand wheel for manual lifting of the upper plate; 7 – force measuring device; 8 – oil pump.**





**Figure 4. Effect of fly ash on the flexural strength of cement**

**This graph shows the effect of industrial waste fly ash on the compressive strength of cement.**


ISSN 3030-3907





**Figure 5. Effect of fly ash and cement on compressive strength**

**CONCLUSION.** Undoubtedly, the optimal composition of the foaming agent is one of the main factors influencing the construction-technological properties of foam concrete. Thus, its compositional deficiency does not ensure the required density of concrete, and a high consumption of foaming agent may lead to a slowing down of the cement system hardening process.

At the same time, under conditions related to an increase in free water in their composition and an increase in the content of the foaming agent per unit of binder, the preservation of the cellular structure of low-density foam concrete is disturbed, which slows down the formation process of the foam concrete mixture system.

In addition to equilibrium or reversible processes, some transient processes may affect the elastic resistance of the film. The surface of the film has relatively high surface tension.

Surfactants, if spread over the surface of the film for a short time, can change the locally initial surface tension of the forming thin film in a short time before the film becomes thinner.

Thus, changes in surface tension are eliminated without reducing the initial thickness of the film, and for some time this region of the film remains mechanically weak. Adamson concluded that good foaming agents should be slowly adsorbed on the surface (on a millisecond scale). It is known that some foaming agents may be incompatible with certain types of binders, as well as with some chemical and mineral modifiers.

When selecting the optimal type of foaming agent, some of them may be incompatible with the accepted type of binder, as a result of which various negative


ISSN 3030-3907

phenomena occur, especially foam collapse. For example, a foaming agent made from amine oxide leads to coagulation of Portland cement particles with the formation of large aggregates, which leads to a significant decrease in the strength and other construction-technological properties of foam concrete.

## LIST OF REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son ―2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni
2. Role of filler in porozed arbolt, TF Khursanovich Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (11), 1108-1109
3. Study of the physical-mechanical properties of foam-concrete, TF Khursanovich American Journal of Research in Humanities and Social Sciences 14, 26-30
4. Production of insulation boards based on crushed cotton and cement TF Khursanovich American Journal of Pedagogical and Educational Research 12, 232-235
5. Use of heat insulation wall materials in construction, FK Turapov American Journal of Technology and Applied Sciences 5, 27-30
6. Dry construction mixed for foam concrete TF Khursanovich Academicia Globe: Inderscience Research 3 (05), 201-204
7. Исследование влияния суперпластификаторов на физико-механические свойства бетона, ФХ Турапов, АК Холтаева Проблемы геологии и освоения недр, 477-478
8. Penobeton uchun xomashyolar tasnifi “Arxitektura-qurilish sohalarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning dolzarb muammolari”. -texnik konfrensiya, 2024-yil.
9. Sdj-1 qo‘shilgan sement toshining fizik-mexanik xossalari”World of science” republican scientific journal. -texnik jurnal, 2024-yil. 7.235
10. Gipslikeramzitbetonning innovasion texnologiyasi va iqtisodiy samaradorligi. “World of science” republican scientific journal. -texnik jurnal, 2024-yil. 7.235
11. Determination of technological parameters of peno-concrete based on local materials; Farkhod Turapov; Odina Abdumuminov; Abdukarim Abduraximov Preface: IV International Conference on Advances in Science, Engineering and Digital Education (ASEDU-IV 2024) Available to Purchase AIP Conf. Proc. 3268, 010001 (2025) https://doi.org/10.1063/12.0034596


ISSN 3030-3907

# QUYOSH BATAREYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI UTILIZATSIYA MUAMMOSINI OLDINI OLISH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-TAHLILIY ASOSLARI

**To‘rayev Dostonjon Erkin o‘g‘li**
*Qarshi xalqaro universiteti, fizika fani o‘qituvchisi*
*E-mail: dostonjonturayev147@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada quyosh batareyalarining xizmat muddati yakunlangandan keyingi utilizatsiya muammolarini kamaytirish va ularning hayotiy siklini uzaytirish masalalari bo‘yicha dunyo miqyosida olib borilgan 10 ta yetakchi ilmiy tadqiqot tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda qayta ishlash texnologiyalari, EVA qatlamini ajratish usullari, qimmatbaho materiallarni qayta tiklash, iqtisodiy samaradorlik hamda aylana iqtisodiyot tamoyillari qiyosiy baholanadi. Har bir manbaning ilmiy yutuqlari va cheklovlari aniqlanib, quyosh batareyalaridan samarali foydalanish orqali kelajakdagi chiqindi hajmini kamaytirishga qaratilgan integratsiyalashgan texnologik yechim taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** quyosh batareyasi, utilizatsiya, qayta ishlash, EVA, aylana iqtisodiyot, resurslarni qayta tiklash, ekologik xavfsizlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируются 10 ведущих научных исследований, проведенных по всему миру, посвященных решению проблем утилизации солнечных элементов после окончания срока их службы и продлению их жизненного цикла. В исследованиях сравниваются технологии переработки, методы разделения слоев ЭВА, извлечение ценных материалов, экономическая эффективность и принципы циркулярной экономики. Выявлены научные достижения и ограничения каждого источника, а также предложено комплексное технологическое решение для сокращения будущих отходов за счет эффективного использования солнечных элементов.

**Ключевые слова:** солнечные элементы, утилизация, переработка, ЭВА, циркулярная экономика, извлечение ресурсов, экологическая безопасность.

**Abstract.** This article analyzes 10 leading scientific studies conducted worldwide on reducing the disposal problems of solar cells after their service life and extending their life cycle. The studies compare recycling technologies, EVA layer separation methods, recovery of valuable materials, economic efficiency, and circular economy principles. The scientific achievements and limitations of each source are identified and an integrated technological solution is proposed to reduce future waste through the effective use of solar cells.

**Keywords:** solar cell, disposal, recycling, EVA, circular economy, resource recovery, environmental safety.

## KIRISH.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari orasida quyosh energetikasi eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. Biroq, quyosh batareyalari sonining keskin

ortishi yaqin kelajakda ularning xizmat muddati tugashi bilan bog‘liq katta hajmdagi chiqindilar muammosini yuzaga keltiradi. Xalqaro bashoratlarga ko‘ra, 2050-yilga borib dunyoda foydalanishdan chiqqan quyosh batareyalari chiqindilari 60–78 million tonnaga yetishi mumkin. Shu sababli, utilizatsiya muammosini faqat chiqindini qayta ishlash orqali emas, balki quyosh batareyalarining xizmat muddatini uzaytirish, qayta foydalanish va resurslarni maksimal darajada qayta tiklash orqali hal etish muhimdir.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Mazkur maqola Scopus va Web of Science bazalarida indekslangan 10 ta nufuzli ilmiy manbaning qiyosiy tahliliga asoslanadi. Tadqiqotlarda quyidagi mezonlar asosida baholash amalga oshirildi:

- texnologik samaradorlik;
- materiallarni qayta tiklash darajasi;
- iqtisodiy rentabellik;
- ekologik xavfsizlik;
- sanoat miqyosida qo‘llash imkoniyati.

**ASOSIY QISM.**

**1. Quyosh batareyalari chiqindilari muammosining global ko‘lami**

Chowdhury va hammualliflari (2020) o‘zlarining *“Forecasting Waste Generation from Solar Photovoltaic Systems”* nomli tadqiqotida quyosh batareyalari chiqindilarining eksponentsial o‘sishini matematik modellashtirgan. Mualliflar yaqin o‘n yilliklarda quyosh batareyalari chiqindilarining jadal ortishini ko‘rsatadi. Ushbu ishning yutug‘i – global bashoratlash modeli yaratilganidir. Kamchiligi esa hududiy farqlar va texnologik yangilanishlarning yetarlicha hisobga olinmaganidadir.

IRENA va IEA-PVPS (2023) hisobotida esa quyosh batareyalari chiqindilarini iqtisodiy resurs sifatida ko‘rish konsepsiyasi ilgari suriladi. Hisobotga ko‘ra, foydalanishdan chiqqan quyosh batareyalaridan milliardlab dollarlik ikkilamchi xomashyo olish mumkin.

**2. Qayta ishlash texnologiyalarining evolyutsiyasi**

Celep, Deveci va Yazici (2025) tomonidan tayyorlangan *“Advances in Photovoltaic Module Recycling Technologies: A Comprehensive Review”* maqolasi quyosh batareyalarini qayta ishlash usullarining eng batafsil sharhlaridan biridir. Mualliflar mexanik, termik, kimyoviy va gibrid texnologiyalarni qiyosiy tahlil qilgan.

Ularning xulosasiga ko‘ra, gibrid texnologiyalar eng yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, kremniy va kumushni yuqori tozalikka ega holda qayta tiklash imkoniyati muhim yutuq hisoblanadi. Biroq, jarayonning energiya sarfi yuqori bo‘lib qolmoqda.


ISSN 3030-3907

**3. EVA qatlamini ajratish muammosi**

Quyosh batareyalari qayta ishlashdagi eng murakkab bosqich EVA (etilen-vinilatsetat) qatlamini ajratishdir. Ali va hammualliflari (2024) *"Hybrid Laser and High-Voltage Pulse Technologies for Photovoltaic Module Delamination"* tadqiqotida lazer va yuqori kuchlanish impulslarini birlashtirgan innovatsion usulni taklif etadi.

Mazkur usul:

- delaminatsiya vaqtini qisqartiradi;
- shisha sinishini kamaytiradi;
- material yo‘qotilishini minimallashtiradi.

Kamchiligi – uskunaning qimmatligi va sanoatga joriy etish xarajatlarining yuqoriligidir.

**4. Kimyoviy qayta ishlashning afzalliklari va cheklovlari**

Dias va hammualliflari (2019) kimyoviy qayta ishlash orqali kremniyni 95 % dan ortiq tozalikda tiklash mumkinligini isbotlagan. Ularning *"Chemical Recycling of Crystalline Silicon Photovoltaic Modules"* maqolasi yuqori sof material olish bo‘yicha muhim manbadir.

**Afzalliklari:**

- yuqori tozalikka ega kremniy;
- kumush va misni samarali ajratish;
- yarimo‘tkazgich sanoatida qayta foydalanish imkoniyati.

Kamchiligi:

- kimyoviy reagentlar sarfi katta;
- chiqindi eritmalarni zararsizlantirish zarur.

**5. Sanoat miqyosidagi texnologiyalar**

Wei va hammualliflari (2025) *"Industrial-Scale Recycling Pathways for Crystalline Silicon Photovoltaic Modules"* maqolasida laboratoriya usullarini sanoat miqyosiga ko‘chirish masalalarini o‘rganadi. Mualliflar avtomatlashtirilgan demontaj liniyalarining iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatgan. Yutug‘i – texnologiyaning real sanoat sharoitida qo‘llanishi. Kamchiligi – dastlabki kapital investitsiya hajmining kattaligi.

**6. Resurslarni qayta tiklash samaradorligi**

Gahlot va hammualliflari (2022) o‘z tadqiqotida quyosh batareyalaridan kumush, alyuminiy, mis va kremniyni qayta tiklash imkoniyatlarini baholagan. Ularning natijalariga ko‘ra, quyosh batareyalari massasining 90–95 % gacha bo‘lgan qismi qayta ishlanishi mumkin. Bu natija quyosh batareyalari chiqindilarini chiqindi emas, balki ikkilamchi xomashyo manbai sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.


ISSN 3030-3907

**7. Aylana iqtisodiyot yondashuvi**

Torróntegui-Chávez va hammualliflari (2026) *"Systemic Approaches for End-of-Life Photovoltaic Waste Management"* maqolasida quyosh batareyalari uchun aylana iqtisodiyot modelini taklif etadi. Ushbu model quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- dizayn bosqichida qayta ishlashga moslashtirish;
- ta’mirlash va qayta foydalanish;
- modulli konstruksiya;
- to‘liq material tiklash.

Bu yondashuv utilizatsiya muammosini paydo bo‘lishidan oldin oldini olishga xizmat qiladi.

**8. Hayotiy sikl monitoringi va raqamlashtirish**

Zhang va hammualliflari (2024) blokcheyn asosidagi kuzatuv tizimini taklif etgan. Bu texnologiya quyosh batareyalarining ishlab chiqarilishidan tortib utilizatsiyasigacha bo‘lgan barcha bosqichlarini nazorat qilish imkonini beradi.

Afzalliklari:

- shaffoflik;
- kuzatuvchanlik;
- qayta ishlash logistikasini optimallashtirish.

**9. Global siyosat va boshqaruv tajribasi**

Nain va Kumar (2022) turli mamlakatlardagi quyosh batareyalari chiqindilarini boshqarish siyosatini tahlil qilgan. Ularning xulosasiga ko‘ra, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas’uliyati (EPR) modeli eng samarali yondashuv hisoblanadi.

**10. Integratsiyalashgan texnologik model**

Yuqoridagi 10 ta tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi kompleks model taklif etiladi: 1. Quyosh batareyalari dizaynini demontajga moslashtirish. 2. EVA qatlamini lazer-impuls usuli bilan ajratish. 3. Qimmatbaho metall va kremniyni kimyoviy qayta tiklash. 4. Blokcheyn asosida hayotiy sikl monitoringi. 5. EPR asosida iqtisodiy boshqaruv tizimini joriy etish.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, alohida texnologiyalar muammoning faqat ma’lum qismini hal qiladi. Eng yuqori samaradorlikka esa mexanik, termik, kimyoviy va raqamli texnologiyalarni birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuv orqali erishiladi.

Taklif etilayotgan model quyidagilarni ta’minlaydi:

- chiqindilar hajmini kamaytirish;
- resurslarni maksimal qayta tiklash;
- iqtisodiy foyda oshishi;


ISSN 3030-3907

•ekologik xavfsizlikning kuchayishi.

**XULOSA.** O‘rganilgan 10 ta ilmiy manba tahlili shuni ko‘rsatadiki, quyosh batareyalarini utilizatsiya qilish muammosini samarali hal etish uchun faqat qayta ishlash yetarli emas. Asosiy e’tibor quyosh batareyalarining butun hayotiy siklini boshqarishga qaratilishi lozim. Ayniqsa, dizayn bosqichidan boshlab qayta ishlashga mos konstruksiyalar yaratish, EVA qatlamini samarali ajratish, qimmatbaho materiallarni yuqori darajada tiklash va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, quyosh batareyalaridan samarali foydalanish orqali utilizatsiya muammosining oldini olish mumkin. Bu esa nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ham yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Celep, O., Deveci, H., & Yazici, E. Y. (2025). Advances in photovoltaic module recycling technologies: A comprehensive review.
2. Torróntegui-Chávez, G., et al. (2026). Systemic approaches for end-of-life photovoltaic waste management within circular economy frameworks.
3. Wei, G., et al. (2025). Industrial-scale recycling pathways for crystalline silicon photovoltaic modules.
4. Nain, P., & Kumar, A. (2022). Photovoltaic waste management and recycling: A global review.
5. Gahlot, R., et al. (2022). Recovery of valuable materials from end-of-life photovoltaic modules.
6. Ali, A., et al. (2024). Hybrid laser and high-voltage pulse technologies for photovoltaic module delamination.
7. Dias, P., et al. (2019). Chemical recycling of crystalline silicon photovoltaic modules.
8. Chowdhury, M. S., et al. (2020). Forecasting waste generation from solar photovoltaic systems.
9. IRENA & IEA-PVPS. (2023). End-of-life management: Solar photovoltaic panels.
10. Zhang, Y., et al. (2024). Blockchain-enabled lifecycle tracking and recycling management for photovoltaic modules.


ISSN 3030-3907

# QUYOSH PANELLARIDAN FOYDALANISHDAGI ELEKTR ENERGIYA YO‘QOTISHLARINI TADQIQOT ASOSIDA YUKLAMA TAVSIFI BO’YICHA O‘RGANISH UCHUN TAJRIBA STENDINI YARATISH

**Saydulla Abduraxmonovich Jurayev**
*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Fizika va energetika kafedrasida Katta o‘qituvchi*
*E-mail: s.6769@mail.ru*
*Tel: +998975466769*

**Abstract.** This text highlights the issues of effective use of green energy, particularly solar photovoltaic systems, which are considered relevant today. The problem of electricity losses due to resistance in the installation cables during the installation of solar panels was analyzed. To determine the influence of cable dimensions on economic and technical efficiency, a design, drawing, and components (resistors, diodes, measuring instruments) of a special research stand were developed.

**Keywords:** green energy, solar panels, photovoltaic converter, mounting cable, specific resistance, power loss, research stand.

**Аннотация.** В данном тексте освещены актуальные вопросы зеленой энергетики, в частности, эффективного использования солнечных фотоэлектрических систем. Проанализирована проблема потерь электроэнергии из-за сопротивления в монтажных кабелях при установке солнечных панелей. С целью определения влияния размеров кабеля на экономическую и техническую эффективность разработаны проект, чертеж и составные части (резисторы, диоды, измерительные приборы) специального исследовательского стенда.


**Ключевые слова:** зеленая энергетика, солнечные панели, фотоэлектрический преобразователь, монтажный кабель, удельное сопротивление, потери мощности, исследовательский стенд.

**Annotatsiya.** Ushbu matnda bugungi kunda dolzarb hisoblangan yashil energetika, xususan, quyosh fotoelektr tizimlaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Quyosh panellarini o‘rnatishda elektr energiyasining montaj kabellaridagi qarshilik tufayli yo‘qotilish muammosi tahlil qilingan. Kabel o‘lchamlarining iqtisodiy va texnik samaradorlikka ta’sirini aniqlash maqsadida maxsus tadqiqot stendining loyihasi, chizmasi hamda tarkibiy qismlari (rezistorlar, diodlar, o‘lchov asboblari) ishlab chiqilganligi bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil energetika, quyosh panellari, fotoelektr o‘zgartirgich, montaj kabeli, solishtirma qarshilik, quvvat yo‘qotilishi, tadqiqot stendi.

## KIRISH.

Yashil energetikadan foydalanish bugungi kunda juda dolzarb mavzulardan biri bo'lib turibdi. Quyoshning yorug'lik energiyasini elektr energiyaga o'zgartirib foydalanish ekologik jixatdan eng zararsiz usul hisoblanadi. Shunga ko'ra davlatimiz miqyosida keng iste'molga imkon yaratish ustida tegishli imtiyozlar berilayadi va tegishla qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Bu imkoniyatlar o'z navbatida fuqarolik ob'ektlariga va tashkilotlarga quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi tizimlar o'rnatildi va bu davom etayapdi. Quyoshning yorug'lik nuri yordamida elektr energiya ishlab chiqaruvchi fotoelektr o'zgartirgich panellar(*keyingi matnda quyosh panellari deyiladi*), ushbu tizimlarning tayanch qismi hisoblanadi. Quyosh panellari ishlab chiqargan elektr energiyasining xossalari ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilanib pasportida ko'rsatiladi.




**«DGU-50949» hujjati berilgan dasturning ishchi xolati**


Korxona, ishlab chiqaruvchilar o'ziga hos qiymatlardagi: eng yuqori kuchlanish; o'rtacha elektr zaryad oqimi; qisqa tutashuvdagi elektr zaryad oqimi, maksimal quvvat ko'rsatkichlarini pasportida belgilaydi. Quyosh panellari o'rnatilishida ob'eklarning tom qismiga yoki alohida moslamalar bilan quyosh nuri tushib turadigan joylarga o'rnatiladi. Quyosh panellaridan chiqqan elektr energiya iste'molchiga kabellar yordamida olib boriladi. Elektr energiya iste'molchilari bir soatda qancha quvvat energiya talab qilishi va quyosh panellaridan chiqqan elektr energiya quvvati o'zaro mos bo'lsa yoki iste'molchining talab quvvati kam bo'lsa quyosh paneli tizimidan foydalanish nuqsonsiz ishlaydi. Nuqsonsiz, kamchiliklarsiz quyosh paneli tizimining ishlashi uchun aniq hisoblashlar bajarilishi zarur. Shulardan biri: quyosh paneliga ulangan montaj kabellarining


ISSN 3030-3907

o’lchamlaridir. Ushbu formula: R=ρ*L/S (Om) ya’ni R – montaj kabelining qarshiligi, ρ (ro’) – metal o’tkazgichning solishtirma qarshiligining L – metal o’tkazgichning uzunligiga ko’paytmasiga va natijani S – metal o’tkazgichning yuzasiga bo’linmasiga teng. Montaj kabellarining qarshiligi hisobiga elektr energiyaning ma’lum miqdorini kabelda yo’qoladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki kabelning o’lchamiga bog’liq ravishda quyosh paneli ishlab chiqargan elektr energiya iste’molchiga yetib kelmasdan yo’qotiladi. Quyosh paneli tizimi uchun qanday o’lchamdagi kabellardan foydalanish samarali bo’lishini aniqlash dolzarb ish bo’lgani uchun ma’lum ketma-ketlikdagi tadqiqot ishlarini bajarish zarur.

Ushbu tadqiqotni bajarish uchun tajriba stendini yaratish talabi borligi va o’lchov tadqiqotlarini bajarish quyosh panelidan foydalanish tizimining iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi omillarni ko’rsatishga xizmat qiladi.

Montaj kabellaridagi yo’qotishlarni o‘lchash uchun yaratilgan tadqiqot stendi g’oyasi asosida uning tashkiliy ishlash loyihasi ishlab chiqildi va chizmasi yaratildi. Tadqiqot stendida o’n to’rt dona rezistor, ikki dona diod bir bona ampermetr, uch dona volьtmetr, o’n ikki dona elektr maxkamlagichlar, 32 dona vintli maxkamlagichlar va steklotekstolitdan foydalanildi. Stendning chizmasi 1 – rasmda ko’rsatilgan.




**1 – rasm. Tadqiqot stendining ekvivalent chizmasi.**

Tadqiqot stendi yuqoridagi chizma asosida elektr zanjiri hosil qilib yig‘ilgan. Quyosh panelidan chiqqan elektr zaryadlar kabellar orqali stendga ulanadi, kabelning plyus uchi orqali elektr zaryad oqimi ampermetr orqali VD1, VD2 – diodlarining biriga ulanib undan so‘ng R3, R4, R5, R6, R7, R8 rezistorlari orqali kabelning minus uchiga ulanadi. Vp – voltmetri quyosh panelining yoniga


ISSN 3030-3907


o‘rnatiladi va uning yordamida quyosh panelidan chiqqan kuchlanish o‘lchanadi. V1 – voltmetri yordamida stendga kelgan kuchlanish o‘lchanadi. V2 – voltmetr yordamida iste’molchiga boradigan kuchlanish o‘lchanadi. A – ampermetr yordamida quyosh panelidan chiqqan zaryad oqimi o‘lchanadi. Rezistorlardagi diodlardagi va paneldagi kuchlanishlarni o‘lchab natijani elektr zanjiridagi ketma-ket ulangan ampermetrning o‘lchangan qiymatiga ko‘paytirish orqali iste’mol quvvati hisoblanadi.

VD1, VD2 – diodi sifatida ishlab chiqarilishiga ko‘ra ikki turdagi dioddan almashtirib ulash asosida foydalaniladi, bittasi kuch diodi va ikkinchisi shottki diodi. Bu diodlar o‘zida kuchlanish olib qolishiga ko‘ra solishtiriladi.

R1, R2 – rezistorlari montaj kabelining qarshiligini ko‘rsatadi.

R3, R4, R5, R6, R7, R8 – rezistorlari yuklama qurilmalarining ichki qarshiliklarini ifodalaydi.

Yuqoridagi ekvivalent chizma asosida ishchi qat’iylik chizmasi ishla chiqildi.





**2 – rasm. Tadqiqot stendining ishchi qat’iylik chizmasi.**

Ushbu ishchi qat’iylik chizmasida, tadqiqot stendining tajriba namunasi ishlab chiqildi. Buning uchun asos sifatida yuqori xaroratga chidamli dielektrik material hisoblangan steklotekstolit tanlandi.


ISSN 3030-3907

Ushbu 2-rasmdagi tadqiqot stendining chizmasi asosida tajriba stendi(3-rasm) yaratildi. Tajriba stendida, hech qanday qo‘shimcha qurilmalarsiz mustaqil ravishda o‘lchov ishlari bajariladi.



**3 – rasm. Tadqiqot uchun yaratilgan stendning ko‘rinishi.**

Tajriba stendi yordamida 200-600Vattgacha quyosh panellari tizimlaridagi yo‘qotishlarni yuklama tavsifi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish imkoni paydo bo‘ldi. Stendda rezistorlar o‘zaro qisqa tutashuv hosil qilmasligi uchun parallel ulangan rezistorlar 1-2mm masofada vitlar bilan steklotekstolitga maxkamlangan. Diodlar va voltmetr ampermetrlar ham bir birlaridan kamida 5mm masofada joylashgan, bu esa elektr zaryadlarining xarakati davrida qisqa tutashuvlar bo‘lmasligini ta’minlaydi.

Tadqiqot stendini ixchamlashtirish uchun 1-rasmda ko‘rsatilgan ekvivalent chizmadagi rezistorlar optimallashtirilib 200-300 vatt quvvatdagi gabariti katta qo‘pol o‘lchamdagi rezistorlardan bir donadan emas bir necha 100 vattli rezistorlarni parallel ulash orqali tashkil qilinib, gabarit o‘lcham kamaytirildi. Stendning yuklama quvvatini o‘zgartirish uchun maxkamlagichlar o‘rnatilgan(3-rasmda P shakldagi jigarrang rangli ebonit izolyatsiyaga ega elektr maxkamlagichlar) va yuklama qarshiligi tartib bilan ketma-ket kamaytirib yoki oshirib boriladi. Yuklama rezistorlari ketma-ket kavsharlanib zanjir ko‘rinishida ulangan.

3-rasmda chapdagi o‘lchash qurilmasi ampermetr va voltmetrni o‘z ichiga oladi. O‘ng tomondagi o‘lchash qurilmasi voltmetr bo‘lib chiqish yuklama rezistoriga parallel ulangan va yuklama rezistoridagi kuchlanishni ko‘rsatadi.


ISSN 3030-3907


Ikkala o‘lchash qurilmalari 100 Voltgacha kuchlanishni va 20 Ampergacha bo‘lgan elektr zaryad oqimini ko‘rsatadi.

Tadqiqot stendidagi rezistorlarni, issiqlik tarqatishi yuqori bo‘lgan alyumin korpusli element tanlangan. Qurilmani yig‘ish uchun steklotekstolit tanlangan va bu elektr o‘tkazmaydigan yuqori haroratga chidamla asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘lchash xatoliklari kichik bo‘lishi uchun tadqiqot stendi ishlaydigan muxit 30ºC ±10 ºC xaroratida bo‘lishi talab etiladi.

Shu kungacha turli joylarda o‘rnatilgan quyosh paneli tizimlarining qurilishi va montaj kabellari to‘g‘risidagi surishtiruvlarga ko‘ra O‘zbekistonda hech bir tashkilot quyosh panellaridan chiqqan elektr energiyaning montaj kabellarida yo‘qotilishi bo‘yicha tadqiqot olib bormagan, shu sababdan 3-rasmdagi stend asosida montaj kabellaridagi yo‘qotishlarni aniqlash zarurligi ayon bo‘ldi. O‘lchash ishlarini olib borish uchun uch xil yuzaga ega bo‘lgan kabel tanlanib, tadqiqot o‘tkazildi. Quyosh paneliga kabellar ulanib kabelning ikkinchi tomoni tadqiqot stendiga ulandi. O‘lchash ishlari kunduzi quyoshli vaqtda soat 10-11 atrofida, 550 Vattli quyosh paneli yordamida bajarildi.

Har bir o‘lchov natijalari yozib olinib, jadval ishlab chiqildi. Ushbu jadvalda quyosh paneli ishlab chiqargan elektr energiyasi iste’molchiga yetib borishida qancha yo‘qotishlar bo‘lgani namoyon bo‘ldi va yuklama sifatidagi iste’molchining quvvati oshib borishi, ya’ni iste’molchining qarshiligi kichik bo‘lishi, elektr energiyasining yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi aniqlandi.
O‘lchash jarayonida yuklama rezistori 0.5 Om farq bilan 4 Omdan 2 Omga kamaytirilib borildi. Bu ish 2 marta takrorlandi, ya’ni birinchisi kuch diodi orqali elektr zaryadlari oqimi zanjirdan o‘tkazildi, ikkinchi marta o‘lchashda Shottki diodi orqali elektr zaryadlari oqimi zanjirdan o‘tkazildi.

Quyosh paneliga 4mm2, 6mm2, 10mm2 kabellari ketma-ket ulanib kabelning ikkinchi tomoni tadqiqot stentiga ulandi. Uch xil yuzadagi kabellar stend va quyosh paneliga navbat bilan ulanib o‘lchandi.




O‘lchash natijalari asosida ishlab chiqilgan jadvaldan ko‘rish mumkin bo‘ldiki, ya’ni kabellarning yuzasi qanchalik katta bo‘lsa, elektr zaryadlari oqimi shunchalik ko‘payishi namoyon bo‘ldi. Undan tashqari quyosh panelidan chiqqan ishchi to‘yinish zaryad oqimining qiymati va optimal yuklama qarshiligi qiymati hosil bo‘ldi.


ISSN 3030-3907

Ushbu yaratilgan tadqiqot stendidan o‘quv jarayonlarida laboratoriya ishlarida tadqiqot o‘tkazib o‘lchov ishlarini bajarish uchun foydalaniladi.

Yaratilgan tadqiqot stendining analoglari mavjuda emas ammo alohida ampermetr va voltmetr va rezistorlar yordamida bir necha marta mantaj kabellarga uzib ulashlar orqali alohida o‘lchash tadqiqotlari o‘tkaziladi.

Ushbu tadqiqot stendi yordamida uch turdagi montaj kabellarining elektr energiya sarfi aniqlandi. O‘lchov natijalari jadval ko‘rinishida ko‘rsatiladi.

**1-Jadval**

| 550W Quyosh paneliga **30SQ050** Shottky diodi orqali ulangan yuklamalarni tadqiq qilish | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| S($m m^2$) | R(om) | $U_p$(V) | I (A) | $U_k$ (V) | $U_{ch}$ (V) | $P_p$(Wt) | $P_i$(Wt) | $P_k$(Wt) | $P_d$(Wt) | $P_{k+d}$(Wt) | F.I.K. |
| 4 | 4,0 | 44,3 | 9,04 | 42,7 | 42,5 | 400,47 | 384,20 | 14,46 | 1,81 | 16,27 | 0,96 |
| | 3,5 | 43,2 | 9,97 | 41,5 | 41,3 | 430,70 | 411,76 | 16,95 | 1,99 | 18,94 | 0,96 |
| | 3,0 | 41,2 | 11,1 | 39,8 | 39,7 | 457,32 | 440,67 | 15,54 | 1,11 | 16,65 | 0,96 |
| | 2,5 | 36,3 | 11,8 | 34,7 | 34,6 | 428,34 | 408,28 | 18,88 | 1,18 | 20,06 | 0,95 |
| | 2,0 | 27 | 12 | 25,3 | 24,9 | 324,00 | 298,80 | 20,40 | 4,80 | 25,20 | 0,92 |
| | | | | | | | | | | | |
| 6 | 4,0 | 44,3 | 9,02 | 43 | 42,8 | 399,59 | 386,06 | 11,73 | 1,80 | 13,53 | 0,97 |
| | 3,5 | 43,5 | 9,83 | 42,2 | 42,1 | 427,61 | 413,84 | 12,78 | 0,98 | 13,76 | 0,97 |
| | 3,0 | 41,5 | 11 | 40,1 | 40,0 | 456,50 | 440,00 | 15,40 | 1,10 | 15,40 | 0,97 |
| | 2,5 | 36,3 | 11,8 | 34,9 | 34,6 | 428,34 | 408,28 | 16,52 | 3,54 | 20,06 | 0,95 |
| | 2,0 | 26,6 | 12 | 25,4 | 25 | 319,20 | 300,00 | 14,40 | 4,80 | 19,20 | 0,94 |
| | | | | | | | | | | | |
| | 4,0 | 44,3 | 9,02 | 43,2 | 43,1 | 399,59 | 388,76 | 9,92 | 0,90 | 10,82 | 0,97 |


ISSN 3030-3907

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
